

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA TARIX FAKULTETI

FALSAFA KAFEDRASI

MA'NAVIYAT ASOSLARI

fanidan

ma'ruzalar matni

Ta'lim yo'nalishi – 5220300 – “Falsafa”

Tuzuvchi: O'qit. I k r a m o v a I. R.

KIRISH

Mustaqillikni qo'lg'a kiritganimizdan keyin tarixan qisqa vaqt ichida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo'lg'a kiritildi. Bu yutuqlarga Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurish Konsepsiyasi nazariy asos bo'lib, xizmat qildi. Bu konsepsiya millatimizning o'ziga xos urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va mentalitetini hamda mamlakatimiz taraqqiyot darajalarini qat'iy hisobga olish bilan «o'zbek modeli»ni o'zida aks ettirgan.

O'zbekiston sobiq sho'rolar totalitarizmi sharoitida yashab kelganligi bois, uni tugatib, demokratik jamiyat qurish tomon qadam qo'yish juda murakkab masala edi. Chunki, totalitarizm nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotga, xuddi shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy hayotga, insonlarning dunyoqarashiga o'zining ta'sirini o'tkazgan edi. Shuning uchun ham demokratik jamiyat qurishning «o'zbek modeli» da jamiyatni tubdan o'zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy tayanch manba sifatida yangi ma'naviyat va dunyoqarashni shakllantirish belgilandi.

Prezidentimiz 1992 yildayoq, «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak, deganlar haq bo'lmasalar kerak. Ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir», - deb ta'kidlagan edi.

Ana shu ko'rsatmaga muvofiq ma'naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko'garildi. Xususan, Prezidentimizning 1994 yil 23 aprelda Respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida», 1996 yil 9 sentyabrda esa «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida», 1999 yil 3 sentyabrdagi «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonlari va 1998 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviy va ma'rifiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», maxsus qarori qabul qilindi. Bu xujjatlarga binoan Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1997 yildan boshlab barcha oliy o'quv yurtlarida «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» maxsus kursini o'qitish to'g'risidagi qaror qabul qildi va uning dastlabki o'quv dasturlari ishlab chiqildi. O'tgan davr ichida ma'lum bir tajribalar to'plandi, kursda foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy va ommabop maqolalar hamda risolalar chop etildi. Chunki, xalqimizning, jamiyatning ma'naviyatini ko'tarish va rivojlantirish bugun ham, ertaga ham muhim vazifa sifatida qolishi muqarrardir. Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma'ruzasida O'zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekan, «Ikkinchi ustuvor yo'nalish — jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat»ligini ta'kidlab o'tdi. Mustakilligimizni mustahkamlashda bugungi kunda ma'naviyatning roli nihoyatda tez o'sib bormokda. Chunki, u insonda, xususan yoshlarniig ruhan baquvvat bo'lishiga, o'z Vatani va xalqi manfaatlarining fidoiylari bo'lib yetishlarida va yot mafkuralarga qarshi kurashlarida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasiga yozgan so'z boshlarida: «Oldimizga qo'yagan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yimaslik, begona va yot g'oyalarning hurujidan himoyalash, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda»¹. Haqiqatan ham ma'naviyat qanchalik yuksak bo'lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o'rin qolmaydi, uning o'rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg'ulari yuksak darajaga ko'tariladi, o'zaro munosabatlarda samimiylik, birdamlik, mehr-oqibat, e'tiqod, imon, mas'uliyat va boshqa bir qator ijobiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o'rin olib boraveradi.

Ana shu o'ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma'naviyatini shakllantirish va milliy istiklol g'oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida biz qo'lg'a kiritgan istiqloqning ma'no va mazmuni, milliy

¹ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000, 5-bet.

o'zligimiznn to'la anglashimizga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimizni mustahkamlashimizga, Vatan va millat istiqboli uchun har birimizning mas'ulligimizni tushunib yetishimizga o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi.

Xuddi mana shularni ijobiy hal qilishimiz uchun Prezidentimiz ma'naviyatimizni yangilash borasida oldimizga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi. Zero, ular ta'kidlaganidek, **«Jamiyatni ma'naviy yangilashdan bosh maqsal – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik. diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat»². BU ulkan vazifalarnii ma'naviyatimizni milliy istiqlol g'oyalari bilan bovitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi.**

Shu ma'noda ham ma'naviyatni talaba-yoshlarimizga o'rgatishga ehtiyoj o'sib bormoqsa va bu borada oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ayniqsa, mukammal o'quv qo'llanmalarni va ular asosida darsliklarni yaratish ana shunday dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu vazifaning murakkabligi shundaki, «Ma'naviyat asoslari» mustaqilligimizning mevasi sifatida paydo bo'ldi. Mustaqilligimizgacha, bu tushuncha mustaqil ravishda o'zining aniq tasnifiga ega bo'lmagan, aynan unga bag'ishlangan ilmiy asarlar ham yaratilmagan. Bu kurs mamlakatimizning tubdan o'zgartirish va mustaqil taraqqiyotimizga xizmat qiluvchi ma'naviyatni shakllantirishning ehtiyoji sifatida paydo bo'ldi.

² Islom Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi—xalq e'tiqoli va buyuk kelajakka ishonchdir. T., ..O'zbekiston». 2000, 23-24-betlar.

ISLOM KARIMOVNING MILLIY-MA'NAVIY TIKLANISH KONSEPSIYASI, UNING MILLIY MUSTAQILLIKNI MUSTAHKAMLASH VA MILLIY TARAQQIYOTDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. Islom Karimov tomonidan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning nazariy hamda amaliy ahamiyati.
2. Islom Karimovning ma'naviyat tushunchasiga ta'rifi, uning nazariy va metodologik ahamiyati.
3. Mustaqillik yillarida milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishida Islom Karimovning xizmatlari.

Ta'yanch so'z va iboralar: milliy-ma'naviy tiklanish, milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi, ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy negizlar, umuminsoniy qadriyatlarga, ma'naviy meros, vatanparvarlik, milliy ma'naviyat, madaniyat, ma'naviy ruh, milliy taraqqiyot, milliy tiklanish, milliy istiqloq g'oyasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga Islom Karimovning ma'naviyat tushunchasiga bergan ta'rifi, uning nazariy va metodologik ahamiyatini ochib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi haqida tushuncha, bilimlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining nazariy hamda amaliy ahamiyati yetkazish.

1. Mamlakat va milliy taraqqiyot unga rahbarlik qiluvchi yetakchiga bog'liq bo'ladi. Chunki, u mamlakatning qaysi yo'ldan borishi, qanday maqsadlarni ko'zlashi va bajariladigan ishlarni amalga oshirishning strategiyasini belgilab beradi hamda uni real hayotga tatbiq qilish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olishga qodir bo'ladi. Shuning bilan birga rahbar uchun xos bo'lgan muhim hususiyat shundaki, u o'zi tanlagan yo'lning aniq mo'ljalini, uning kelajakda mamlakatni taraqqiyot qildirishga xizmat qilaoladigan imkoniyatlarini aniq bilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari, u o'zi belgilab bergan vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakat aholisini o'z orqasidan ergashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo'lgan yetakchi uchun yana bir shart shuki, u o'zi belgilab bergan vazifalar ichidan asosiy halqani topa bilishi va uni belgilab maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qildirga bilishga salohiyati yetarli bo'lishi lozim bo'ladi. Yuqoridagilarni umumlashtiradigan bo'lsak, mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo'lgan yetakchi uni taraqqiyot qildirishga xizmat qilaoladigan ilmiy g'oyalar majmuasi hisoblanadigan taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishning imkoniyatlarini belgilab berishi talab etiladi.

Islom Karimov ko'rsatilgan barcha hususiyatlar va salohiyatni o'zida mujassamlashtirgan rahbar bo'lganligi uchun ham mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik vazifalari aniq belgilab berdi va uni amalga oshirishning yo'nalishlari, uslublari hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqara oldi.

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma'naviy tiklanish ustuvor o'rinni egalladi. Bu albatta, bejiz emas. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki, ma'naviyat rivojlangandagina

jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Buni chuqur his qilgan va o'z qalbidan o'tkazgan Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni milliy-ma'naviy tiklanish bilan uyg'un holatda bo'lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o'zining hajmi jihatdan kichik bo'lsa ham, ammo, mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dastur bo'lgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida mustaqillikdan keyin O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Umuman bu asar O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmga asoslangan dasturi hisoblanadi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g'oyalar o'tgan davrda o'zining ifodasini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko'tarildi.

Islom Karimov ushbu asarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini ko'rsatib berar ekan, «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi», — deb ko'rsatadi va quyidagilarni belgilab beradi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik³.

Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan.

Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: «Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai — xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmokda. O'zbekistonning yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir»⁴.

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz o'z asarida ma'naviyatimizni rivojlantirish vazifalarini belgilab bergan.

Muallif xalqimizning ma'naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta'kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Bu masalaga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, Prezidentimiz keyingi asarlarida ham ma'naviy merosimizni qayta tiklash g'oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma'naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo'nalish bo'lishini asoslab beradi.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlarini haqida to'xtalib insonparvarlikning o'zbeklarga xos qirralarini ko'rsatib berishga e'tiborni qaratadi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir».

Xuddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini talabalarga yetkazish muallimning diqqat markazida bo'lishi zarur. Chunki, asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga yetib borishlari zarurdir.

Asarda ma'naviyatning xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Prezidentimiz shunday yozadi: «Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish — O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan yetilgan»⁵.

Ma'naviyatning milliy taraqqiyotidagi o'rni va uni o'zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan:

³ Karimov I.A O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1993. 74-bet.

⁴ O'sha asar. 74-bet.

⁵ O'sha asar. 78-bet.

«Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»⁶.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ana shu konseptual g'oyalari bugungi kunda milliy ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilanishga xizmat qilib kelmokda.

Islom Karimov o'z asarida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib, quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydi. Oldin odamlar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-sodat bo'lmaydi...».

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozining sabablarini ham ko'rsatib beradi. Ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy ruhiyatini o'zgartirmasdan turib jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligini ilmiy asoslab berdi.

Prezidentimizning yana bir muhim konseptual g'oyasi ma'naviyat shaxs (ma'naviy barkamolligi)ning eng muhim mezonini va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z-o'zini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatdan ham o'z Vatani sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Shu o'rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. U ham bo'lsa «Milliy taraqqiyot» va «Milliy tiklanish» tushunchalarining mohiyati, mazmuni va mezonini masalalaridir. Aslida ular bir-birlarini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Aksincha, merosi, tarixiy xotirasi va zaminlari mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o'zaro uyg'un holatigina milliy taraqqiyotni ta'minlaydi. Lekin falsafiy kategoriya (tushuncha) sifatida va o'lchamlari (mezonlari) jihatidan ular bir-birlaridan farq qiladilar.

Milliy taraqqiyot — evolyusion xarakterga ega. U pastdan yuqoriga tomon ko'tarilishdan iborat bo'lgan jarayondir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining ma'lum bir bosqichida, ma'lum bir ob'ektiv va sub'ektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan jarayondir.

Millat qachonki, milliy zaminlarga tayansagina taraqqiyotga erishishi mumkin. U hech qachon o'zgalarning ma'naviy yordami bilan millat darajasiga ko'tarila olmaydi va ma'naviy rivojlanishga erisha olmaydi.

Prezidentimizning asarlarida ilgari surilgan konseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidaga o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

⁶ O'sha asar. 78-bet

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqbol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o'tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoiylik va ilhom manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzololar, olimu-ulomolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilmlarniig asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan...

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi⁷,— deb ta'kidlaydi. Uning «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir»⁸

Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashdi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi⁹, deb ta'kidlaydi. Prezidentimiz o'z navbatida milliy g'oyaning vazifalarini aniq belgilab beradi: «... milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishlik oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur»¹⁰ligini belgilab beradi. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukumronligidan ozod bo'lib demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish, yana boz ustiga zo'ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma'rifatli inson manfaatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o'tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O'z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko'rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma'lum vaqtni, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoiylik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma'naviy e'tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat taffakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko'tariladi. Mamlakatimizda ana shu buyuk muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni mavaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham prezidentimiz og'ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tatbiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni amalga oshirishda rahbarlik qilmoqyaa. U Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida bu dasturning ahamiyatini shunday ta'kidladi: «Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jmiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri — bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmokdamiz»¹¹.

Prezidentimizning milliy-ma'naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g'oyasi sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish zaruriyatini ilmiy asoslanganligidir. Uning sog'lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo'lishi, yuksak bilim, ma'naviyat, tafakkur va fidoiy vatanparvar bo'lishi kabi talablarga javob beradigan avlod nazarda tutiladi. Shuning uchun ham u, «...farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi»,— degan g'oyani ilgari suradi.

⁷ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., "Sharq", 1998, 3, 4 betlar.

⁸ O'sha asar. 5, 10-betlar.

⁹ I. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. T., "O'zbekiston". 1998, 2,4, 15–betlar.

¹⁰ O'sha asar. 15-bet.

¹¹ Barkamol avlod orzusi. T., "Sharq", 1999, 9-bet.

Milliy-ma'naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirishlari katta omil ekanligi Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslangan.

Haqiqatan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko'rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan hissalar shunchalik samarali bo'ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Prezidentimiz ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o'rinni egallaydi. Jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida dunyo xalqlari ma'naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha o'zbek tilida yoshlarimizga yetib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta'kidlaydi: «Dunyo tan olgan ko'p ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nisshe va Freyd kabi olimlarning hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o'zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo'lmasa?»¹².

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz milliy-ma'naviy rivojlanishimizni jahon xalklarining ilg'or ma'naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda rivojlantirish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqsa.

Bu bejiz emas albatta. Chunki, o'z qobig'idan chiqoilmagan, jahon xalqlari erishgan yutuqlaridan foydalanishga intilmagan millat taraqqiy qila olmaydi. Bundan tashqari, milliy taraqqiyot uchun yana bir qonuniyat ham borki, jahonda erishilgan yutuqlardan va tajribalardan foydalanishga harakat qilmagan millatning o'zi ham umumjahon sivilizatsiyasiga o'zining hissasini ham qo'sha olmaydi. Shu ma'noda ham Prezidentimiz milliy-ma'naviy taraqqiyotimizning muhim omili sifatida jahon xalqlarining manaviy taraqqiyotda erishgan yutuqlaridan keng foydalanishimiz, ularni keng o'zlashtirishimiz zarurligini ilmiy asoslab bergan. U O'zbekistonda ishlab chiqilgan «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasiga yozgan so'z boshisida «...men milliy istiqloq g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan tahlil dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb bilaman»,¹³ — degan g'oyani ta'kidlaydi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasining amaliy ahamiyati shundaki, u bugun milliy va jahon ma'naviyati taraqqiyoti ehtiyojlarini o'zida to'la ifoda ettirgan bu g'oyada milliylik va umuminsoniy ma'naviyati uyg'un holda asoslangan. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy tiklanishimiz barqaror jarayon sifatida namoyon bo'lib keldi.

2. Ma'naviyatning inson va millat kamolotdagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniq bilib olish hamda shu asosda uni rivojlantirish, uning mohiyati hamda mazmunini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki, ma'naviyatning mohiyati va mazmunini bilib olmasdan turib, uning inson, millat, xalq va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sir imkoniyatlarini ham aniq tasavvur etib bo'lmaydi.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, sobiq sho'rolar tizimi sharoitida ma'naviyat bugungi holatda o'rganilmagan. U ma'naviy madaniyatning tarmog'i sifatida yoki olimlar asarlarida tilga olingan xolos.

Bu juda murakkab masalaga shu darajada «e'tiborsizlik» ataylab qilingan. Chunki u shaxs va millatning ichki ruhiy salohiyati bilan bog'liq bo'lgan omildir, shuning uchun shaxsning ruhiy olamiga kirib borish, uni mustaqil fikr yuritishga, millatning esa ma'naviy-ruhiy olamini yuzaga

¹² Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., «O'zbekiston», 2000, 34-35-betlar.

¹³ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 7-bet.

chiqarish, uning o‘zini-o‘zi anglashga, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritish va o‘zi xohlagan taraqqiyot yo‘lidan borishiga yo‘l qo‘ymaslik davlatning rasmiy siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi.

To‘g‘ri, milliy madaniyat haqidi ko‘p yozilgan va ko‘p gapirilgan, ammo, nomi aytilsa ham amalda «yagona» sovet madaniyati, adabiyoti, san‘ati, axloqi va hokazolar shaklida aks ettirilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad shaxs va millatni ma‘naviy qashshoq qilish, uni totalitarizm tuzumiga xizmat qildirish va itoatda ushlab turish edi.

Aslida bir necha milliy madaniyatlar hech qachon bir mazmuni ifodalashi mumkin emas. Chunki, ularda millatning dunyoqarashi, o‘ziga xosligi, manfaatlari «qiyofalari» va maqsadlari o‘z ifodasini topadi.

Shuning uchun ham ma‘naviyatni (shu jumladan, madaniyatni) o‘rganganda albatta, unga shaklan va mazmunan uyg‘un holatda qarash zarur bo‘ladi.

Ma‘naviyatni shaxs, millat, davlat va jamiyatning qudratli kuchi sifatida hamda shaklan va mazmunan uyg‘un holatda o‘rganish faqat mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan yeyingina boshlandi. Uni bu shaklda o‘rganish esa hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, mustaqillik sharoitidagi milliy tafakkur taraqqiyotimizda **yangi yo‘nalishdir**.

Haqiqatan ham ma‘naviy qashshoqlik bilan hech qachon millat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga erisha olmaydi. Ma‘naviyat har qanday taraqqiyot uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Chunki ma‘naviyat qancha yuksak bo‘lsa, qilinadigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yuksak bo‘ladi. Ma‘naviyat orqali inson va millat qilinayotgan ishlarning mazmunini va mohiyatini aniq tushunib yetadi, o‘z mehnatini quvonch hamda taraqqiyot omiliga aylantirishga erishadi.

Zero, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi A.N.Yakovlev takidlagandek, «Islom Karimov o‘tmishni kelajak bilan bog‘lash asosida mamlakatni modernizatsiya qilish — zamonaviy tarzda taraqqiy ettirish yo‘lini tanladi. Bu maqsadga xizmat qiladigan tizim va tarmoqlar faoliyatining samaradorligi avval muayyan davlatning mavjud shart-sharoiti, muayyan xalqning vorislik xususiyatlariga tayanadigan, ayni paytda kelajakka yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy an‘analarga bog‘liq ekanini u chuqur angladi»¹⁴. Xuddi ana shuning uchun ham O‘zbekistonning milliy-ma‘naviy tiklanish borasidagi yutuqlari xalqaro ahamiyatni ham kasb etmoqda.

3. O‘zbek xalqi 130yilcha mustamlakachilik istibdodi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning milliy-ma‘naviy merosi paymol etildi, tarixi soxtalashtirildi, ilmiy, madaniy binobarin ma‘naviy merosga niglistik qarash hukm surib cheklab ko‘yildi. Xalqimizning ongi sal bo‘lmasa ijtimoiy adolatsizlik, ma‘naviyatsizlik, nopoklik va yovuzlikka qarshilik ko‘rsat olmay yuvvosh yashayverishga ko‘nikib qolayozgan edi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o‘z tarixiy-ma‘naviy merosidan to‘laqonli, erkin-emin foydalanish imkoniyatidan mahrum bo‘lib keldi.

Mustaqillikka erishishimizdan avval: kim Imom al-Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Imom at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Matrudiy, al-Marg‘iloniy, G‘azzoliy, Naqshband kabi allomalarimizning nomini tilga olar, ular qoldirgan boy ma‘naviy merosni o‘rganish imkoniyatiga ega edi?;

Kim Qur‘oni Karimni, Hadislarni, dinu-islomni erkii o‘qiy va o‘rgana olardi?;

Kim Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo singari ma‘naviy madaniyatimizning yulduzlari bo‘lgan buyuk zotlar nomini erkin-emin tilga olar edi?;

Kim Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Fitrat, Behbudiy kabi ma‘rifatparvar, millatparvar bo‘lgan ulug‘ zotlarni eslay olardi?

Bu kabi savollarning son-sanog‘i yo‘q. Mana shularning o‘zi ham milliy ma‘naviyatimizning naqadar toptalganligini ta‘kidloichi misollardir.

Bunday imkoniyatlarni qo‘lga kiritishimizda xalqimizning sevimli farzandi, ulkan davlat va siyosat arbobi, yetuk olim, vatanparvar va millatparvar inson Islom Karimovning yetakchilik va rahbarlik roli asosiy rol o‘ynadi.

¹⁴ Qaytadan kashf etilgan mamlakt. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2001. 9fevral.

Prezidentimizning milliy-ma'naviy tiklanishimiz borasida qilgan xizmatlari haqida fikr yuritganda, ularning konseptual g'oyalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ana shularni amalga oshirish borasida qilayotgan katta xizmatlari haqida alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Jumladan, 1994 yildayoq respublikamizda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tuzish to'g'risida farmon chiqarganlari, ularning faoliyatini takomillashtirish haqida g'amxo'rlik ko'rsatayotganliklarini aytish joiz. Mustaqillik yillarida ma'naviy merosimiz rahnamolari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmokda, asarlari chop etildi va etilmokda. Chunonchi, Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi keng nishonlandi. 1998 yilda Imom al-Buxoriy hazratlarining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi nishonlanishida bosh-qosh bo'lganliklarini ta'kidlash lozim.

Mustaqillik yillari Qur'oni Karim o'zbek tiliga tarjima qilinib, ko'p nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to'rt jildlik hadislarini choi etish tugallandi. Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» to'plami chop etildi. Ko'plab Qur'oni Karim sharhlariga oid kitoblar ham chop etilganligini va ulardan xalqimiz bahramand bo'layotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Mustaqillik yillari Iydi Ramazon va Qurbon hayit kunlari Diniy qadriyatlarimizning bayrami sifatida nishonlanmoqda. Navro'z umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotidan mustahkam o'rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari ko'plab masjid va madrasalar ta'mirlandi.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzolarining nomi qayta tiklandi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug'bekning esa 600 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan yurtimizda beqiyos ma'naviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonlandi.

Qatag'on yillarida millatimiz mustaqilligini ta'minlash yo'lida qurbon bo'lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Shahidlar hiyoboni barpo ztildi.

Uzoq tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra ma'naviyatimizdan guvohlik beruvchi Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik to'ylari 1997 yidda katta tantanalar bilan nishonlandi.

2000 yili esa ilohiyot ilmining darg'asi Abu Mansur al-Moturidiyning muborak yubileyi muvaffaqiyatli ravishda nishonlandi. 2001 yilda esa yana bir ulkan merosimiz hisoblangai «Avesto»ning 2700 yilligi va 2002 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

O'zbek tilining davlat tili darajasiga aylanishi borasida bir qator ijodiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat idoralarida ish yuritish, shaharlarda ko'chalar va joylarni nomlashda tarixiy haqiqat tiklanmoqda. Ma'naviy merosimiz sanalgan ko'plab asarlar o'zbek tiliga tarjima etilmokda. Xullas, mustaqillik yillari biz uchun o'zbek tilining xalq va davlat hayotidagi asosiy ahamiyati va o'rnini tiklash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu tariqa millatning qadr-qimmatini, mustaqil davlatimizning qadr-qimmatini mustahkamlandi, maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'zbek tilini rusiy zabon yoshlarning o'rganishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berilmokda.

Bugungi kunda mamlakatimizning eng iqtidorli 2000 dan ortiq yoshlari rivojlangan xorijiy mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida ta'lim olmoqdalar. «Mahalla», «Kamolot». «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni», «Ulug'bek», «Umid», «Ustoz» kabi jamg'armalar ham Prezidentimiz tashabbusi bilan vujudga keldi.

Shuning bilan bir qatorda milliy-ma'naviy tiklanish borasida ko'lami jihatidan juda katta vazifalar turibdi. Biz millatimiz tarixi va merosini chuqur o'rganishimiz lozim bo'ladi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»¹⁵.

¹⁵ Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.. 9-bet.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Milliy-ma'naviy tiklanish deganda nimani tushunasiz?
2. Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasini ishlab chiqqanligini nimalarda ko'rsatib bera olasiz?
3. Islom Karimov tomonidan "ma'naviyat" tushunchasiga berilgan ta'rifning mohiyati nimadan iborat?
4. Islom Karimov ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining qanday nazariy va amaliy ahamiyati bor?
5. Mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy tiklanishimizda Islom Karimovning xizmatlari nimalardan iborat?
6. Nima uchun Islom Karimov ma'naviyatni rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda?
7. Islom Karimov tomonidan O'zbekistonda XXI asrda ma'naviyatni rivojlantirishning qanday vazifalari belgilab berildi?
8. Milliy-ma'naviy tiklanish va ma'naviyatni rivojlantirishning mukammal g'oyalari Islom Karimovning qaysi asarlarida asoslab berilgan?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar :

1. Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasi bilan bevosita tanishib chiqish.
2. Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasidagi g'oyalarni yoritib beruvchi slayd prezentatsiya tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008.
2. Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1996.
3. Islom Karimov. Milliy istiqloq mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir; T., «O'zbekiston», 2000.
4. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.. T. 1998.
5. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.2002.
6. Qaytadan kashf etilgan mamlakat. "Xalq so'zi" gazetasi, 2001. 9fevral.
7. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari./O'quv qo'llanma. T., 2002.
8. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000.
9. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T., 2008.

MA'NAVIYATNING PREDMETI, TUSHUNCHALARI, ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Ma'naviyatning mohiyati, ta'rifi va predmeti.
2. Ma'naviyatning asosiy kategoriyalari, uning rivojlanish qonuniyatlari.
3. Ma'naviyatni rivojlantirish – davlat siyosatida ustuvor soha.

Tayanch soʻz va iboralar : ma'naviyat tushunchasi, madaniyat, yuksak ma'naviyat, madaniy meros, ma'rifat, ma'naviyatning predmeti, ma'naviyatning asosiy kategoriyalari, ma'naviyatning rivojlanish qonuniyatlari, yuksak ma'naviyat...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga ma'naviyat asoslarining fan sifatida mohiyatini, unga berilgan turli xil ta'riflarni va uning predmetining mazmunini ochib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda ma'naviyatning asosiy kategoriyalari va rivojlantiruvchi qonuniyatlari haqida tushuncha, bilimlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor soha sifatida barcha aholini ma'naviyat komillikka chorlashini tushuntirish.

1. Ma'naviyat sobiq sho'rolar tuzumi sharoitida mustaqil mavzu sifatida o'rganilmay kelingan edi. U madaniyat bilan bir xil ma'noni anglatish yo'nalishida, ayrim adabiyotlarda esa ularni o'zaro aralashtirib yuborilgan holatda qarab kelingan. Natijada barcha lug'atlarda ham «ma'naviyat» tushunchasiga aniq va mustaqil ta'rif uchramaydi. Buning asosiy sababi yuqorida ta'kidlaganimizdek, ma'naviyat inson ichki botiniy ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, totalitar tuzum insonning ichki botiniy ruhiyatini rivojlantirish, uning o'z-o'zini anglashi, erkin fikrlash qobiliyatini o'stirishdan manfaatdor bo'lmagan.

Mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi erkin fikrlaydigan, o'z-o'zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasini davlat siyosati ustuvor yo'nalish qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma'naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Xuddi ana shu vazifa «ma'naviyat»ni mustaqil mavzu sifatida o'rganishni ham kun tartibiga qo'ydi.

Shu ehtiyojdan kelib chiqib oxirgi «ma'naviyat»ning mohiyati, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag'ishlanib respublikamiz ziyolilari o'rtasida qizg'in munozaralar olib borilmokda. Bunga sabab ma'naviyatning ko'p qirrali, tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko'zga tashlanuvchi zohiriy va yashirin, ichki ruhiy-botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag'ishlab ko'plab maqola va mulohazalar e'lon qilinmokda, kitoblar chop etilmokda.

Aslida ma'naviyat — insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turgan eng baquvvat omil hisoblanadi. Inson — tabiatning, barcha mavjudotning gulto'ji deylganda uning ushbu hislati, yani yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzo'tlarda ko'rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish — ongsiz va ruhsiz maxluqotlarga xos. Ma'naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo'lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma'naviyat odamning ruhiy va aqliy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lganligi uchun ham uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

Ma'naviyat ko'proq inson qalbiga, botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo'q. Ma'naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati, yetmaydi. Shunday ekan, «ma'naviyat» tushunchasiga bir yo'la mukammal ta'rif berish murakkab hisoblanadi.

Shuning uchun «Ma'naviyat»ga ta'rif berishda Prezidentimiz Islom Karimovning nazariy qarashlariga, milliy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o'zimiz uchun dasturul amal qilib olishimiz maqsadga muvofiq. Yurtboshimiz «Turkisgon» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida, ma'naviyat ham borliq, tabiat, jamiyat kabi uzluksiz harakatdagi jarayon ekanligini, inson fikri, tafakkuri, his-tuyg'usi tinim bilmaganidek, ularning mahsuli bo'lmish ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'lishini uqdirib: «Ma'naviyat avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuch...¹⁶» deb ta'riflagan edilar. Bu ta'rifda inson faoliyatining barcha ma'naviy qirralari qamrab olingan bo'lib, biz bundan buyon ma'naviyat haqida so'z yuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz.

Keyingi paytlarda ma'naviyatga oid e'lon qilinayotgan maqolalarda, o'tkazilayotgan anjumanlarda «Ma'naviyat» tushunchasiga ta'rif berish, uning jamiyat, inson va millat taraqqiyotidagi o'rni katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, «Vatan tuyg'usi» kitobining mualliflari «Ma'naviyat — jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruchi tushuncha»¹⁷, - deb ta'riflaganlar.

Bundan tashqari bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma'ruzalarida «ma'naviyat — insondagi axloq, odob, bilim, ilm, imon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta'sir qiluvchi tizim yoki ma'naviyat — insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlari yig'indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarining aks etish darajasidir», deb ta'rif berib kelmoqdalar. A. Erkaevning fikricha, «Ma'naviyat — insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birligi, mushtaraklik kasb etgan majmuidir»¹⁸.

M.Imomnazarov dastlab «Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur»¹⁹, - deb yozgan bo'lsa, keyinchalik «Ma'naviyat — inson qalbida, ko'ngil ko'zgasida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta'rif darhaqiqat, so'fiyona ramziy ta'rifdir, zotan boshqacha ta'rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo'yadi»²⁰, - deb yozadi.

T.Mahmudov «ma'naviyat — insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy va ruhiy balog'ati va dunyo qarashini ifodalovchi tushunchadir»²¹.

Bugunga qadar ma'naviyat tushunchasiga mukammal ta'rif shakllanmaganligi sabab uning keng qamrovli, murakkab va ayni vaqtda «sodda» tushuncha ekanligida. Ma'naviyat ko'proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks etgirisidir. Inson ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to'la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari inson ichki dunyosi ham tubsiz, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi. Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsangiz, shunchalik turli-tumanlik bilan toblanib, o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi. Mana shuning uchun ham ma'naviyat tushunchasiga mukammal har taraflama to'liq ta'rif berish mushkulroq. Ammo, respublikamiz olimlari tomonidan «ma'naviyat» tushunchasiga berayotgan ta'riflarni va uning inson, millat, xalq, jamiyat hayotida tutgan o'rni to'g'risida ilgari surayotgan g'oyalarini umumlashtirgan holat, ma'lum bir umumlashgan xulosa

¹⁶ Turkiston gazetasi, 1999 yil, fevral.

¹⁷ Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. T., «O'zbekiston», 1996, 111-bet.

¹⁸ Erkaev A. Manaviyat — millat nishoni. T., «Ma'naviyat», 1997, 27-bet.

¹⁹ Imomnazarov M. Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T., «Sharq», 1996, 6-bet.

²⁰ O'sha muallif. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., «Sharq», 1999, 14-bet.

²¹ Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T., «Sharq», 2001, 9-bet.

chiqarish mumkin bo'ladi.

Shunday kilib, ma'naviyat — insonning ruhiyatini, uning o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'va bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta'rif berish o'rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta'rif eng oxirgi qiyomiga yetgan, mukammal deb, aytishimiz mumkin emas.

I.A Karimov aytganidek, ma'naviyat—taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak²².

Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlarini ta'siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Barcha fanlarda bo'lganidek, ma'naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. **Uning predmeti inson va jamiyat ma'naviy xayoti, maqsadi esa komil inson — imon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish va jamiyat ma'naviy salohiyatini rivojlantirishdir.** Ana shu keng qamrovli vazifalardan ko'rinib turibdiki, inson kamoloti va jamiyatning yuksak darajaga ko'tarilishi ma'naviyatni rivojlantirishga bog'liq bo'ladi.

Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatgi-harakatlarida, o'z oilasi, millati va Vatanga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota-onadan tug'iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi, fazilatlarini, ya'ni ma'naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi. Insonning ma'naviy olami asosan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa ham, u o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, imon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik, e'tiqodiy vatanparvarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, burch va masuliyatni his qilishi qanchalik kuchli, yuqori bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'lishiga olib keladi.

Xuddi shuning uchun ham Islom Karimov Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq, Birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat — ma'rifatli insonning ikki qanotidir»²³, - deb ko'rsatgan edi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy kamolatida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyat ham rivojlanishi mumkin emas.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo'lgan muammolarini ma'naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin.

Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qaerda, qaysi mamlakatda ma'naviyat yuksak darajada bo'lsa, o'sha joyda, o'sha mamlakatda johillik, hasadgo'ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, man-manlik, tekinxo'rlik, g'iybat qilishlik, ko'rolmaslik, yovuzlik, qo'paruvchilik, o'z Vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma'naviyatsizlik ko'rinishlariga o'rin qolmaydi.

Ma'naviyat har doim ma'rifat bilan uyg'un holatda rivojlanib boradi. Ma'rifat — bilish, bilim, tanish va ma'lumot, - degan ma'noni anglatadi.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir yangi tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning, millatning eng yetuk, ongli, oq-qorani

²² Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston : Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura T., "O'zbekiston", 1993, 74-bet.

²³Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1995, 46-bet.

tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanganlar. Chunki, ma'rifat — ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Mamlakat, millatning ozodligi — uning ma'rifiy uyg'oqligidir. Odamzod naslining ulug'ligi esa bilimdan.

Bilingki, bilim va ma'naviyat o'ylab ko'rilsa, misoli bir jilov. U insonlarni barcha yomon, yaramas ishlardan, ya'niki ma'naviyatsizliklardan tiyib turadi. Shu tufayli ota-bobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz doimo ma'rifat va ma'naviyatga intilib yashaganlar. Ular ma'naviyat va ma'rifat chiroqlarini mash'ala singari yoqqanlar. Yuksak ma'naviyat va ma'rifat tufayli Turon zamin yer yuzida shuhrat qozongan.

Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifatga katta e'tibor berayotganliklarining asosiy sababi ham ana shu ma'naviy zaminlarni qayta tiklash orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini ko'rsatishidir. Oliy Majlisning XIV sessiyasida qilgan ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, 2005 yilga qadar respublikamizda 1611 ta kasb-hunar kolleji va 181 akademik litseydan iborat bo'lgan o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlarining zamonaviy tarmoqlarini bunyod etish rejalashtirilgan²⁴.

Ma'rifat va ma'naviyatlik, uning inson, jamiyat hayotidagi ahamiyati ustida fikr yuritganda, ma'rifat va ma'naviyat, ma'naviyatlilikni nisbatiga ham e'tibor berilishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi.

Ma'naviyatli odamlarning hammasi ham doimo ma'rifatli, shu bilan birga ma'rifatli, ilmi kishilarning ham hammasi yuksak ma'naviyatli bo'lavermaganlar. Shunday kishilarga qarata haqli ravishda olim bo'libti-yu, ammo odam bo'lmapti iborasi ishlatiladi. Boigqacha ashtanda insonlar borki, olim emas. Olim bo'lmasa bo'lmas, ammo ma'naviyati yuksak Olimlar borki, inson zotiga loyiq emas. Bunisi og'ir. Ularddn elga, yurtga foyda yo'q. Shuning uchun xalqimij «Olim bo'lma — odam bo'l», - iborasini ishlatib keltan. Har ikkala-sining uyg'unligi barkamatlikni ta'minlaydi. Ma'naviyat va ma'rifat bir-birini inkor etadi degani emas. Ma'naviyat va ma'rifat bir-biriga chambarchas bog'likdir. Ularbir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi.

Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan buyuk zotlar, komil insonlar o'zlarida ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo'lganlar. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo'li, komil insonni, sog'lom avlodni voyaga yetkazish yo'li mana shu yo'l, bundan boshqa yo'l yo'q.

Ma'naviyat va ma'rifat xalqimizning, millatimizning kelajagi uchun suvday va havoday zarur.

Ma'naviy va ma'rifiy tarbiyani birga olib borish taraqqiyotitaqozosi. Ularni boshqa-boshqa olib borib bo'lmaydi. Ularning chinakam uyg'unligini ta'minlash orqaligina komil insonni tarbiyalab yetkazish va mamlakatning yuksak taraqqiyotini ta'minlash mumkin bo'ladi.

2. «Ma'naviyat asoslari» fan sifatida shakllanayotgan bir sharoitda uning kategoriyalarini (tushunchalarini) aniqlash, bir tizimga keltirish olimlarimiz oldida turgan asosiy vazifalar hisoblanadi. Chunki, uning asosiy kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari aniqlanmagan hamda ma'lum bir tartibga solinmas ekan u fan maqomiga ega bo'la olmaydi. Albatta, ma'naviyat barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida eng yosh bo'lganligi sababli uning tushunchalarini bir tizimga keltirish murakkab hisoblanadi. Chunki, uning ayrim tushunchalari falsafa, estetika, etika, dinshunoslik va boshqa fanlar bilan ham uyg'unlashib ketgan. To'g'ri, bu tabiiy hol. Zero, ma'naviyatni ularning uyg'unligisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi.

Ana shu murakkablikka qaramasdan «Ma'naviyat»ning kategoriyalarini aniqlashga, uni yuqoridagi fanlardan «mustaqilligini» ta'minlashga ehtiyoj nihoyatda katta. Shu ehtiyojni hisobga olib **«ma'naviyat»ning tushunchalari** haqida dastlabki g'oyalarni ilgari surish mumkin bo'ladi.

Aslida ma'naviyat ham xuddi boshqa fanlar kabi o'zining mustaqil kategoriyalariga egadir. Ularni shartli ravishda inson, millat va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi tushunchalarni

²⁴ Qarang. Karimov I A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston». 1999. 38-bet

kiritish mumkin: shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, hayrihohlik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to'g'rilik va boshqalar. **Shaxsning millat vakili sifatidagi maqomida**: milliy o'z o'zini anglash, milliy g'urur, millatparparlik, vatanparvarlik millat taqdiriga nisbatan mas'uliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, davlat tizimiga xurmat, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik va boshqalar bo'lsa **shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida**: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishda mas'ullik, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolarga befarq bo'lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligini anglash, insonning tabiatning bir bo'laki ekanligi, uni asrashda mas'ullik va boshqa bir qator tushunchalarni kiritish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi keltirilgan ma'naviyatning barcha tushunchalari shaxsning ichki ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, ular shaxsning ma'naviy darajasi millat va jamiyat vakili sifatidagi maqomlarini qamrab olgan.

Real hayotda, ma'naviyat har bir insonning millat, jamiyat, davlat hayoti, insonlararo bo'ladigan va ijtimoiy hayotga nisbatan bo'ladigan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan tashqari, ma'naviyatning boshqa bir qator tushunchalari ham bor. Bu yerda gap ularning hammasi ustida to'xtash haqida emas, balki ma'naviyatning ko'p qirrali, keng qamrovli ekanligi, u inson ongi, ruhiyati, ichki dunyosining salohiyati, xatti-harakatlari kabi bir qator masalalarni o'z ichiga olishini tushunib yetish haqida bormoqda. Ma'naviyatni chuqur tahlil qilishda ana shu ko'rsatilgan tushunchalarni uyg'un holda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'naviyat rivojlanishi ham ma'lum qonuniyatlarga tayanadi. Garchand bunday qonuniyatlar bir necha yo'nalish va jarayonlarni o'z ichiga olsa ham, ularni ikki yirik guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar kiradi. Ya'ni shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati mustahkam, zaminlari chuqur bo'lishi ma'naviyat rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Agar ichki salohiyat nochor bo'lsa, shaxs barkamollik darajasiga millatning o'z bir butunligini saqlashga va ayni paytda jamiyatning yuksak taraqqiyot pog'onasiga erishishiga salbiy ta'sir etadi. Yana ham aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, ichki salohiyat asosiy tayanch va ob'ektiv zaruriyatdir. Ichki salohiyatning darajalari esa ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan bog'liq bo'ladi. Uning rivojlanishi ularning uyg'un holatda bo'lishini taqozo etadi.

Ichki salohiyatning mustahkam bo'lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichi yoki shaxs shakllanish jarayoni qanday murakkab bo'lmasin, baribir zaruriy sharoitlar yuzaga kelgan paytda shaxs ma'naviy kamolotini va millatning yuksalishini ga'minlashga xizmat qilaveradi.

Ikkinchi guruh qonuniyatlariga shaxslar va millatlarning o'zaro munosabatlari jarayonida sodir bo'ladigan «o'zaro ta'sir» va «o'zaro boyitish» orqali bo'ladigan jarayonlar kiradi. Ya'ni shaxs ma'naviy kamoloti onadan tug'ilishi bilan yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek, millat ham tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichlarida boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlik natijasida yuzaga keladi. Hech qachon shaxs, inson o'zgalarsiz yashay olmaganidek, millat ham boshqa millatlar, xalqlar bilan aloqa qilmasdan taraqqiy qila olmaydi, boz ustiga bugungi kunda dunyoda «sof millat borligiga hech kim guvohpik yoki kafolat bera olmaydi. Jamiyat ham xuddi ana shu qonuniyat asosida rivojlanadi.

Ma'naviyat ana shu o'zaro munosabatlar va «ta'sirlar» asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabul» qiladi. Shunday qilib, ma'naviyat rivojlanishidagi «ta'sir» va «aks ta'sir» qonuniyati mavjud bo'lib, u ma'naviyatning rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu qonuniyatlarning amal qilish jarayoni ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Shaxs kamolati va ma'naviyatning erkin rivojlanishi, kamol topishi uchun sharoit mavjud bo'lsa qonuniyatlarning amal qilishi umum ma'naviy taraqqiga xizmat qilishga o'zining ijobiy

ta'sirini o'tkazadi.

Aksincha, shaxsni itoatkor bo'lishga qaratilgan va ma'naviyatni zo'ravonlik siyosatini qo'llab-quvvatlash vositasiga aylantirgan harakati ustuvor bo'lgan sharoitda «ta'sir» va «aksta'sir» umum ma'naviy tushkunlikka olib kelishi mumkin. Bu jarayonda davlatning shaxs va ma'naviyatga bo'lgan munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan shaxs kamoloti va ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan siyosati bu-bugungi kunda o'zining dastlabki natijalarini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda barkamol inson shakllanmoqda va umumba'naviy salohiyatimiz yuksalmoqsa.

3. Yuqorida ma'naviyatning jamiyat, shaxs va millat hayotidagi muhim o'rni haqida fikr yuritildi. Ammo, uni real hayotga qanday tadbir qilish yo'q qilmaslik davlat olib borayotgan siyosat bilan bog'liq. To'g'ri, shaxs va millat shakllanishi yoki jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ma'naviyatning roli va ahamiyatiga e'tibor berib kelingan.

Bu borada O'zbekistonning tarixan qisqa vaqt ichida Prezide Islom Karimovning bevosita tashabbusi asosida ma'lum tajribalarni to'plashga erishganligini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ma'naviyatni ko'tarish davlat siyosatida ustuvor sohaga ko'tarildi va u o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi

Aslini olganda, hozirgi kunda ma'naviyatning ustuvor sohaga ko'tarilishining bir qator sabablari bor. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, unda yashaydigan odamlarning tafakkuri, ongi qay darajada o'sishi bilan bog'liqdir. Ularning ongi va tafakkurini amalga oshirmoqchi bo'lgan vazifalar mohiyati va manfaat kelib chiqqan holda o'zgartirmasdan turib ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ana shu ma'noda ham ma'naviyat jamiyat hayotini o'zgartirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va har qanday davlat o'z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ustuvorlik bilan qaraydi.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Sovet mafkurasidan voz kechish bayrog'i ostida umuman har qanday mafkuraga qarshi kurash boshlandi. Bu o'z navbatida odamlar-ning ma'naviyatiga, shakllangan qadriyatlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'gkaza boshladi. Ayniqsa, matbuotlarda ba'zi olimlar, birinchi navbatda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish zarur, ma'naviyat esa ana shu iqtisodiy tafakkur zaminida yuzaga keladi degan fikrlarni ilgari sura boshladilar. Oqibatda odamlar ruhiyatida yana bir tomonlama ketish turmush tarzida yetakchi o'rinni egallay boshladi. Bu o'z navbatida, milliy manfaatlar yoki vatanparvarlik haqida qanchalik gapirmaylik, u o'zining biz kutayotgan natijalarini bermasdan, balki odamlarda shaxsiy manfaatlariga ustuvorlik berishga xizmat qila boshladi. Bunday salbiy jarayonning yuzaga kelishi yangi jamiyat qurish uchun xatarli.

Uchinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar oldida odamlarning aksariyat qismi dovdirab qoddi, ko'pchilik hollarda yoshlarning ta'lim olish, kasb o'rganish, san'at va badiiy asarlarga qiziqishdan ko'ra bo-zorga chiqish, pul topishga intilish xavfini yuzaga keltirdi. To'g'ri, pul topish, o'z hayotining iqtisodiy imkoniyatini mustahkamlash har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj va zarurat hisoblanadi. Ammo, bu ehtiyoj shaxs va millat kamoloti manfaatlariga zid bo'lmasligi, ularning ma'naviy qashshoqlashib ketishiga xizmat qilmasligi lozim. Ana shu yuzaga kelayotgan xavfli jarayonning oldini olish zarur.

To'rtinchidan, sobiq ittifoq sharoitida fan, texnika, maorif, oliy ta'lim, bir qator sanoat korxonalarini vujudga keltiri va rivojlantirishda ko'pgina yutuqlar qo'lga kiritilgandi. Ammo, ular markaz va qolaversa «katta og'a» manfaatlariga xizmat qilgan. Ana shu potensial sobiq ittifoqdosh Respublikamizga turli bahonalar bilan rus millati vakillarini yubodi, ularni mahalliy xalqni boshqarish, ularga rus turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, xarakterini singdirish hisobiga mamlakatda rus millati ustuvorligiga tayanuvchi yagona til, ma'naviyat va turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilib kelgan edi. Bunday ayyorona va zo'ravonlik siyosati oqibatida millatlarning o'zligini anglashga bo'lgan intilishiga katta zarba berildi. Bu sobiq ittifoqda umummilliy inqirozni yuzaga keltirdi.

Beshinchidan, ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor bo'lishiga yana bir sabab, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qati nazar, uning real sub'ekt, ma'lum moddiy va ma'naviy

boyliklarni yaratuvchisi, iste'molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o'zining mustaqil o'miga ega bo'lishi kabi omillarni, ya'ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Oltinchidan, o'zbeklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqdir. Uning ma'naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan yutuqlari jahon xalqlariga asrlar osha xizmat qilib kelmoqda. Ammo, sho'rolar tuzumi davrida ajdodlari tomonidan yaratilgan ana shu yutuqlarni o'zbek xalqining ongi va qalbidan «chiqarish» borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan edi. Mustaqil-lik sharoitida esa uni qayta tiklash, jahon sivilizatsiyasidagi munosib va adolatli o'rni tiklash zarur edi. Bunga esa faqat ma'naviyatni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Yettinchidan, ma'naviyat millatni va butun mamlakat aholisini ma'lum maqsadlar sari davlat atrofiga uyushtiruvchi, ularni faollashtiruvchi, yorqin kelajakka ishontiruvchi, inson zo-tini ulug'lovchi, uning qadrini anglatuvchi ulkan «mexanizm» hamdir. Xuddi ana shu muhim «mexanizm»dan mustaqillikni mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish, millatimizning qad-dini ko'garishda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj davlatimiz, eng avvalo Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o'z vaqtida anglab olindi.

Ana shu sabablar va ehtiyojlar mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyin ma'naviyatni rivojlantirish va milliy merosni qayta tiklashni davlatimiz hayotida ustuvor siyosat darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Shu sababli Respublika Prezidenti 1994 yil 23 aprelda «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tashkil qilish to'g'risida»; 1996 yil 9 sentyabrda «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»; 1999 yil 3 sentyabrda «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-qo'vatlash to'g'risida»gi farmonlarni chikardi. 1996 yil 9 sentyabrdagi farmonda, «...ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo'nalishi, deb hisoblansin»²⁵, deb belgilandi.

Ma'naviyatni rivojlantirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa asosiy vazifa darajasiga ko'tarilmokda. Bu faqat mamlakatimizning ichki hayoti bilangina bog'liq bo'libgina qolmasdan, balki uning barqaror rivojlanishiga tahdid solishga o'rinayotgan tashqi turli oqimlarning mavjudligi bilan ham bog'liqdir. Ularning ayniqsa hayot tajribasiga zga bo'lmagan yoshlarimizning ongini zaharlash borasida olib borayotgan harakatlariga qarshi tura oladigan, erkin fikrlaydigan, fidoiy vatanparvarlarni tarbiyalash ma'naviyatni yuksak darajada rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ma'naviyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering?
2. Ma'naviyatning shaxs, millat, jamiyat hayotidagi o'rni nimada?
3. Ma'naviyatning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
4. Ma'naviyat taraqqiyotining qanday asosiy qonunlarini bilasiz?
5. Ma'naviyatni rivojlantirish hozirgi davrda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilish sabablari nimada deb bilasiz?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. A.Erkaevning «Manaviyat — millat nishoni» nomli kitobini mutolaa qilish.
2. «Ma'naviyatni rivojlantirish hozirgi davrda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi» mavzusida referat tayyorlash.
3. Mavzu asosida krossvord tuzish.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston». 1999.
2. Karimov I.A. O'zbekiston : Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T., «O'zbekiston», 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.,

²⁵ «Xalq so'zi», 1996 yil, 10 sentyabr.

«O‘zbekiston», 1995.

4. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. T., «O‘zbekiston», 1996.
5. Erkaev A. Manaviyat — millat nishoni. T, «Ma’naviyat», 1997.
6. Imomnazarov M. Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. T, «Sharq», 1996.
7. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T, «Sharq», 1999.
8. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. T, «Sharq», 2001.
9. Turkiston gazetasi, 1999 yil, fevral. Otamuratov S., Husanov S. Ma’naviyat asoslari./O‘quv qo‘llanma. T., 2002.
10. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O‘zbekiston”, 2000.
11. Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. T., 2008.

MA'NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI, ULARNING O'ZARO MUNOSABATLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Ma'naviyat va madaniyat, ularning o'zaro munosabati.
2. Ma'naviy meros – ma'naviyat rivojlanishining asosi.
3. Ma'naviyat va mafkura, ularning jamiyat, inson hayotida tutgan o'rni va roli.

Tayanch so'z va iboralar: ma'naviy meros, madaniyat, mafkura, qadriyat, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, meros, madaniy meros, ma'naviy meros, sivilizatsiya

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga ma'naviyatning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro munosabatlari va rivojlanish xususiyatlarining mazmunini ochib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda ma'naviyat rivojlanishining asoslaridan bo'lgan ma'naviy meros haqida tushuncha, bilimlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga jamiyat, inson hayotida ma'naviyat va mafkuraning muhim o'rni mavjudligini tushuntirish.

1. Aslini olganda, ma'naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ammo, ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. Shuning bilan birga ular bir-birini to'ldirib turadilar.

Madaniy va ma'naviy meros haqida ham shunday deyish mumkin. Shu sababdan avvalo madaniyat va uning turlarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki, madaniyatni, xususan ma'naviy madaniyatni bilmasdan, o'rganmasdan turib, ma'naviy meros to'g'risida gapirish ancha mushkul, chunki ma'naviy meros ma'naviy madaniyat doirasiga kiradi.

Shunday ekan madaniyat nima? Madaniyat tushunchasini izohlashga bag'ishlangan ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta'riflar soni 260 tadan oshib ketgan. Mualliflar bu tushunchaga har biri o'z nuqtai-nazaridan yondashadilar. Bunga sabab, madaniyatning ko'p qirrali, murakkab, ma'naviy-ijtimoiy hodisa ekanligi, uning inson va jamiyat hayotining barcha qirralarni qamrab olganligidir. Madaniyatga berilgan ta'riflarda mualliflarning fikrlarini umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Shu jumladan, ularni umumlashtiradigan bo'lsak, **madaniyat tushunchasi keng ma'noda insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan va yaratayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarining yig'indisini ifodalaydi.** Ko'rinadiki, madaniyat insonning moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va o'zlashtirishdagi faoliyatini ifodalaydi. U insoi aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir. Yuqorida aytilganidek, madaniyat juda murakkab ko'p qirrali ma'naviy-ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy hayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarni, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o'zida qamrab oladi. Sirasini aytanda, xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va madaniy-ma'naviy boyliklar madaniyatga kiradi. **Madaniyat deyilganda,** mehnat qurollarini yaratish va ulardan foydalanish fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, kishilarning ishlab chikarish va ijtimoiy ko'nikmalari, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo'lga qo'yish aholi o'rtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma'lumot, umumiy, umumiy majburiy va oliy ta'limni amalga oshirish, adabiyot va san'at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy g'oyalar va shu kabilar nazarda tutiladi. Ko'rinadiki, madaniyat odamzod aql-idrokining eng yuksak cho'qqilarigacha bo'lgan narsalarning hammasini qamrab oladi. U inson faoliyatining

faqat moddiy natijalarinigina emas shu bilan birga kishilarning mehnat jarayonida voqe' bo'ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatlari, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o'zaro munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Jamiyat moddiy ishlab chiqarishining ikki amaliy turi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat ham yirik ikki turga moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat deganda mehnat qurollarini, mehnat ko'nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy boyliklarni anglaymiz. Moddiy madaniyatga moddiy boyliklarning butun majmui, ularni ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnika, texnologiya, texnik inshootlar, ijtimoiy mehnatni uyushtirish shakli, qurilish va dehqonchilikni yo'lga qo'yish va boshqalar kiradi. Shularga qarab, moddiy madaniyatni bir qator turlarga bo'lamiz. Chunonchi, ishlab chiqarish va texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, mehnatni tashkil etish madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandachilik madaniyati va boshqalar.

Madaniyatning ikkinchi turi — bu ma'naviy madaniyatdir. Ma'naviy madaniyatga insonning aqli va ma'nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma'naviy madaniyat fan, falsafa, san'at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat, maorif, ma'rifat va hokazolar yig'indisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma'naviyati, ruhiyati olamidir.

Ma'naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Ma'naviy madaniyatni yaratish, o'zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarnipg ma'naviy qiyofasi shakllanadi, axloq-odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.

Umuman kishilik jamiyatini madaniyatsiz, xususan ma'naviy madaniyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat, inson bor ekan u ma'lum madaniyatga ega, busiz bo'lishi mumkin emas.

Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o'zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma'naviy madaniyatdan batamom ajratib qarash mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mehnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aql-idrokisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ham ma'naviyat yotadi. Har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma'naviy madaniyat voqelikni badiiy aks ettirish va o'zlashtirish vositasidir.

Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari, oila, maktab, oliygo'h, korxonalar, tashkilotlar, muassasalardagi o'zaro munosabatlari ham kiradi.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlaridan biri uning to'xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiyat rivojlanib borishi bilan madaniyat ham sifat jihatidan o'zgaradi. Bu degan so'z, jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o'zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o'z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo'ladi.

Jamiyat tarayqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Har bir avlod o'zi uchun maxsus yangi moddiy baza tashkil etmasligini, ilm-fan va madaniyatni yangidan yaratmasligini, balki o'zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatdan meros sifatida foydalaniladi.

Madaniyat — umuminsoniy hodisa. U barchaga baravardir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me'morchilik durdonalari, fan-texnika yutuqlari, transport va aloqa vositalari va boshqalar barchaga tegishlidir. Ammo, bu madaniyatning milliy shakli bo'lmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki u qanchalik umuminsoniy bo'lmasin, baribir uning zaminlari milliylikka borib taqaladi. Umuminsoniyat mulkiga aylangan har qanday madaniyat ham u yoki bu millat tomonidan yaratiladi, u madaniyatga o'ziga xos bo'lgan tomonlarini singdiradi. Masalan,

umuminsoniyat mulkiga aylangan Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi hunarmandchilik va arxitektura durdonalari, eng avvalo o'zbeklarniki, ular o'zbeklarning avlod-ajdodlari o'zlariga xos milliy jilo berganlar. O'zbekona bunday san'at asarlari dunyoning boshqa xalqlarida uchramaydi. Xuddi ana shu xususiyati bilan ular milliy hisoblanadi. Shuning bilan ana shu san'at asarlari o'zining takrorlanmas qiymati, yuksakligi va butun insoniyatning ma'naviy bahra olishiga xizmat qilish darajasi bilan umuminsoniyat mulkiga ailangandir. Demakki, madaniyat ham ma'naviyat kabi milliy va umuminsoniy shaklida namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Milliy ma'naviyat, madaniyat tarixiy hodisa sifatida bir kun, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy va madaniyat tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ularning necha ming yillik ma'naviy kamol pilla poyalarini bosib o'tganligini aniqlash bugun uchun anchay murakkab muammo.

Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim saltanatlar ahli qabi qabila bo'lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilm-fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o'qitilgani ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag'ribu mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g'ururlansak arziydi.

O'tmishda xalqimiz ma'naviy madaniyatning uzviy qismi bo'lgai dini islomni rivojlantirishga ham o'zining munosib hissasini qo'shgan. Dunyoda eng mashhur hadisshunoslar oltita bo'lsa, shulardan to'rttasi bizning diyorumizdan chiqqan. 1998 yilda esa Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi bizning yurtida va butun islom dunyosida keng nishonlangan bo'lsa, 2000 yilda imom al-Moturudiy tavalludining 1130 yilligi, Burxonildin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi nishonlandi.

Ular qoldirib ketgan meros bugungi kunda diniy qadriyat larimizni tiklashimizda asos bo'lmoqda, ma'naviyatimnzni, qalbimiz va ruhiyatimizni boyitmoqda. Ularning asarlari o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy boyligi bo'lishi bilan birga butun dunyo xalqlarining mulkiga aylangandir.

2. Madaniy merosni tushunmasdan ma'naviy merosni ham tushunish qiyin. Bu tushunchalarda umumiylik bo'lsa ham, ular birday emas, o'zaro qaysi bir jihatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi. Bundan oldingi masalada ko'rganimizdek har bir jamiyat va davr o'z madaniyat turiga ega bo'ladi. Jamiyat, davr o'zgarishi bilan uning madaniyat turi va ma'naviyatida o'zgarish, yangilanish bo'ladi, ammo, madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgari madaniyat; sivilizatsiya yo'q bo'lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi. **Meros — insoniyatning xar bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuidir.** Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo, undan biroz farq qiladi. O'tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo'lavermaydi. **Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma'naviy vuksalishiga xizmat qilaligan, unga ijobiy ta'sir qiladigan qadriyat axamiyatiga ega bo'lgan tomonlar hisobga olinadi.**

O'tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo'lavermaydi, chunki o'tmishdan qolgan narsalarning hammasi ham qadriyat ahamiyatiga ega bo'lavermasligi hammamizga ma'lum. Masalan, sho'rolar davrida yaratilib, uning siyosati, mafkurasini targ'ib etgan, endilikda o'z umrini yashab o'tgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati, ahamiyati yo'q. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo'yish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **madaniy meros deb,** o'tmish avlodlardan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o'tgan, saralangan insoniyatning hozirgi va kelgusi tarakkiyotiga xizmat kiladigan moddiy va ma'naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin.

Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni meros sifatida qabul qilib oladi. Tarixiy vorislik — jamiyat va uning madaniyati ravnaqi shartidir

Madaniy va ma'naviy meros o'zaro bir-biridan farq qilsada ularning o'rtasiga o'tib bo'lmas «Xitoy» devorini qo'yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zamirida ham ma'naviyat ya'ni insonning ma'naviy-ruhiy bilimlari, qobiliyati, iste'dod, aqli, empirik va nazariy bilim faoliyatlari yotadi. Madaniy ma'naviy meros o'rtasida umumiylik ham, farqli tomonlar ham

mavjud. Ayni paytda ular o'rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik, bog'liklik, o'zaro munosabat, ta'sir bor. Shuningdek, madaniy meros o'z ko'lami jihatidan ma'naviy meros tushunchasidan kengroq.

Madaniy merosda ko'proq umumiylik ustunlik qilsa, ma'naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olsa, ma'naviy meros ma'naviy madaniyat yutuqlarini o'z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan kismiga milliy kadriyat deyiladi.

Ma'naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o'tadi va jamiyat, uning ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy meros deb uzoq va yaqin o'tmishdagi. Hozirgi davrdagi ma'naviy jixatdan g'oyat qimmatli. O'chmas iz qoldiradigan mangu yashaydigan. butush ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat kiladigan umuminsoniy ma'naviy boyliklarga aytiladi. Ma'naviy meros ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'lib, unga ilmfan, jumladan, falsafa, adabiyot, san'at, axloq. dindagi real, dunyoviy ta'limotlar, hurfiylik va boshqalar kiradi.

Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadriyatini yo'qotmaydi, balki sifat jihatidan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobini ezgulik sari yetaklaydi.

Ma'naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonida yaratilib, so'ng umuminsoniyatning ma'naviy boyligiga, merosi aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o'tmish avlodlar qoldirgan ma'naviy meros bunga misol bo'la oladi. Ma'naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o'rinlardan biri egallaymiz.

Sivilizatsiyaning madaniyatdan farqi shundaki, u o'ziga xos bo'lgan, o'zgalardan tubdan farq qiladigan, ammo, o'z davri taraqqiyotida takrorlanmas iz qoldiradigan fan, madaniyat, texnika, ijtimoiy ong, ma'naviyat va boshqa sohalaridagi buyuk, yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Uning xarakterli tomoni shundaki, u o'zida oldingisini qabul qilmaydi, balki sifat jihatidan yangi, eng o'xshamagan o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi jarayon hisoblanadi.

Sivilizatsiya har bir xalqning yoxud jamiyatning, tarixiy bosqichning o'ziga xos tarixiy-madaniy rivojlanishi, shakllangan qadriyatlari, tafakkur taraqqiyoti hisoblanadi. Hozirgi davrda ilmiy adabiyotda uni «Sharq» va «G'arb» sivilizatsiyasiga bo'lish qabul qilingan. Insoniyat tarixidagi bu sivilizatsiyalar hind, konfusiylilik, buddaviylik, musulmon yoki katolik, pravoslav va hokazolarning paydo bo'lishi shaklida namoyon bo'lgan.

Bugungi sivilizatsiya insoniyatning olamni bilishi, undan» umumbashariy manfaatleri yo'lida foydalana bilishi, har bir xalqning umuminsoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'naviyati va ma'rifati shaklida namoyon bo'lmoqda.

Shunday qilib, madaniyat, ma'naviy meros, sivilizatsiyalar (yutug'i jamiyat va inson ma'naviyatining rivojlanishida, ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridan o'tmishda topalgan ma'naviy merosimizni tiklashga qat'iyon kirishildi. Mustaqilligimizning o'tgan o'n yili ana shu merosimizni o'zlashtirish orqali chinakam milliy tiklanishimizga erishdik. O'zbeklar o'zining milliy-ma'naviy «qiyofasiga» ega bo'ldilar. Ammo, bu borada hali oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ana shulardan biri hali merosimizning bizga noma'lum, ammo, dunyoning turli mamlakatlarda saklanayotgan jahon sivilizatsiyasida munosib o'rin egallab kelgan juda ko'plab moddiy va ma'naviy meroslarimizni o'z Vatanimizga ksltirishimiz, ularni o'rganishimiz, dunyoqarashimiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim bo'ladi.

3. Ma'naviyat va mafkura bir-birlari bilan mustahkam bog'langandir. Ma'naviyat insonning ruhiyati, o'zini-o'zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo'lsa, «Milliy istiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» Konsepsiyasida ko'rsatilishicha: «Mafkura... muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatleri, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'orlar tizimidir»¹.

Mafkuraning ma'naviyatda tutgan o'rni shundaki, u inson, jamiyat yoxud millat yoki guruxlarning intilishlari, ruhiyatleri va qayfiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ma'naviyat singari mafkuraning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. Prezidentimiz Islom

Karimov ta'kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan»². Mafkura jamiyat taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajaradi: **birinchidan**, davlat rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi; **ikkinchidan**, bir davlat, bir mamlakat miqyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g'oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qilali; **uchinchidan**, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g'oyalarini o'zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ'ib etadi; **to'rtinchidan**, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatlarini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltiradi; **beshinchidan**, xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi; **oltinchidan**, mafkura jamiyatda ma'lum siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi ana shunday roliga qaramay, mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda umuman mafkuraga uning mohiyatini tushunganlar ham, tushunmaganlar ham qarshi kurash boshlab yuborgan edilar. Ya'ni hech qanday mafkuraga ega bo'lmagan, mafkuraviy bo'shliqqa asoslangan, o'z g'oyasiga ega bo'lmagan jamiyat qurish kabi qarashlarni ilgari sura boshladilar. Vu jarayon Respublikamiz Prezidentining 1993 yil 23 apreldagi respublikaning bir guruh adiblari bilan uchrashuvida «Milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ygunicha davom etib keldi.

Prezidentimiz mafkura — umummilliy, umumxalq ahamiyatiga ega g'oya bo'lib, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, umumsafarbarlikka da'vat etuvchi kuch ekanligini takidladilar., Inson, uning qadr-qimmat, farovonligi, Vatanimizning yorqin kelajagi bizning milliy g'oyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil etadi.

Shu bilan birga, bu mafkura xalqimizda, o'zining qudrati va «himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy etgan davlatlar orasida teng huquqli o'laroq munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

Mafkura va ma'naviyat munosabatlarini qanlay tushunasiz? Milliy istiqlol mafkurasi manzildir. Ammo, bu manzillar o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi, uni o'z-o'zidan mashaqqatsiz, izlanishsiz, yaratuvchilik, ijodkorlik ishlarisiz egallanmaydi. Yangi jamiyat yuksaq darajada rivojlangan ongni, ma'naviy kamolotni yanada baland bosqichga ko'tarilishini taqozo etadi. Ilg'or demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy istiqlol mafkuramiz ana shu yangi ma'naviyatning hal qiluvchi mezonlaridan biridir.

Ma'naviyat mafkurasiz rivojlana olmaydi. Chunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.

Xullas, mafkura — umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g'oyalar birligidir. Ammo, uning ildizlari har bir insonning qaabida, vijdonida, imonida, aql-idroki va tafakkurida. Shu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi, bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Madaniyat nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
2. Nima uchun madaniyat umuminsoniy hodisa sanaladi?
3. Madaniyat va ma'naviyat meros nima? Ularning farqi.
4. O'zbek xalqining boy madaniyat va ma'naviyat merosiga nimalar kiradi?
5. Mafkura va ma'naviyat munosabatlarini qanday tushunasiz?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. O'rganayotgan xorijiy til mamlakati xalqining madaniyat va ma'naviyat meroslarni o'rganib

- ular haqida qiziqarli ma'lumotlarni tayyorlash.
2. To'plangan ma'lumotlar asosida slayd prezentatsiya tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O'zbekiston", 2000.
2. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari./O'quv qo'llanma. T., 2002.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000.
4. Musurmonova O. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T., 1993.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar — sog'lom avlodni tarbiyalash vositasi. T., 1995.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T, 1996.
7. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari./O'quv qo'llanma. T., 2002.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000.
9. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T., 2008.

MA'NAVIYAT, IQTISOD VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

REJA:

1. Iqtisodiyot tushunchasi. Iqtisodiyot va ma'naviyat birligi. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li.
2. Ma'naviyat va ma'rifat jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotiga erishish sharti.
3. O'zbekiston milliy mustaqilligining iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

Tayanch so'z va iboralar: iqtisod, iqtisodiyot, bozor iqtisodi, iqtisodiy o'nnglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish ma'naviy o'nnglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga iqtisodiyot tushunchasi, iqtisodiyot va ma'naviyat birligi, shuningdek, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'lining mazmunini ochib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda ma'naviyat va ma'rifat jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotiga erishish shartlaridan biriligi haqida tushuncha, bilimlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga O'zbekiston milliy mustaqilligining iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarini tushuntirish.

1. Iqtisod tushunchasiga turlicha ta'riflar berilib kelinmoqsa. Ular qanchalik turli-tuman bo'lmasin, bu ta'riflarni birlashtiruvchi, umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Berilayotgan ta'riflarning turli-tumanligi mualliflarning fan o'rganayotgan masalaning u yoki bu tomoniga ko'proq e'tiborni berganligi bilan bog'liqdir. Aslida iqtisodiyotni inson hayoti va faoliyati bilan uyg'un holda qarash to'g'ri bo'ladi. «Iqtisodiyot deganda kishilar hayotini ta'minlaydigan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va uning iste'moli bilan bog'liq barcha sohalarning yig'indisi va ayni jaraenda ishtirok etayotgan odamlarning faoliyati, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar, munosabatlarning yaxlit birligini tushunmoq kerak»²⁶.

Inson oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyga muhtoj, hayvonot dunyosi ham oziq-ovqatga muhtojlik sezadi. Inson ishlab chiqarish orqali o'z ehtiyojlarini qondiradi, hayvonlar esa hech nima ishlab chiqarmaydilar. Insonlarning moddiy ishlab chiqarish jarayonlari va bu borada yuzaga keladigan munosabatlarni iqtisodiyot fani o'rganadi. Abu Ali ibn Sino fanlarni tasnif qilar ekan, iqtisodiyotni xo'jalik yuritish sohasidagi amaliy fanlar qatoriga kiritadi. O'rta asrlarda ilmlar tasnifi bilan shug'ullangan Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham iqtisodiyotni xo'jalik yuritish sohasilagi amaliy falsafii fap doirasiga kiritadi.

Ishlab chiqarishning o'sishi va kishilar, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar bozor munosabatlarini keltirib chiqargan. O'rta Osiyoda bozor munosabatlari qadim zamonlardan boshlab shakllangan. Tarixiy xujjatlarning guvohlik bsrishicha, bundan ming yillar muqaddam Buxoro va Xiva savdogarlari odamlar ko'zini quvnatib, hayron Qoldirgan tovarlar va buyumlarni Hindiston va Xitoyga, Rossiya va g'arbiy Ovro'pa mamlakatlariga yetkazib borganlar. O'rta Osiyoda bozor munosabatlarining qadimdan rivoj topganiga «Buyuk Ipak io'li» yaqqol misol bo'la oladi. Shunday ekan, hozirgi zamon tilida ishlatilayotgan bozor iqtisodi va uning mohiyati nima? Uni qisqacha ifodalaydigan bo'lsak, u quyidagilarni anglatadi:

²⁶ Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. T., "Ma'naviyat", 1999, 7-bet.

Bozor iqtisodi degan soʻz birinchi navbatda muloqot, gaplashish, kelishish, savdolashish, ikki tomonga toʻgʻri keladigan umumiy narxni, raqamni, xulosani topish demaqqdir.

Bozor iqtisodining asosiy sharti va talabi — mumkin qadar koʻproq va mumkin qadar sifatliroq, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir. Xuddi shu talablarni amalga oshirish ming eng qulay sharoitlarini kapitalizm davri yuzaga keltirdi. Natijada insoniyat keyingi besh asr ichida undan oldingi hamma tarixdagidan koʻp moddiy va maʼnaviy qadriyatlar yarata oldi. Bozor iqtisodi hukmron mamlakatlar moddiy va maʼnaviy boyliklar ishlab chiqarishning haqiqiy qaynar bulogʻiga aylandi. Bu davrda insoniyatning haqiqiy aqliy salohiyati, yaratuvchilik imkoniyatlari namoyon boʻldi.

Jahon tajribasi, shu jumladan, oʻzimizning mamlakatimiz tajribasi ham iqtisodiyot faqat uning oʻzigagina xos boʻlgan qonunlar asosida rivojlanib borganligini koʻrsatadi. Bozor munosabatlarining qonunlarini nazar-pisand qilmaslik, buzish iqtisodiyotni ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotning ham oʻz obʻektiv qonun-qoidalari, sir-asrorlari borki, ular bilan hisoblashmaslikning hech bir iloji yoʻq. Har doim iqtisod oʻz yoʻlidan boraveradi, uni toʻxtatish mumkin emas. Kimki iqtisod qonunlarini nazar-pisand qilmasa, boshi berk koʻchaga kirib qolishi muqarrardir.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng, u qaysi yoʻldan borishi kerak, degan masala oldimizda koʻndalang boʻlib turdi. Yurtboshimiz Islom Karimov mustaqillikka erishishimizni birinchi kunlaridanoq jahondagi turli mamlakatlarning tajribalarini chuqur va har tomonlama oʻrganib, mustaqil Oʻzbekistonning bundan buyongi taraqqiyot yoʻli bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yoʻlidan borish ekanligiga qattiq ishonch hosil etdi.

Ammo, bozor munosabatlarining qaysi yoʻli, qaysi shaklni biz uchun maqbul, qaysi birini oʻzimizning bundan buyongi taraqqiyotimiz uchun tanlab olishimiz kerakligi masalasi oldimizda turgan muammo edi. Bozor munosabatlariga oʻtish Angliyada 200 yil, boshqa mamlakatlarda 100-150 yil mobaynida, Yaponiya, Quriya mamlakatlarida 20-30 yil davomida shakllangan.

Yuqorilarda aytganimizdsk, bozor munosabatlariga oʻtish davrtalab biz uchun bundan boshqa yoʻl yoʻq. Buni Respublikamiz ahli toʻgʻri anglab yetdi. Ammo, kutib oʻtirishga vaqt yoʻq. Vaqt, davr nihoyatda tigʻiz. Tezkorlik bilan mustaqil Respublikamizning bozor munosabatlariga qanday qilib, qaysi usulda oʻtishini tanlab olish, bunda jahonning barcha ilgʻor tajribalarini umumlashtirish va foydalanishni hal etish lozim edi. Buning udsasidan chikdik. Bunda Prezidentimiz Islom Karimov katta shijoat koʻrsatdi. Bozor munosabatlariga oʻtishning jahonda orttirilgan barcha ijobiy tajribalarini oʻrganib, xalqimizning tarixiy taraqqiyotiga, ruhiyatiga, mentalitetiga, milliy xususiyati, iqlim shart-sharoitlariga, mamlakatimizning joʻgʻrofiy mavqeiga asoslangan oʻzimizga xos va mos yoʻlni belgilab oldik.

Ushbu yoʻlning, konsepsiyaning qoidalari Prezidentimiz kitoblarida, maqolalarida va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda, xususan, Islom Karimovning «Oʻzbekistonning bozor munosabatlariga oʻgʻishining oʻziga xos yoʻli» asarida har tomonlama asoslanib, bayon qilib berilgan. Bu «Oʻzbekiston yoʻli» — «Islom Karimov yoʻli» sifatida jahon boʻyicha yuksak baholanib kelinmokda. Ushbu tanlangan yoʻlning mohiyati Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov ishlab chiqqan va ilgari surgan besh tamoyilda oʻz ifodasini topgan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, endilikda boshqa mamlakatlarda ham tan olinmoqda.

Bu tamoyillar quyidagilar:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan holi qilish, ishlab chiqarish va xoʻjalik yuritishda mafkuraviy manfaatlar nuqtai nazardan emas, balki taraqqiyot manfaatlaridan qaralmogʻi zarur;

Ikkinchidan, mamlakatda oʻtkaziladigan islohotlarda davlat bosh islohotchi boʻlmogʻi zarur. Islohotlarning boshida davlat turmasa parokandalik vujudga ksladi. Davlat islohotlar vazifalarini bir tizimga solib, ularni amalga oshirishda yetakchilik qilib turadi;

Uchinchidan, islohotlarni amalga oshirishda qonun ustuvorligiga Qatʼiyan amal qilinishi lozim. Mamlakat hayotida va islohotlarni amalga oshirishda qonun ustuvorligiga amal qilinishi, turli toʻsiqlarning yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi va taraqqiyot uchun keng yoʻl

ochib beradi;

To'rtinchidan, bozor munosabatlari bir kun yoki bir, ikki yilda shakllanadigan narsa emas, uma'lum bir lavr ichida vujudga keladi. Mana shu davr ichida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish zarur bo'ladi. Ijtimoiy himoya — aholini iqtisodiy qiyinchilikka tushub qolmasligining muhim sharti hisoblanadi. Shuning bilan birga ijtimoiy himoya ijtimoiy qiyinchilik sharoitida turli ziddiyatlar kelib chiqishining ham oldini oladi;

Beshinchidan, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdir. Bu tamoyilga binoan islohotlarni bir «zarb» bilan emas, asta-sekin evolyusion yo'l bilan amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu bozor munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi besh tamoyilni qisqa izohlaydigan bo'lsak, ular quyidagilarni anglatadi:

Birinchidan, iqtisodiyotsiyosiy manfaatlarga bo'isundirilganda, u barbod bo'ladi. Buni sho'rolar misolida ko'rishimiz mumkin. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni kazorat qilishi, unga tazyiq o'tkazish darajasiga ko'tarilmasligi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlar har qanday mafkuradan holi bo'lishi lozim. Bozorning qoidasi shunday: kimning mahsuloti yaxshiroq va arzonroq bo'lsa, o'sha mahsulotga talab hammadan ko'ra ko'proq bo'ladi. Bu yerda hech qanday siyosat yoki mafkura o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Ikkinchidan, Islom Karimovning «Davlat asosiy islohotchi bo'lishi zarur. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlarning qarshiligini bartaraf etishi shart»²⁷ — degan fikri o'ta ahamiyatlidir. Mustaqil O'zbekiston boshqariladigan ma'rifatli bozor iqtisodiyotiga o'gayotir. Unga faqat davlatning boshqaruvchilin kuchiga tayanib o'tish mumkin.

Uchinchidan, Islom Karimov o'zining «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay» risolasida hammaning qonunga itoatkor bo'lishi, qonunning hamma narsadan ustun turishini ta'kidlab o'tgan. Biya demokratik jamiyat sari borar ekanmiz, u yerda qonun ustuvorligini unutmashimiz, qonun oldida hamma teng, uni buzishga hech kim haqli emasligini bilishimiz lozim.

Konunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi.

Ma'rifiy dunyodagi bozor — bu eng avvalo, qonunga hurmat demakdir.

To'rtinchidan, respublikamizda ko'p sonli kishilar turmush darajasining pastligi totalitar iqtisodiy tuzumdan qolgan meros. Biz tanlagan yo'lning o'ziga xosligi shundaki, faqat aholi nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish orqali bozor munosabatlariga o'tilishidir.

Beshinchidan, davlatimiz rahbari Islom Karimov doimo islohot ugkazishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yib bo'lmasligi, uni ehtiyotlik bilan sekin-asta o'tkazish zarurligini ta'kidlab kelmokdalar. Shuni aytish kerakki, islohot biz uchun mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni, bozor tizimini yaratishi kerak. Yangilik hech qachon birdaniga yuzaga kelmaydi, har doim iqtisodga bosqichma-bosqich borilgan. O'zbekistondagi bozor iqtisodiga o'tish ham shu narsadan holi emas.

Prezidentimiz ishlab chiqqan ana shu tamoyillar zaminida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ma'naviy barkamollik zarurligi o'z ifodasini topgan. Ya'ni islohotlar shunchaki islohotlar uchun emas, balki inson uchun, uning farovonligini ta'minlashga xizmat qilishi belgilangan. Insonlar va jamiyatda ma'naviyat taraqqiy qilsagina, islohotlarni amalga oshirish ham yengillashib boraveradi. Shuning uchun Prezidentimiz ma'naviyatni ko'tarish masalasini islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishining muhim sharti sifatida belgilab bergan. U «Bozor munosabatlariga o'gish — hayotiy yetuklik va sabr-matонатni sinovdan o'tkazuvchi o'ziga xos imtihondir. Bunda ma'naviy bo'shliqqa yoki ko'ngilga kelgan ishni qilaverishga berilishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli biz ma'naviy-ruhiy tiklanish va poklanish muammolariga alohida ahamiet beryapmiz»²⁸, deb ko'rsatgan edi.

²⁷ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston». 102-bet.

²⁸ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. «O'zbekiston», 1995, 141-bet.

Ma'naviy-ruhiy inqiroz mavjud bo'lgan joyda, iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo'lmazligi — bu haqiqatdir. Ma'naviyati yuksak inson, vaqtinchalik mavjud bo'lgan iqtisodiy qiyinchiliklar oldida dovdirab qolmaydi, u istyqbol bilan harakat qiladi, farzandlari, millati va mamlakatning porloq kelajagi yo'lida samarali mehnat qilishni o'zining turmush tarzining asosiy tamoyiliga aylantira oladi.

Bu O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning ma'naviy omilning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri borasida olib borayotgan yo'lising mazmunini tashkil qiladi.

2. Iqtisod va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq. Ma'naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma'naviyat yuksak bosqichga ko'tarila olmaydi.

Oldin iqtisodiy masalalarni, vazifalarni hal qilib, so'ng ma'naviyat bilan shug'ullanish lozim deguvchilar qattiq adashadi va addanadilar. Bunday yo'l, usul xato va noto'g'ridir.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini yurtboshimiz Islom Karimov bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri ekanligini qayta-qayta uqtirib kelmoqsalar. Bundan ayrim kishilar bizga mafkura, siyosat kerak emas, dsgan noto'g'ri xulosaga kelib, ijtimoiy fanlarga nisbatan noto'g'ri munosabat bildira boshlagan davrlar ham bo'ldi. Bu no'noq, uzoqni ko'ra bilmaydigan odamlar fikri. Oldingi mavzularda qayd etilgaiidek, ma'naviyatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas. Har qanday iqtisodiy masalalarni ma'lum ma'naviyat va ma'rifat sohiblari hal etadilar. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo'lsa, bu mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat shuncha yuksak bo'ladi. Yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lgan mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati ham yuqori bo'ladi. Demakki, ma'naviyati va ma'rifati yuksak inson yurt, mamlakat, xalqi oldida o'ziga yuklatilganmas'uliyatni chuqur his ztadi. Shu yurt, mamlakat, xalq uchun halol, fidokorona yaratuvchilik, bunyodkorlik mehnati bilan uning yuksaklikka parvozi uchun o'z hissasini qo'shishi kerakligini teran his etadi. Shunday qilib, yuksak ma'naviyat va ma'rifat yuksak iqtisod, yuksak iqtisod esa yuksak ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'lanib ketadi.

Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarining qiymati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma'naviy qashshoqtik avj oladi, deb da'vo qiladilar. Erkin bozor iqtisodiyoti bplan ma'naviyapgi bunday qarama-qarshi qo'yish muglaqo o'rinsiz, aksincha, yuqorida aytganimizdek, ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lnshi mumkin.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iktisodiy rivojlanish ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomnla uyg'un holda boradi.

Mana shuning uchun ham jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish XXI asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida belgilab qo'yildi. Yurtboshimiz I.A. Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hast — pirovard maqsadimiz» kitobida ta'kidlaganidek, har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o'ziga xos xususiyatlarini inobaga olgan hodda, umumiy gaplar bilan emas, amaliy jdlar bilan ma'naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazidabo'lishi shart²⁹.

Demak, ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi. Hozirda iqtisodiy islohotlarning yangi, yuqori bosqichiga o'tayotgan ekanmiz, demak ishlab chiqarish tarmokchari ishga tushib, iqtisodiy yuksalish yuz beradi. Bu esa fan, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi. Xususan, bup kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni amalga oshirish borasidagi ishlar yaqqol misol bo'la oladi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyat — iqtisodiy rivojlanishning ham asosidir, degan yangi fikrni o'rtaga tashladi. Sho'rolar zamonida ma'naviyatning rolga bunchalik katta e'tibor berilmagan edi. Umuman, biz uzoq yillar davomida ma'naviyat, madaniyatni iqtisoddan keyingi o'rinlarga qo'yishga odatlanib qolgan edik. Endilikda ma'naviyat oldingi o'rinlardan biriga chiqdi.

²⁹ Qarang: I Karimov. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 25-bet.

Ma'naviyatning oldingi o'ringa qo'yilishiga ikkita sabab bor: **Birinchi**dan, rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot tajribalari ko'rsatdiki, faqat yuksak ma'naviyatgina yuksak iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashi mumkin. Ma'naviyat yaratuvchanlik va faollikning asosiy manbasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni orqaga surayotgan, unga to'siq bo'layotgan sabablardan biri — ma'naviyatsizlik ekanini anglab yetdik. Bu haqiqat achchiq bo'lsa ham, ammo, uni tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Iqtisod, ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro chambarchas bogliq ekanligini bizning otabobolarimiz to'g'ri tushunib yetganlar. Shunga tayangan holda ular komil, ma'naviyati yuksak inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, boshqacha aytganda axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Undagi asosiy o'zak, jihat kishi Qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi, bozor munosabatlarida insof va diyonat, xaridorga munosabatda samimiylik, yumshoq muomala, xaridor ko'nglini topishga intilish asos qilib olingan.

Biz maqsad qilib olgan sivilizatsiyalashgan bozor munosabag'larni faqat yuksak ma'naviyat va ma'rifat negizida, yuksak axloqiylik va vatanparvarlik negizlarida bunyod etilishi mumkin. Buni hammamiz teran anglab olishimiz kerak.

Ma'naviyat va ma'rifatli, imonli kishilargina o'zining halol, pok mehnati bilan boylik yaratuvchi, izlanuvchi, insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo'luvchi haqiqiy vatanparvar bo'ladi. Shunday fuqarolarga ega bo'lgan mamlakat, jamiyat iqtisodiy taraqqiyot pog'onalaridan uzluksiz yuqoriga ko'garilib boradi.

Ma'naviyatli va ma'rifatli kishilarda yaxshilikka moyillii va yomonlikdan tiyilish hissi kuchli bo'ladi. Demakki, turli yomonliklardan tiyilish hissi jamiyatda osoyishtalik va farovonlikka olib keladi.

Kelajak yoshlarniki bo'lgani uchun ham mamlakatimizda ularning ma'rifatli, tadbirkor, zukko va o'z kasbining ustasi, imon e'tiqodli, zamon talablari darajasida yetuk, ma'naviy barkamol bo'lishlari uchun Prezidentimiz boshliq hukumatimiz va ksng jamoatchilik barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ilm-fan ta'lim-tarbiya, hunar egallashni izchillik bilan amalga oshirish iqtidorli yoshlarga ochilgan keng imkoniyatdir. Bu boradagi olib-borilgan ish Oliy Majlisning IX sessiyasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O'zbekiston Rsspublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniii qabul qilinganligida hamda bu masash ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri qilib bslgilanganligida o'z ifodasini top Yurgboshimiz ta'kidlaganlaridek, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o'rnimizga kim kelishiga bog'liq.

Shunday qilib, ma'naviy barkamol, ma'rifatli, madaniyatd tadbirkor, fozil inson eng oliy faoliyat — mehnat, yaratuvchanli bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lishi uchun, uning yashashi v sharoitini tubdan yaxshilash taraqqiyotimizning ob'ektiv qonuni bo'lib qolmoqda.

Xullas, mustaqil O'zbekiston tanlab olgan bozor iktisodiyoti yo'li shuning uchun ham istiqbolliki, u har bir kishidan o'ta tadbirkorlikni, hozirjavoblikni, tejamkorlikni, uddaburonlikni, vaqti-soati kelganda sabr-toqatlilikni, sovuqqonlikni, har bir vaziyatda ishning ko'zini bilishni, muomalada nihoyatda ehtiyotkorlikni, har bir so'zning shakli va mazmunini ajratish va farq qilishni talab etadi.

Yuqorida tadbirkor xislatlari qanday bo'lishi haqida qisqz fikr yuritdik. Bu xislat va xususiyatlar uzbek xalqida azaldan mavjud. Afsuski, ularning ko'pchiligi turlisabablar ta'sirida kishilarimizning yodidan chiqib, xaslidan ozmi-ko'pmi ko'tarilgan, yoki mustabid tuzum va uning mafkurasiga yot narsalar sifatida ular ongidan siqib chiqarilgan. Endi ular tiklanishi va hastimizda o'zlarig'a xos o'rin egallashi kerak. Bozor iqtisodi — demakkim, zamon talabi, mustaqillik qonuni. Mamlakatimizda kishilarning, ayniqsa, sshlarning tadbirkorlik ishi bilan shug'ullanishlariga barcha imkoniyatlar yaratilgan va u qonun bilan mustahkamlangan. Vazifa ana shu qonun doirasida tadbirkorlikni har tomonlama Rivoj.pantirib, O'zbekistonni jahonning rivojlangai mamlakatlari Katorndan o'rin olishiga olib chiqishdir. Shuning uchun ham yoshlar biznipeg, mamlakatimiznipeg kelajagi deymiz. Zotan, buyuk kelajak ma'nan yuksak, ma'rifatli yoshlarimiz qo'lidadir.

3. Mamlakatimiz o'zining ko'p asrlik davlatchilikni shakllantirish, rivojlantirish tarixiga egadir. Uning davlatchilikni vujudga keltirish tajribalari, mustaqillikni mustahkamlashimizga o'zining, ijobiy ga'sirini o'tkazib kelmoqda. Ayniqsa, o'zbeq davlatchiligi tajribalarida ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan siyosatning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bundan tashqari, O'zbekistonda iqtisodiyot va ma'naviyatni rivojlantirishga ham, mavjud bo'lgan imkoniyatlar va resurslarni ishga tushurishga ham katga e'tibor berilmoqda. Ulardan qanchalik unumli foydalana olsak, iqtisodiyot va ma'naviyatni rivojlantirish borasida ham belgilangai maqsadga erishishimiz mumkin bo'ladi. O'zbekiston ; milliy mustaqilligining iqtisodiy asoslari to'g'risida so'z ketganda, uning noyob tabiiy xom ashyo imkoniyatlari haqida alohida aytib o'tish lozim. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat deyilganda xuddi shu imkoniyatlar ham nazarda tutilganligini yoddan chi qarmasli gi miz kerak.

Yurtboshimiz Islom Karimov haqli ravishda aytganidek, O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda fahrlanadi. Bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasiniig deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2700 dan ziyod turli foydali qazilma konlari istiqbolli joylar aniqlangan. Ularning birgalikdagi qiymati mamlakatimiz va xorijiy mutaxassislar bahosiga ko'ra 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiqroq baholanayotir.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda.

Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo'yicha O'zbekiston dunyoda stakchi o'rinlardan birini egallaydi. Masalan, oltin zaxiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda, qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zaxiralari bo'yicha 10-11-o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7-8-o'rinda turadi.

O'zbekistonning yirik sanoati 200 tarmoqni o'z ichiga oladi. 2000 dan ziyod zavod va fabrikalarda juda ko'p sohada qo'llaniladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Respublika rivojlangan ichki transport va aloqa tizimiga egaligi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, temkr yo'llar tarmog'i uzunligi 6700 km, avtomobil yo'llarining uzunligi 80 ming kilometr.

O'zbekiston qudratli ilmiy-ma'naviy potensialga ham egadir. Respublika hududida Fanlar akademiyasi, 120 dan ziyod ilmiy tadqiqot institutlari, 60 dan ortiq Oliy o'quv yurtlari mavjud

Ilmiy xodimlar soni 100 mingdan ortiq bo'lib, ular orasida 200 dan ortiq akademik, 2400 ga yaqin fan doktorlari va professorlar, 16600 dan ziyod fan nomzodlari va dotsentlar bor.

O'zbekiston rivojlangan, ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligiga egadir. O'zbekiston qimmatbaho xom ashyo — paxta yetishtiradigan jahondagi eng yirik o'lkalardan biri hisoblanadi. O'zbekchsts bu ekinni yetishtiradigan mamlakatlar orasida jahonda to'rtinchi o'rinni va paxta mahsulotlarini eksport qiladigan mamlaqatlar ichida ikkinchi o'rinni egallaydi. Har yili mamlakatdalarida, bog'larida 5 million tonnagacha meva va sabzavotlar yetishtiriladi.

O'zbekistonning mehnatsevar, iste'dodli va mehmondo'st xalqi Respublikaning chinakam boyligidir. O'rta Osiyodagi barcha mehnat resurslarining 40% ga yaqini O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillari O'zbekistonda barqarorlik va tinchlik, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlik saqlanib turibdi. Yaxshi qo'shnicilik va insonparvarlik o'zbeklar tabiatidagi tug'ma milliy va diniy fazilathisoblanadi. Barcha zamonlarda O'zbekiston ko'p millatli davlat bo'lib kelgan va kelajakda ham shunday davlat bo'lib qoladi. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari bo'lgan 25 milliondan ortiq kishi yashaydi. Tinchlik, ijtimoiy totuvlik va adolat g'oyalari bizning ajdodlarimiz qoldirib ketgan ma'naviy meros hisoblanadi. Bu merosni qanchalik chuqur o'zlashtirsak, shunchalik darajada mavjud imkoniyatlardan foydalanish, vazminlik, bunyodkorlik, hamkorlik, millat va mamlakat manfaatlari yo'lida fidoiylik kabi fazilatlarimiz rivojlanib boradi. Bu fazilatlar, murakkab o'tish davrimiz uchun kagta amaliy ahamiyatga molik bo'lgan omil hisoblanadi.

Xullas, yuqorida ko'rganimizdek, juda katta boyliklar mavjudligi, qudratli sanoat bazasi, ilmiy va intellektual salohiyat, ma'napiy fazilatlar, davlat suvereniteti yangi jamiyat barpo etish, O'zbekistonni rivojlangan, gullab-yashnayotgan davlatga aylantirish uchun zarur bo'lgan

iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy asos bo'lib qoladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodiyot fani nimani o'rganadi?
2. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz?
- Z. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'lini qanday tushunasiz?
4. Nima uchun ma'naviyat va iqtisod o'zaro bog'liq?
5. Tadbirkorning ma'naviy xislatlariga nimalar kiradi?
- b. O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy zaminlari nimalarda deb bilasiz?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. "Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li" mavzusida esse yozib kelish.
2. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishning ma'naviy asoslarini izohlang.
3. Ma'naviyat va iqtisod o'zaro bog'liqligini yoritib beruvchi slayd prezentasiya tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston».
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. «O'zbekiston», 1995.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.
4. Saifnazarov I. Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti. T., 1996.
5. Jumaboyev Y. J. Tadbirkorlik va ma'naviy kamolot. T., 1996, 3-son.
6. Aliev A. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish. T., 2007.
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rivojlantirish, boshqarish. G'ulomov S. Umumiy tahriri ostida. T., 2005.
8. O'zbekiston iqtisodiyotini raqobatbardoshligini amalga oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. G'ulomov S.S. tahriri ostida. T., 2006.

MA'NAVIYATNING SIYOSAT, HUQUQ VA HOKIMIYATDAGI

O'RNI

REJA:

1. Ma'naviyat va siyosat, ularning o'zaro bog'liqligi.
2. Ma'naviyat va huquq, ularning o'zaro munosabati.
3. Hokimiyat boshqaruv tizimiga ma'naviy barkamol shaxslarni jalb qilish davlat taraqqiyotining muhim sharti.

Tayanch so'z va iboralar: Konstitutsiya, siyosat, hokimiyat, boqaruv, huquq, davlat, tashqi siyosat, ichki siyosat, ma'rifat, me'yoriy xujjatlar, fuqarolar ma'naviyati, siyosiy madaniyat...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga ma'naviyatning siyosat, huquq bilan o'zaro aloqadorligi, bir-biri bilan bog'liqligining mazmunini ochib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda ma'naviyat o'zining salohiyati bilan xalq va mamlakat hayotida siyosatni to'g'ri, adolatli, insonparvarlik yo'nalishida olib borishda katta ahamiyatga egaligi haqida ko'nikma hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga hokimiyat boshqaruv tizimiga ma'naviy barkamol shaxslarni jalb qilish kerakligini va bu davlat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri ekanligini uqtirish.

1. Ma'naviyat taraqqiyotida davlat tomonidan olib boriladigan siyosatning roli nihoyatda kattadir. Qaysi mamlakatda ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajaga ko'tarish, u haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma'rifat va madaniyat rivojlanadi. Bu o'z navbatida mamlakat oldida turgan turli eng murakkab muammolarni ham hal etish imkonini yaratadi. Davlat o'z faoliyatida ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida qaragandagina uning barqaror taraqqiy etishi uchun imkoniyatlar kengayib boradi. Bu holatni to'g'ri anglagan mamlakatimiz rahbariyati, xususan Prezidentimiz I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishga alohida ahamiyat berib, unga rahnamolik qilib kelayotirlar. Yurtboshimizning biror nutqi, asari yo'qki, ularda u yoki bu jihatdan ma'naviyat va ma'rifat masalalariga yondashmagan bo'lsinlar.

Ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligining yaqqol misoli qilib 1994 yil 23 aprelda «Ma'naviyat va ma'rifatjamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida»gi, 1996 yil 9 sentyabrdagi «Ma'naviyatva ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida» Prezidentimiz farmon-larini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlash-tirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'rtisida»gi qarori, Respublika Oliy Majlisi birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlashning millin dasturi va umumiy o'rta ta'limni isloh qilish to'g'risida» gi qonunni va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Keyingi o'tgan davr maboynila yuqorida qabul qilingan farmon va qonunlarni bajarish yuzasilan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Bunga misol qilib milliy-ma'naviy merosimizning tiklanishi borasidagi yutuqlarimizni

ko'rsatishimiz mumkin. Mustaqillik yillari tom ma'poda iqtisodiy o'nglanish. iqtisodiy tiklanish, iktisodiy rivojlanish, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un holda borganligi tarixiy haqiqat.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami «Navro'z» 1991 yildan boshlab Prezidentimiz Farmoniga ko'ra, 21 mart umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. 1993 yil buyuk mutasavvuf Bahouddin Naqshband hazratlari tavalludining 675 yilligi kishonlandi. 1994 yil Ulug'bek yili deb e'lon qilinib, tavalludining 600 yilligi nishonlandi, asarlari nashr etilib, u barpo etgan rasadxona ta'mirlandi. 1996 yil mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur yili sifatida nishonlandi. Muhtasham Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. 1997 yil esa musulmon dunyosida «Islom dinining gumbazi» deb tan olingan qadimiy Buxoro, ochiq osmon ostidagi muzey bo'lmish Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 1998 yil buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy tavalludining 1225, ulug' astronom Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilliklari tantana qilindi. 1999 yilda esa «Alpomish» xalq eposining 1000, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi taval-ludining 800 yilligi nishonlangan bo'lsa, 2000 iilda Abu Mansur Moturidiyning 1130, Islom huquqshunosligining peshvosi Burhoniddin Marg'iloniyning 910 yilligi nishonlandi. 2001 yilda esa o'lkamizda ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy-tarixiy merosi — «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi.

Yuqorida keltirilgan misollar mustaqil O'zbekiston davlatining ma'naviyatimizni tiklash va rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosati borasidagi yutuqlarimizdan bir nishona xolos.

Ma'naviyat, ma'rifat va siyosatning o'zaro bog'liqligini bayon etishdan avval siyosat va uning ma'naviylik jihatlarini bilib olishimiz maqsadga muvofiq.

Ma'naviyat, ma'rifat va siyosatning o'zaro bog'liqligi masalasi ustida to'xtalishdan oldin siyosatning mohiyatini ochib berish lozim.

Siyosat — yunoncha so'z bo'lib, mazmuni davlat yoki jamoat ishlarini anglatadi. Siyosat — katta ijtimoiy guruxlar, millatlar, davlatlar ichki va tashqi munosabatlari sohasidagi faoliyatni anglatadi.

Siyosat — bu muayyan davlatlar hokimiyati, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichki hayotida va xalqaro maydonda xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruhlarning maqsad va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir.

Siyosat har qanday jamiyatda ham davlatfaoliyatini ifoda etadi. Chunki jamiyatdagi barcha jarayonlar va muammolarnipg qo'yilishi Chamda ularning hal etilishi davlat olib boradigan siyosat bilan bog'liqbo'lali.

Siyosat eng yirik ikki yo'nalishga — tashqi va ichki siyosatga bo'linadi. O'z navbatida ular ham o'zining bir necha tarmoqlariga bo'linadilar. Bu yerda gap uning tarmoqlari haqida emas, balki siyosatning ma'naviyat bilan munosabatlari haqida bormoqda.

Siyosat mamlakat ichki hayotida ikki yunalishda olib borilishi mumkin. Ularning biri taraqqiyparvar, iisonparvar, adolatli siyosat bo'lsa, ikkinchisi adolatsiz, reaksion siyosatdir.

Mamlakatda faqat turli guruhlar va harakatlar hukmronligini ta'minlashga, mehnatkashlar, xalq ommasi manfaatlariga zid bo'lgan, ularni bir-biriga qarama-qarshi quyishga va shu aeosida tor doiradagi guruhlar manfaatlarini himoya qiluvchi tuzumni saqlab qolishga qaratilgan siyosat — adolatsiz, reaksion siyosatdir. Bu siyosatning jamiyat va mamlakat miqiyosida hukmronligi inson ; huquklarining poymol etilishiga, mamlakat moddiy va ma'naviy boyliklariningtalontarojkillinishiga, mamlakatda zo'ravonlik, johillik, tekinxo'rlik, ma'naviy va modliy qashshoqlikning vujudga kelishiga olib keladi.

Mamlakatda olib boriladigan bunday adolatsiz, reaksion siyosat nafaqat uning ichdan yemirilishiga, balki xalqaro munosabatlarda ham obro'-e'tiborining tushishiga olib keladi. Xullas, bunday siyosatning olib borilishi mamlakatni halokatga olib keladi.

Adolatsiz, reaksion siyosatga qarama-qarshi o'laroq taraqqiyparvar, insonparvar, ma'rifatparvar siyosat mamlakat va uning xalqi manfaatlariga xizmat qiladi. Bunday siyosat eng avvalo inson zotini ulug'lashni, uning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishni, mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilib oladi. Ilm, ma'rifat, madaniyatni, texnika, texnologiyani rivojlantirish, fuqarolarning zamonaviy bilimni egallashlariga keng yo'l

ochish va g'amxo'rlik qilish taraqqiyparvar, insonparvar, ma'rifatparvar siyosatning muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Bunday siyosatning ustuvorligi va ma'naviyatli tomoni shundaki, u mamlakatda mavjud muammolarni hal qilishda vazminlik vaziyatini vujudga keltiradi, har qanday to'palon va beboshlikning oldini olishga, eng murakkab munozarali muammolarni ham muzokoralar, bahslar yo'li bilan hal qilishga yordam beradi.

Davlat taraqqiyotparvar, insonparvar, ma'rifatparvar siyosat olib borishni maqsad qilib olgan va unga amal qilgan bo'lsa, u albatga tashqi siyosatda ham o'zga xalqlarning yerlarini tortib olish, ularni asoratga solish, talonchilik qilish kabi tajovuzkor siyosatni emas, balki barcha davlatlar bilan tinch-totuv yashash, o'zaro hamkorlik qilish siyosatini olib boradi. Tashqi siyosatda bunday yo'lni tutgan davlatlar qurollanish uchun ketadigan xarajatlarni mamlakatning ma'naiy va ma'rifiy rivojlanishiga sarflaydi. Mustaqil O'zbekistonda Prezidentimiz Islom Karimovning

bevosita rahnamoligida ham ichki ham tashqi siyosatda taraqqiyotparvar, insonparvar va ma'rifatparvar siyosat olib yorilmoqda. Buning natijasida O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora oshib bormoqda. U taylagan yo'l jahondagi mamlakatlar tomonidan tan olinmoqsa. 1997 yil mamlakatimizda «Inson manfaatlarini» yili, 1958 yil «Oila» yili, 1999 yil «Ayollar» yili, 2000 yil esa «Sog'lom avlod» yili sifatida iz qoldirdi. 2001 yil «Onalar va bolalar» yili sifatida o'tgan bo'lsa, 2002 yil «Qariyalarni qadrlash» yili sifatida o'g'moqsa. Siyosatning ma'naviy hayotga real ta'siri mamlakatda ma'rifatni, ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirish to'g'risida ko'rsatadigan amaliy ishlarda namoyon bo'ladi.

O'z navbatida fuqarolarning yuksak ma'naviyatga va ma'rifatga ega bo'lishlari mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'naviyat va ma'rifatga tayangan mamlakatda tinchlik, barqarorlik hukmron bo'ladi va u taraqqiy qilib boraveradi. Ma'naviyati va ma'rifati yuksak xalqning davlati ham har tomonlama yuksalib boraveradi. Ma'naviyat o'zining salohiyati bilan xalq va mamlakat hayotida siyosatni to'g'ri, adolatli, insonparvarlik yo'nalishida olib borishda katta ahamiyatga egadir. Davlatning kuch-qudrati, uning barkamolligini ta'minlashning muhim omillaridan biri siyosatni ana shu yo'nalishda olib borish sanaladi. Ayni vaqtda ma'naviyat davlat siyosatini ommaga yetkazib turishga yaqindan yordam beradi.

2. Ma'naviyat va huquq bir-biri bilan bog'liqdir. Jamiyat, davlat doirasida huquq normalarining belgilanishi odamlarning qaysi darajada ma'naviyatga ega bo'lishlariga bog'liqdir. Mamlakat miqyosida qabul qilinadigan konstitusion qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarning darajalari shu mamlakat fuqarolarining ma'naviyati va siyosiy madaniyatini ifoda etadi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, konstitusion qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlar fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlarini va davlat siyosatining yo'nalishlarini fuqarolarning ma'naviyati rivojlanishi darajalariga mos ravishda rasman belgilab beradi. Ammo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqoridan turib qonun Qabul qilish har qanday yuksak darajadagi qonun va me'yoriy xujjatlar faqat fuqarolarning ma'naviy salohiyati va sissii ongi darajasidagina amal qiladi, undan nariga o'ta olmaydi. Aslini olganda, odamlarning ma'naviyati va siyosiy ongi qabul qilinadigan qonunlar va boshqa hujjatlarda belgilanadigan rasman normalarda yuqori bo'lishi kerak. Ana shundagina fuqarolar jamiyatning taraqqiy qilishida faol ishtirok etadilar.

Agar fuqarolarning ma'naviyati va siyosiy ongi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlarning darajalaridan orqada qoladigan bo'lsa, u qonunlar va hujjatlar qanchalik fuqarolar manfaatlarini ifoda etmasin, ular qog'ozda qolib ketaveradi. Bunday holatda jamiyat hayotida ikki salbiy holat hukm suradi. Birinchidan, fuqarolar bklan davlat o'rtasida, masofa uzoqlashib boradi, ikkinchidai, taraqqiyot haqida aytiladigan so'zlar bilan real hayot bir-birigato'g'ri kelmay qoladi. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bunga yo'l qo'yimaslik uchun davlat o'z fuqarolarining ma'naviyatini rivojlantirishi va siyosiy ongini o'stirish to'g'risida gamxo'rlik qilishi talab etiladi.

Mustaqil O'zbekiston davlati Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida fuqarolarning ma'naviyati, siyosiy va huquqiy ongini o'stirish sohasida doimiy g'amxo'rlik qilib kelmoqda.

Buni mustaqil Vatanimizning birinchi asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyamizda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Bu Konstitutsiyada mamlakatimizda qurilmoqchi bo'lgan adolatli demokratik, huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurishnin yo'nalishlari belgilab berilgan. Mustaqilligimizning mohiyati va imkoniyatidan kelib chiqib fuqarolarimizning huquqlari erkinliklari, burchlarining normalari belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizda milliy xususiyatlarimiz va qadriyatlarimiz mizdan kelib chiqib, bir qator huquqiy normagsar belgilanganki, u xalqimiz ma'naviyati, qalbi va ruhiyati qirralarini o'zida ifod etgan. Jumladan, «Voyaga yetmaganlar, mehnatgalayoqatsizlar va yolg'i keksalarning huquqlaridavlat himoyasidadir» (45-modda), «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» (46-modda), «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» (63-modda), «Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatini rag'batlantiradi» (64-moddaning 2-qismi), «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» (65-moddaning ikkinchi qismi).

Ko'rinib turibdiki, Konstitutsiyadan keltirilgan har bir moddada davlatimizning fuqarolari huquqlari, erkinliklarini ta'minlash, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan o'sgirish to'g'risida ko'rsatayotgan g'amxo'rliqi o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda fuqarolarimizning huquqiy bilimlarini oshirish to'g'risida izchillik bilan siyosatolib borilmoqda. Jumladan, 1996 yil 11-13 sentyabrda Toshkentda inson huquqlarini ta'minlovchi milliy muassasalarning faoliyatiga bag'ishlangan xalqaro seminar o'gkazildi. ruseminarda inson huquqlarini ta'minlashdek eng dolzarb masala muhokama etildi. Prezidentimiz farmoni bilan inson huquqlari bo'iicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi tashkil etildi. Bu davlatimizning umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni ta'minlash yo'lidagi dadil qadamidir.

Har bir fuqaroning o'z huquq va burchlarini bilishlari, unga amal qilishlari jamiyat hayoti uchun, mamlakatda barqarorlikni va qonunlarning ustuvorligini ta'minlashda katta amaliy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda ma'naviyatimizning muhim omili sifatida milliy tilimizning yoshlarimiz tomonidan chuqur o'zlashtirilishi, uning chinakam davlat maqomini olishi zarurligi muntazam ta'kidlanib kelinmoqda. Haqiqatda bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi. Davlat tili to'g'risida qonun qabul qilinganligiga (1989 yil 21 oktyabr) 12 yildan oshdi. Tilymizga beriladigan bunday imkoniyat uchun qanchadan-qancha millatparvar odamlarimiz kurash olib bordilar. Lekin vaqt o'gishi bilan «his-hayajonlarimiz» sunib bormoqda. Ammo, bir qator joylarda davlat tilini joriy qilish qoniqarsiz ahvolda ekaniga achinasan kishi. Xususan, hujjatlar rus tilida to'ldiriladi, hisobotlar rus tilida talab qilinadi, majlis bayonlari rus tilida olib boriladi.

Aslida davlat tilini barcha jabhalarda joriy etish bo'iicha respublika, viloyatlar va shaharlarda maxsus hay'at tuzilgan. Bunday hay'atlarning ishi ham sust, talab darajasida emas. Bu hol albatta manaviyatimiz rivojiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Qonunlarni bilish, ularga itoat etish, o'z huquqlarini, erkinliklarini va burchlarini tushunib yetish har bir fuqaroning yuksak ma'naviy fazilati. Bu adolatli, demokratik, huquq ustuvorligiga asoslangan yangi jamiyat qurishning ham kafolatidir. Xuddi shu ma'noda yoshlarimiz, talabalarimiz huquqiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishlari va siyosiy ongilarini rivojlantirishlari bu^ungi kunimizning eng dolzarb muammosi hisoblanadi.

3. Xokimiyat o'z mohiyati va maqomiga ko'ra rahbarlik va hukmronlik qilish munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir. Hokimiyat alohsda shaxs, guruh, olamlar, gashkilot, siyosiy partiya davlatning chlstimoiy hamkorlikning boshqa ishgirokchilariga kuch ishlatish yeki kuch ishlatmaslik vositalari va uslublari yordamida o'z irodasini o'tkazish va ularning harakatlarini boshqarishni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davla-y hokimiyati va boshqaruv idoralarini yangidan tashkil etdi. Natijada yangi davlat organi — viloyat, shahar va tuman hokimligi boshqaruv; vujudga keltirildi. Hokimliklar o'z faoliyatdoirasida O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prszident farmonlarini. davlat hokimiyati yuqori organlariching huquqiy hujjatlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatta molik masalyalarni muhokama

etish, hayotga joriy qilishda bevosita ishtirok etadilar. Shu jumladan, hokimliklar davlatning ma'naviyat va ma'rifat sohasilagi siyosatini amalga oshirishda ham mas'uldirlar.

Ma'naviyat hokimiyat tizimida turli tabaqa, turli toifadagi aholining umumiy manfaatlarini o'zida mujassam etib, ularning bir mamlakat fuqarosi sifatida umumiy ehtiyojlarini qondirishning muhim omili sanaladi.

Mustaqil O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik davlatni barpo etishni maqsad qilib quygan. Bu maqsadning samarali amalga oshishi davlat boshlig'i va joylardagi hokimlarning dunyoqarashi, og'ir paytlarda eng maqbul va eng to'g'ri yo'nalishni tez anglab olish qobiliyati bilan bog'liq. Darhaqiqat, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida shaxsning roli benihoya katta. Rahbar — shaxsning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy barkamolligi, qanday maqsad va g'oyalar bilan yashayotganligi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham Sharqdonishmandlari hokimiyat tepasida turgan kishi qanchalik dono, aqlli va sezgir bo'lsa, bu o'sha davlat, uning xalqi uchun ham shunchalik katga baxtdsyishgan. Ya'ni Sharq mugafakkirlari davlat va jamiyat, podsho va raiyat haqida yozganda, nufuzli insonning ma'naviy yetukligiga, pokligiga asosiy e'tiborini qaratib, adolat, rostgo'ylik, mehr-shafqat, saxovatva qanoatkabi sifatarni himoya qilganlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, hozirgi mustaqillii sharoitida lavlatrahbaridan, hokimiyattizimida kshlayotganlardaYa juda katta mas'uliyat va fidoiylik talab etiladi. Hokimiyat tizimidagi har bir rahbar shaxs butun hayot zavqini mashaqqatgya almashtirgan, o'z hayoti va jonini mamlakat va xalq hayoti yo'liga tikkan vatanparvar, xalqparvar, halol, pok, to'g'ri, qo'yingchi, har tomonlama yuksak ma'naviyatli, barkamol inson bo'lishi kerak.

Prezidentimiz Islom Karimov xalq deputatlari Samarqand va Navoiy viloyatlari Kengashlarining navbatdan tashqari, sessiyala-ri » so'zlagan nutqlarida ta'kidlaganidek, lavozi; kishiga kibru havo, boylik to'plash va kayfu safo uchun berilmaydi. Aksincha, u yuk-ak mas'uliyatni, hayotning butun rohat-farog'atltan kechishni, kerak bo'lib qolganda o'zidan kechishni talab qiladi. Bunday qarash har birimiz uchun, shu jumladan, ayniqsa, hokimiyat tizimida ishlayotganlar uchun odatga aylanishi, hayotimizga singib ketishi kerak.

Xulosa shuki, mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqishonchini qozonish uchun hokimiyatni boshqaruv tizimiga ma'naviy barkamol shaxslarni jalb qilish taraqqiyotimizning muhim sharti hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Siyosat va uning yo'nalishlarini qanday tushunasiz?
2. O'zbekiston siyosatining ma'naviy jihatlarini qanday tushunasiz?
3. Ma'naviyat va huquq, ularning o'zaro bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
4. Huquqiy, demokratik davlatning asosiy belgilari nimalarda deb bilasiz?
5. O'zbekiston Konstitutsiyasidan xalqimiz ma'naviyati va ruhiyati qirralarini aks ettiruvchi misollar keltiring.
6. Islom Karimovning rahbar xodimlarning asosiy ma'naviy-axloqiy xislatlari haqidagi fikrlarini izohlab bering.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. "Rahbar xodim ega bo'lishi kerak bo'lgan xislatlar" mavzusida esse tayyorlash.
2. Konspektlarni to'ldirib kelish.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., "O'zbekiston", 1995.
2. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari./O'quv qo'llanma. T., 2002.

3. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T., 2007.
4. Demokratiya – murakkab jarayon. “Fan va turmush”. 1991, 11-son.
5. Hozirgi zamon siyosiy jarayonlarida inson omili./Mas'ul muxarrir: Yovqochev Sh.A. T., 2008.
6. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. T., 2007.
7. Yoqubov J. Huquqshunoslik. T., 2007.

MA'NAVIYATDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, UNI MUSTAHKAMLASH VA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH – SHAXS MA'NAVIYATI BELGILARI SIFATIDA.

REJA:

1. Milliy ma'naviyat va uning xususiyatlari.
2. Umuminsoniy ma'naviyat va uning zaminlari.
3. Bozor munosabatlari sharoitida millatlararo madaniy-ma'naviy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi.
4. Milliy o'zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash shaxs ma'naviyati belgilari.

Tayanch so'z va iboralar: Milliy ma'naviyat, shaxs ma'naviyati, mintaqaviy ma'naviyat, umuminsoniy ma'naviyat, milliy axloq, milliy ong, Milliy o'zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta'minlash, shaxs ma'naviyati...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga milliy va umuminsoniy ma'naviyatning mazmunini ochib berish. Shuningdek, bozor munosabatlari sharoitida millatlararo madaniy-ma'naviy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi taraqqiyotga xizmat qilayotganligini ochib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda bozor munosabatlari sharoitida millatlararo madaniy-ma'naviy munosabatlarning tobora rivojlanib borishi respublikada ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilayotganligi haqida ko'nikma hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga milliy o'zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash shaxs ma'naviyati belgilari sifatida davlatimiz aholisida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

1. Milliy ma'naviyat «millat» tushunchasi bilan bog'liq. «Millat» so'zi «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma'noni bildiradi. «Millat» so'zi arab tilida quyidagi uch ma'noni anglatadi: birinchi — din, mazhab; ikkinchi — ummat; uchinchi — xalq, qavm. Millat so'zi Kur'oni Karimda ham qo'llanilgan. Kur'onda har bir millat vakili o'z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savob-li ish, o'z millatidan, qavmidan kechib, boshqa millatga o'tib olishi esa gunoh deb ta'riflangan.

Yevropa adabiyotida qo'llaniladigan «natsiya» so'zi esa qabila, xalq degan ma'noni bildiradi. Binobarin, bu ikki tushunchalar ham asosan muayyan etnik birliklarning o'ziga xosligini bildiruvchi ma'no yotadi.

Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ma'naviy munosabat, aloqalar rivojlanib boraveradi.

Ma'naviyatni to'rt guruhga bo'lish mumkin:

Birinchisi — shaxs ma'naviyati, ikkinchisi — milliy ma'naviyat, uchinchisi — mintaqaviy ma'naviyat, to'rtinchisi — umuminsoniy ma'naviyat.

Shaxs ma'naviyati — har shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy holati, xatti-harakatlari, munosabatlari va boshqa qirralarini o'z ichiga oladi.

Milliy ma'naviyat — muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Mintaqaviy (regional) ma'naviyat — muayyan jo'g'rofiy mintaqaga millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining yoki slavyan xalqlarining

ma'naviyatidagi yoki yanada kengroqdoiradaoladigan bo'lsak, Sharq va G'arb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin.

Mintaqaviy ma'naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, oir-biriga yaqinligi, turmush tarzi za moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi.

Umuminsoniy ma'naviyat — bugun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boyliklardir.

Milliy ma'naviyat — boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma'naviyat degani emas. Chunki bizdagi milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo, milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. Shunday bo'lganda edi milliy ma'naviyat bo'lmas edi.

Milliy ma'naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balkm bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat garixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga vaaksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Milliy-ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni millatning bugun garixi davomida yuz beradi. Bunda esa u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darzjada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ammo, ma'naviyat yuksalib, boyib, tobora ksnroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojiviy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lami va mazmuni jihatdan o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Milliy ma'naviyat erishgan kamolot bosqichini yo'qotish uchun (shu jumladan, umuman milliy ma'naviyatni ham) ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini tamomila o'chirib tashlash, ulardan hatto irsiy xotirani ham barbod qilib — manqurtga aylantirish kerak bo'ladi. Bunday holdan Sizu Bizni Oллоhning o'zi asrasin!

Millat mavjud ekan, milliy ma'naviyat bo'ladi. Milliy ma'naviyatni yo'qotish mumkin emas. Milliy ma'naviyatni yo'qotish uchun qanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma'naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Xulosa shuki, inson qalbidagi milliylikni yo'qotish mumkin emas.

Ko'rinadiki, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy, ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqelikdir. Inson ma'naviy olami o'lchamlari cheksiz bo'lib, uni hech bir narsa bilan o'lchash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma'naviyat avvalo, milliy ongda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikkaerishganimizdan buyon milliy ongni rivojlan-tirishni tarbiyaviy ishning muhim bo'g'imi sifatida olib qaramoq-damiz. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o'zlikni anglash sari yetaklaydi.

Milliy ma'naviyatning asosiy belgi va o'zagi — milliy axloq sanaladi. Bizning milliy axloqimizlagi belgilar boshqa xalqlar axloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo'lali.

Milliy ma'naviyatda — milliy his, tuyg'u, ruhnyat ham muhim o'rin egallaydi. Chunoichi, zamona taqozosi bilan bo'lqa yurtta safarga borgudek bo'lsak va o'sha yerda milliy kuy, qo'shiqni eshitgudek bo'lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg'u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, qanoat hosil etamiz. Ya'ni ma'naviy ozuqalanamiz.

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. Bularga o'zbek xalqining o'zi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, avlodan-avlodga o'tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma'naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan axloqiy an'ana, marosimlar, axloqiy pand-nasihatlar va hokazolar kiradi.

Urta Osiyolik mutafakkirlarning ilmiy merosida, manbalarda o'zbeklarda qadrlangan, o'zbekona axloq, odobga oid ma'naviy fazilatlar haqida ko'plab qimmatli fikr, ma'lumotlar mavjuddir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida o'zbeklarga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular imon va e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug'lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, sahovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, mardlik, odillik, xayolilik, mehnatsevarlik va

boshqalardir.

O'rta Osiyoga sayohatga kelgan German Vamberi «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asarida Oltin O'rdadagi o'zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqda og'ir vazminligini, oq ko'ngillilik va samimiyligini, kamgapligini, sadoqatligini, dovyurakligini, shinavandligini, oilaviy munosabatlarda Pokligini, mulohazaliligi, andisha bilan to'g'ri so'zlashishini, ota-onaga hurmati va e'tiqodi kuchliligini, birinchi bo'lib Utirmaslik va birinchi bo'lib so'zlashmasligini, mug'ombirlikni bilmasligini, dinga etiqodi kuchli bo'lib, bu jihatdan anatoliyalil turklarga o'xshashligini ko'rsatgan.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlik, saxiylik. Xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, xaelilik, sizlab muomala qilish, ozodalik. Xushchaqchaqlik, xushfe'llik. Mardlik, samimiylilik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomuslilik, to'g'rilik rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va katgalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, imonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, mkllatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan uning ma'naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. O'zbeklarning milliy ma'naviyati, erkak va ayollarning o'ziga xos sharqona axloqiy fazilatlarini, ota-ona, farzandlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y aloqalari, halollik, imon, vijdon bilan bog'liq ma'naviyati faqat o'tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik. Halollik, imon, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy ma'naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy xislatlar avloddan-avlodga o'tib qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus bobida, oila, qarindosh-urug'larga nisbatan munosabat bobida sharqona, o'zbekona fazilatlarini tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanavsradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug'larni va kichiklarning izzatini o'z o'rniga qo'yish, hurmat qilish ham milliy ma'naviyatimizga kiradi. Bu yo'l istiqbol va istiqbol muammolarini o'tmishning boy tajribasi bilan bog'lashga yaqindan yordam beradi.

Odatda kishilar ko'pincha ikki ishda katta xatoga yo'l qo'yadilar. Birinchisi — yoshlarni hali yosh deb, ularga ishonmaganida, ikkinchisi — keksalarni qariya deb chetga surib qo'yganida. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog'liq bo'lgan katta tashabbus, kuch va g'ayrat bo'ladi. Keksalar esa hayot yo'lida ko'p issiq va sovuq kunlarni boshdan kechirib, boy tajriba orttirgani uchun ularda uzoqni o'ylab, bosiqlik bilan ish qilish, yetti o'lchab bir kesish singari ma'naviy boylik va yetuk tafakkur salohiyati bor. O'zbeklarning «Qari bilganni pari bilmas», degan hikmatida ko'p ma'no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, g'ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog'langandagina yaxshi ijobiy samara beradi. Kexsa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlar uchun ma'naviy kamolot va ibrat maktabidir. Kexsa avlodning hayot tajribasini mensimaslik hamma davrlarda ham jamiyat uchun falokatli oqibatlariga olib kelgan. Chunonchi, 1920-30 yillarda hali hayotda biror og'ir saboqni ko'rmagan, baland-pastni bilmagan 15-17 yoshlik komsomollar ko'plab ishbilarmon, mehnatsevar dehqonlarni quloq qilish, molu-mulkini musodara etib, uzoq yerlarga badarg'a qilish vazifasini o'z zimmasiga olgani ham katta iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy bo'xronlarga sabab bo'ldi. Hozir ham keksa-pirning qadriga yetmaydigan, ularni mensimaydigan yoshlar oz emas. Bu o'zbek milliy ma'naviyatidagi salbiy bir hol, ko'rinish uning oldini olish zarur.

Sovet totalitar tuzumi sharoitida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining milliy jihatlari, an'analarini inkor etish yoki kamsitish kuchaydi. Ularni ma'naviy qoloqlik ifodasi sifatida talqin etishdi. Sharq xalqlarining, jumladan, o'zbek xalqining ming yillik ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan hadislar, shariat hukmlari diniy xurofat sifatida qoralandi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharmu-hayo, halollik va pokiza-lik, inson qadr-qimmatini

to'g'risidagi ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lgan yevropacha an'analar yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu tufayli ma'naviy tubanlik yuzaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan bag'ritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o'z farzandini o'ldirib yashirish), xudbinlik, maishiy buzuklik, giyohvandlik kabi ma'naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifatparvar fidoiylar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, — degan edi Abdulla Avloniy, — bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir».

Bu fikrlarning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo'q. O'zbek millati faqat milliy ma'naviy kamolot orqaligina yuzaga kela boshlagan milliy-ma'naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Sovet totalitar tuzumi barbod bo'lishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi jamiyatimiz ma'naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun tangrining Inoyati, xalqimizning baxti bo'ldi. Milliy mustaqillik tufayli Jamiyatimizda milliy ma'naviy noklanish, o'nqlanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Yosh avlodni, vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, imon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoiysiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

2. Inson ozodligi salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalaniish imkoniyatlari va u hakda g'amxo'rlik qilish kabi ma'naviy mas'uliyat o'z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil-ko'shnichilik kabi ma'naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmokda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma'naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi.

O'zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik qilish ham umuminsoniy ma'naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalmilalchilik ham umuminsoniy ma'naviyat tizimidan o'rin olgandir.

Yuqoridagi ma'naviylik tushunchalarining milliy chegarasi yo'q. U hamma millat, xalq uchun bab-barobar tegishlidir. Ammo, ularning hammasi faqat muayyan milliy shaklda namoyon bo'ladi. Umuminsoniy ma'naviyatda biz milliy ma'naviyatning eng olijanob, eng yuksak ko'rsatkichlarining umumjahon miqiyosida mujassamlashgan birligini ko'ramiz.

O'z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buningsiz zamonaviy ilg'or millat haqida orzu qilish mumkin emas. Umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig'idan chetga chiqishga, olamni kengroq anglash va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma'naviyat bo'lmasa umuminsoniy ma'naviyat yo'q, umuminsoniy ma'naviyatisiz esa hozirgi zamon ilg'or millatlari yo'q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma'naviyatning yaratuvchilaridir. Islom Karimov aytganidek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, Ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan Mujassam»³⁰. Umumjahon, umuminsoniy ma'naviyat esa hozirga zamon ilg'or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida esa milliy va umuminsoniy ma'naviyatning ana shu dialektik bog'liqligini hisobga olishimiz davr talabi. Buni esa Prezidentimiz Islom Karimov

³⁰ Karimov I.A. Donishmand xalqimkzning mustahkam irodasiga shnonaman. "Fidokor» gaetasi, 2000 yil, 8iyun.

ma'naviyat to'g'risidagi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda hisobga olganligining guvohimiz. Xususan, Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» asarida, «Milliy madaniyatning o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'alaridan ajralib qolishi mumkin emas», — deb ta'kidlagan edi. Mustaqillikni mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma'naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish negiziga qurmog'imiz lozim.

3. Bozor munosabatlariga o'tish davrida ko'p millatli davlatlar uchun milliy siyosatni to'g'ri, aniq ko'zlangan maqsad asosida olib borish juda muhimdir. Bu esa taraqqiyotning jadallashuviga yordam beradi. Millatlarning va ular madaniyatlarining bir-biriga ta'sir ko'rsatishi ko'p millatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qilib kelgan.

O'zlarining tarixiy vatanlaridan tashqarida yashovchi millatlar uchun hamma joyda, hamma vaqt milliy ehtiyojlarini qondirib olishlari uchun zarur sharoit yaratilishini taqozo etadi. Bu talab birinchi galda milliy hududiy tuzilmalari bo'lmagan xalqlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Millatlar o'rtasidagi turli munosabatlarni uyg'unlashtirish sobiq sovet ittifoqi hududida yangi mustaqil milliy davlatlar qaror topayotgan davrda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masala ziyalik va noziklik bilan yondashishni talab qiladigan dolzarb masaladir. Ko'p millatli davlatlarda milliy masalani barcha millat va xalqlar manfaatlarini birday hisobga olmasdan hal etishga urinish yomon, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, ko'p elatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O'zbekiston Respublikasi uchun ham millatlararo munosabat juda muhimdir. Bu hududda asosiy millat — o'zbeklar bilan bir qatorda o'z madaniyati, an'analari va ma'naviyatiga ega bo'lgan 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar. Ularning mamlakat aholisi umumiy tarkibidagi ulushi 20 foizdan oshiqni tashkil etadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrining dastlabki bosqichlarida demokratik va siyosiy islohotlarning borishini umumiy baholab, aytish mumkinki, O'zbekistonda millatlararo munosabatlar masalasiga alohida, ehtiyotkorlik bilan yondashilmoqda.

Millatlararo munosabatlarda o'tmishda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar asta-sekinlik bilan bartaraf etila boshlandi. Mamlakatimizda xalqlar tinch-totuvligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.

O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolishda bizning qonun bazamiz yaqindan yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 8-moddasida: «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», — deb ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Konuni O'zbekiston Respublikasining Hamma fuqarolariga «...ijtimoiy kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va millatga mansubligidan...qat'i nazar»ning saylov huquqini beradi.

O'zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish davlat konsepsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasida yaqqol belgilab berilgan. Unda aytilganidek, «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». Mustaqillik yillari millatlararo ma'naviy va madaniy-ma'rifiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi ana shu qonun doirasida rivojlantirilib kelinmoqda. O'zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik madaniy, ma'naviy asoslarda jiplashish jarayonlari faol yuz bermoqsa.

1989 yildayoq mamlakatda milliy-madaniy markazlarni tashkil qilish asosida tub aholi

bo'lmagan xalqlar milliy an'analari, madaniyatlari va boshqa o'ziga xos jihatlarini rivojiga keng yo'l ochib berdi.

1989 yilda Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan, qozoq, koreys, arman, ozarboyjon, tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Vaqq o'tgan sayin ularning soni orta bordi. Xususan, 1995 yilga kelib mamlakatda ularning soni 80 tadan oshdi. Hozirda esa ularning soni 100 tadan oshib ketdi. Bunday rivojlanish o'z navbatida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo qiladi. Shu maqsadda 1992 yil boshida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi «Baynalminal madaniyat» Markazi tashkil qilindi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi.

Milliy-madaniy markazlar O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol o'ynamoqda.

Mustaqil O'zbekiston etnik guruhlar va millatlar o'rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o'zini erkin va teng huquqli deb his qilishi imkonini beradigan o'zaro munosabatlar o'rnatishga intilmoqda. Yurtimizda milliy ayirmachilikning har qanday ko'rinishlari qoralab kelinmoqda. Milliy kalondimog'lik g'oyat zararli, biz ulardan yiroq bo'lishimiz kerak... Chunonchi milliy kalondimog'lik kasaliga yo'liqqan kishilar o'z millii ma'naviyatini bilib, boshqa millat ma'naviyatini gan apmaydshshr. Bunday munosabat tamomila noto'g'ri. Ular jahon xalqlari ma'naviy merosi o'rtasidagi aloqadorlikni, bir-birini boyitiishni bilmaydilar.

Milliy mahdudlik, xudbinlik kasaliga chalingan kimsalar esa — mening millatim ma'naviyati, madaniyati bo'lmaganda jahon madaniyati, ma'naviyati bo'lmas edi, degan g'oyat zararli qarashni, g'oyani ilgari surib, himoya etadilar. Mustaqillik sharoitida bunday zararli g'oyalarni ilgari surish va himoya etishga intilish millatlararo munosabatlarning negaziga putur yetkazadi, milliy totuvlikka rahna soladi. Biz qanchalik o'z madaniyatimiz, ma'naviyatimizni hurmat qilmaslik, shu bilap birga boshqa millatlar, jahon xalqlari ia'naviyatiga ham ;;urmat bilan qarashimiz lozim.

Bizning maqsadimiz: «Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qati nazar, munosib xayog sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlar-pagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarini xa'minlash».

Ana shu maqsad yurtimizda sobitqadamlik bilan amalga oshirib qelinmokda. Chunonchi mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z ona tillarida o'qishi, ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ular kerakli miqdorda o'quv qurollari va darsliklar bilan ta'minlanmoqda.

Ayni paytda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning farzandlari mamlakatimiz o'quv yurtlarida bemaol ta'lim olmoqdalar. Yoshlar oliy o'quv yurtlarida va maktablarda 8 tilda ta'lim olmoqdalar. Kupchilik tillarda gazeta va jurnallar chop etilmokda. Teleko'rsatuv va radioeshittirishlar olib borilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekiston bozor munosabatlari sharoitida millatlararo madaniy-ma'naviy munosabatlarning tobora rivojlanib borishi respublikada ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

4. Milliy o'zlikni anglash har bir inson uchun ma'naviy barkamollikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Chunki u avvalo, o'zining kimligini bilib olsa, qaysi millatga mansubligini tushunib yetsa, avlod-ajdodlari, ular qoldirgan moddiy va ma'naviy msrosni o'zlashtirsagina to'laqonli shaxs darajasiga yetishi mumkin. Bunday shaxslar millatning aksariyat ko'pchilik qismini tashkil qilsagina bunday millatning istiqboli buyuk bo'ladi. Shuning bilan birga o'zini-o'zi chuqur anglab yetgan, ko'zi ochilgan, aqli raso, g'oyaviy-siyosiy jihatdan uyg'ongan va jipslashgan xalq va millatni, o'tmishda bo'lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini paymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas.

O'z-o'zini anglash bu xalqning, millatning o'tmish tarixiy taraqqiyot yo'lini, ota-bobolari,

nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo'lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga ko'shgan buyuk hissalarini bilib olishdir.

Milliy o'zlikni anglash — millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta'minlash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan chsksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o'zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch g'ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo'lishi uchun til, hudud va ma'naviyat asosiy shart bo'lgani kabi milliy o'zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O'zlikni anglash o'z mohiyatiga ko'ra millat va elatlar uchun xos bo'lgan ma'naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o'z funksiyasiga ko'ra milliy manfaatlarni himoya qiladi.

Milliy o'zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog'liqdir.

Milliy o'zlikni anglash real hayotda millat sha'ni, qadr-qimmatini, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga nisbatan ikkinchi bir tomondan zo'ravonlik harakatlari boshlanib ketgan holatlarda yanada kuchli va yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holatda, millatning barcha vakillari qaysi lavozimda xizmat qilishi, qaysi darajada boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar o'zaro birlashib ketadilar va millatning manfaatlarini himoya qiladilar.

Milliy o'zlikni anglash millatning til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, hudud yagonaligi, **ma'naviyatdagi o'ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustakil belgisi xisoblanadi.** Milliy o'zlikni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi — milliy manfaatlar, ehtiyojlar umumiyligini himoya qilish va milliy taraqqiyotga erishish va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

Milliy o'zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

Birinchidan, agar milliy o'zlikni anglash rivojlangan bo'lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa, sha'ni, qadr qimmatini, obro'-e'tibori, g'ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda, millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o'zaro muxolafatda bo'lgan tomonlar ham millatning sha'ni, g'ururi, obro'-e'tiborini himoya qilish manfaati yulida birlashadilar.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash ruhiy, his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishlaridagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo'ladi.

Ruhiy his-hayajon va ehtirolarning «portlashi» millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g'oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziyolilarning salohiyatiga bog'liq.

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida sodir bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki shular bilan birga uning abadiylikni ta'minlab turuvchi mustahkam qo'rg'on hamdir.

Siyosiy ma'naviyati, milliy ongi rivojlangan, milliy jihatdan o'zini-o'zi anglab yetgan xalq, millat mustaqillikning buyuk kuchiga aylanadi. Millatning, xalqning kuch qudrati uning soni bilan o'lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongning o'sganligi, milliy g'ururi, milliy hissiyoti, milliy tuyg'uning qay darajadali, o'z-o'zini anglab yetganligi, milliy uyushganligi bilan belgilanadi. O'zligini anglagan millatni harbiy ustunlik bilan vaqtincha qaram qilish mumkin, ammo, uni batamom qaram qilib bo'lmaydi. Undagi milliy g'urur har qanday sharoitda ham ozodlikka chiqishi uchun kurash olib borishga olib keladi. Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash millatning eng muhim belgisi, uning rivojlanishi va kelajagini ta'minlovchi omili hisoblanadi. Mustaqillikni qo'lga kiritish o'zbek xalqi hayotida milliy o'zlikni anglash yo'lidagi buyuk inqilob hisoblanadi. Chunki chorizm tomonidan bu o'lkani bosib olinishi oqibatida Turkiston

xalqlarining ma'naviyati, ma'rifatiga yetkazilgan katta zararlar va Rossiyada amalga oshirilgan Oktyabr to'ntarishidan keyin o'rnatilgan sho'rolar hukumati tomonidan davom ettirilgan zo'ravonlik siyosati xalqimizning g'ururini poymol etishga, uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Sho'rolar davrida o'zbek millati nomi faqat sobiq SSSR hujjatlarida qayd etilsada, u xalqaro hayotda mustaqil sub'ekt sifatida tan olinmay kelingan edi.

Mustaqillik uchun kurash, garchand chorizmning mustamlakachilik siyosati davridan boshlangan bo'lsa ham, u sho'rolar tuzumi davrida yanada keskin tus oldi. Ammo, o'zbek xalqining ko'zga ko'ringan millatparvar farzandlarining izchillik bilan bosqichma-bosqich qirib yuborilishi milliy o'zlikni anglash jarayonining ommaviy ravishda yuksalish imkonini bermagan edi. 80-yillarga kelib SSSR iqtisodiyotidagi inqiroz, uning siyosatda xalqaro jandarmga aylanishga intilishi va ma'naviyat va ma'rifatdagi qashshoqlashuvi, bu tuzumning millatlarni taraqqiy ettirishga noqobilligini yana bir bor tasdiqlagan edi. Bu jarayon sobiq SSSR tarkibiga kirgan millatlarning mustaqillikka intilishini, o'zlikni anglashning zimdan o'sib borishini tezlashtirib yubordi. 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshlarida millatlararo munosabatlarda turli nizolar hamda fojialarning kelib chiqishi milliy o'zlikni anglashning yashirin qudrati yuzaga qalqib chiqqanligini bildirar edi. Bu qudratli jarayon oqibatida «metindek» mustahkam bo'lgan qudratli SSSR davlati va butun jahon sotsializm tizimi halokatga uchradi. Sobiq xalqlar turmasi o'rnida mustaqil davlatlar vujudga kelib, millatlarning o'zligini anglashga intilishi kuchayib ketdi. Ana shu murakkab kurash jarayonini o'z boshidan kechirgan o'zbek xalqi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, o'zining mustaqil millat maqomini tiklash uchun dadil harakat qildi. Xususan, mustaqillik yillari bosib o'tilgan tarixan qisqa davr lobaynida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta ishlarni amalga oshirdi. Bu yillarda millatimizning o'zligini anglashi jadal rivojlanib bordi. Bu milliy o'zlikni anglash jarayonining yuksalib borish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ldi:

Birinchidan, sobiq tuzum sharoitida ma'naviy-ma'rifiy sohalarda bu tuzumni madh etuvchi ishlar zo'ravonlik va makkorlik bilan qaysi shaklda va usulda amalga oshirilmasin, millatimizning dunyoqarashini butunlay o'zgartira olmadi. Xalqimiz har qanday sharoitda ham o'zligiga qaytish kayfiyati va ruhiyati bilan yashab keldi. Chunki sho'rolar tuzumi bermoqchi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat, uni shakllantirish milliy madaniyatlar rivojlanishining ob'ektiv qonunlariga asoslanmay, balki, sub'ektiv kuchning, ya'ni kommunistik mafkuraning zo'ravonligiga tayangan edi. Bundan tashqari, sobiq tuzum bermoqchi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri va shu asosda boyishiga emas, balki rus millati madaniyati va ma'rifatini boshqa «yirik» millatga singdirishga qaratilgan edi.

Sobiq sovet jamiyati madaniyatining modeli «nazariy» jihatdan «asoslangan» bo'lsa ham, ammo, u amalda mavhum tushuncha edi (mazmunan sotsialistik, shaklan milliy). Mohiyat jihatdan esa o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan va bugungi avlodlarga meros bo'lib o'tgan ma'naviyat va ma'rifatga mutlaqo zid edi.

Mustaqillikka erishishimiz bilan bunday holatlarga Prezideitimiz Islom Karimov rahnamoligida barham berildi.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki bosqichlarida milliy o'zlikni anglashning xarakterli xususiyati shunda bo'ldiki, milliy qadriyatlardan ko'ra diniy qadriyatlarni ko'tarish ustuvorlikni tashkil qildi. Buning ob'ektiv sababi bor edi. Xususan, o'zbek xalqi ma'naviyati va ma'rifati rivojlanishining sho'rolar tuzumi o'rnatilgungacha bo'lgan davri islom ma'naviyat va ma'rifati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u millatimiz ongi va ruhiyatining muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yo'li bilan millatni ham yo'q qilish mumkin, deb hisoblaganlar va shu siyosatni izchillik bilan amalga oshirishga intilganlar. Ularning bu harakatlari bejiz emas edi. Chunki Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi»³¹. Mustaqillikni qo'lga kiritgandan

³¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasn - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir T., «O'zbekiston», 2000. 11-bet

keyin tarixiy xotirani va diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishining, o'zlikni anglashning muhim omili sifatida ustuvor bo'lib keldi. U **MILLIY** birlikni mustahkamlashda va milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishda amaliy ahamiyat kasb etdi.

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash jadal sur'atlar bilan o'sib ketishiga qaramasdan, O'zbekiston o'z millatlararo va fuqarolararo nizolarning bo'lmaganligi, ularning oldi olinganligi o'zbek millati uchun vazminlik, bag'rikenglik va boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat kabilar xos bo'lgan xususiyatlardan sanaladi. Aslida 1990 yillarda sobiq SSSR tizimida bo'lgan sobiq ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani kabi parokandalik, taraqqiyot yo'lining noaniqligi O'zbekistonda ham bo'lgan edi. Ammo, o'zbek xalqining o'ziga xos teran aql-zakovati, bosliqlik, vazminlik xususiyatlari, uning rahbari Islom Karimovning vaziyatni to'g'ri anglab, shunga mos ravishda siyosat olib borishi parokandalik yo'lga to'siq qo'ydi.

To'rtinchidan, o'zbeklar o'z atrofida yashayotgan boshqa millat va elat vakillariga nisbatan do'stlik, birodarlik, hamkorlik, o'zbek xalqiga xos mehr-oqibat tuyg'ularini saqlab qola olganligi milliy o'zlikni anglashdagi yana bir xususiyat hisoblanadi. Vaholanki, mustaqillikka erishgan ayrim respublikalarda mustaqillik sharofati oldida dovdirab, o'z atroflarida yashayotgan, yaqindagina qardoshimiz deb yurgan millat vakillariga hurmatsizlik bilan qarash yuz berganligi sir emas. O'zbekistonda bunday hol yuz bermaganligi, xalqimizning yuksak ma'naviyatini ko'rsatadi. «Milliy nstiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasida ta'kidlanganidek, «millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat bu — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat halokatga yuz tutishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi. O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi»³².

Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug'imiz — bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir»³³.

Mustaqil O'zbekistonning yuksalishi, o'zbek millati gullab-yashnashining tarafdori bo'lgan har bir o'zbekistonlik fuqaro millatlararo totuvlik, do'stlik qoidalariga sodiq bo'lishi kerak. Chunki, mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda, o'zbek xalqining milliy o'zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida o'zbeklar va boshqa millat, xalq vakillari bilan yonma-yon istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e'tiqodlaridan qati nazar, bir-birining ko'nglini ola bilishiga, ular o'rtasida do'stona munosabatlarning o'rnatilishiga bog'liq. Hozir O'zbekistonda 136 millat va elat vakillari tinch, farovon hayot kechirmokda. Ular o'zbeklar bilan bir qatorda bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Mamlakatimizda har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlar va rasmlarini tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa va munosabatlarni bog'lashga, milliy histuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochib berilgan. Bu esa mamlakatimiz barqaror rivojlanishining kafolatidir.

Xullas, milliy o'zlikni anglashni o'stirish yo'lida mustaqillikni mustahkamlashga fidoyi bo'la oladigan, Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, **«Biz fidoyi vatanparvarlarni tarbiyalashimiz»**. **«Elim deb, yurtim deb yashovchi, shu yo'lda xatto jonini xam ayamaydigan»**. **«O'zidan so'ng ozod va obod Vatan koldiradigan» farzandlarni tarbiyalashimiz zamon va mustaqillik talabi»**. Bunga yurtimizda yashayotgan har bir kishi millatidan qat'i nazar mas'ul bo'lmog'i lozim. Yoshlarimiz tafakkurida o'zligini unutmashlik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat kilish fazilatini qaror toptirish, ularning, men o'zbek farzandiman, deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish ma'naviy

³² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 60-bet.

³³ Karimov I A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999. 9-bet.

tarbiya ishimizning markazida turmog'i lozim

Agar biz butungi milliy o'zligimizni anglash borasidagi vazifalarini talab darajasida amalga oshira olsak:

Birinchidan, mustaqilligimizni abadiylashtirishga, obod va ozod Vatan, farovon hayotni qurishga, mamlakatimizning jahondagi nufuzini mustahkamlashga, o'zimizning jahon sivilizatsiyasidagi adolatli va munosib o'rnimizni qayta tiklashga erishamiz.

Ikkinchidan, milliy o'zligimizni anglashimiz, avlod ajdodlarimizdan qoldirilgan boy merosimizni o'zlashtirishimizga olib keladi. Bu faqat mustaqilligimizni mustahkamlash vazifalari darajasi bilan chegaralanibgina qolmasdan, balki millatimiz avlodining vorisligini ta'minlashga imkon beradi. Demakki, bu vazifalarni amalga oshirib, biz keyingi avlodlarimiz oldilagi vazifamizni ham ado etgan bo'lamiz.

Shuning uchun milliy o'zligimizni anglashni rivojlantirishimiz butungi kunning va istiqbolning avlodlari oldidagi vazifasi ekanligini har bir millatdoshimizning tushunib yetishi katta amaliy ahamiyatga molikdir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ma'naviyat qanday guruhlariga bo'linadi?
2. Milliy ma'naviyat nima?
3. Mintaqaviy ma'naviyatga nimalar kiradi?
4. Umuminsoniy ma'naviyatni qanday tushunasiz?
5. Milliy va umuminsoniy ma'naviyatning o'zaro bog'liqligi.
6. O'zbek xalqi milliy ma'naviyatining o'ziga xos jihatlarini izohlang.
7. O'zbekistondagi milliy-ma'naviy siyosatning mohiyati.
8. Qanday milliy-madaniy markazlarni bilasiz?
9. Milliy o'zlikni anglashning mohiyatini izohlang.
10. Millat va milliy o'zlikni anglash munosabatlarini qanday tushunasiz?
11. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni izohlang.

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. O'zbek xalqi milliy ma'naviyatining o'ziga xos jihatlarini alohida-alohida ko'rsatib berish.
2. "Milliy o'zlikni anglashning mohiyati" mavzusida esse tayyorlash.
3. Har bir talaba individual holda shaxs ma'naviy barkamolligi mezonlaridan birini tahlil qilib kelish.

Adabiyotlar:

1. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari./O'quv qo'llanma. T., 2002.
2. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T., 2007.
3. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. T.,2002.
4. Sodiqova N. O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar. T., 2003.
5. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. /Mas'ul muharrir Kamolov S.K. T., 2003.
6. Milliy istiqloq g'oyasi. /Ilmiy muharrir T. Risqiev. T., 2002.
7. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T., 2006.
8. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. / Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. T.: "O'qituvchi", 2008.

QADIMGI SHARQ VA G'ARB FALSAFASI MA'NAVIYATI HAQIDA

REJA:

1. Sharq — insoniyat tsivilizatsiyasining qadimiy o'chog'i.
2. Qadimgi Sharq falsafasi va ma'naviyati .
3. Antik dunyo va Yunoniston falsafasi va ma'naviyati.

Tayanch so'z va iboralar: «Tavrot», «Veda» — diniy kitoblar, astika — «Veda»ning muqaddasligini tan oluvchi, nastika — uning muqaddasligini tan olmaydigan maktablar. Dao — tabiat qonuni, Tsi — borliqning asosida yotgan besh unsur, yan — yorug'lik kuchi, in — zulmat kuchi, metafizika — qadimgi yunonistonliklar fikricha, borliqning asosini o'rganadigan dastlabki falsafa, atomlar — bo'linmas deb tasavvur qilingan zarrachalar.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga Qadimgi Sharq va G'arb xalqlari ma'naviyatining shakllanishi jarayonlarini yoritib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda Qadimgi Sharq xalqlari ma'naviyatining bir bo'lagi sifatida Qadimgi G'arb falsafasi bilan o'zaro aloqadorlik va farqli taraflari haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga milliy o'zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash shaxs ma'naviyati belgilari sifatida davlatimiz aholisida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

1. Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon tsivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. G'arb madaniyati tarixini o'rganish jarayonida Ovrupotsentrizm nazariyasiga og'ib ketish g'ayriilmiy bo'lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog'liq jihatini tahlil etganda ham Osiyotsentrizm g'oyalari ta'siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon tsivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz tsivilizatsiyasining Sharq tsivilizatsiyasi quchog'ida voyaga etgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi tsivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida «Eng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz. Ko'hna Sharq tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari boshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi.

2. Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yo'nalishda

borgan. Birinchi yo'nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, riyoziyot fanlari rivoji bilan bog'liq ekanini, ikkinchi yo'nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o'rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu – o'sha davr uchun tabiiy hol edi, ya'ni u – davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo'lsa-da, aksariyat hodisalarining falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo'lgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko'nikmasi hali shakllanib ulgurmagani o'sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo'q edi. Bu – o'sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat», «Arfist qo'shig'i», «O'z hayotidan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbat» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo'lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni, o'sha davrdagi odamlarga xos tuyg'ular bayon qilingan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat ediki, ularda, bir tomondan, xudolarga ishonch, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivoyatlar tarzida bo'lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha tsivilizatsiyalarga xos deyish mumkin.

Yahudiylik dini. O'sha davrda eng qadimgi Sharq xalqlaridan biri yahudiylarning milliy mafkurasi — iudaviylik shakllana boshlagan. Bu din, asosan, ana shu millatga mansub kishilar o'rtasida yoyilgan bo'lib, eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar boshida Falastinda vujudga kelgan. «Zabur» va «Tavrot» kabi muqaddas kitoblar bu dinning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Yahudiylik yahudiy va Falastin xalqlarining ba'zi e'tiqodlarini o'zida aks ettirgan dindir. Eramizdan avvalgi X-VI asrlarda yahudiylik monoteistik (yakka xudolikka ishonish) dinga aylanib, olamni yaratuvchi Yahve xudosi e'tiqod qilish uning asosiy tamoyili hisoblangan. Bu dinda Muso alayhissalom — payg'ambar, «Tavrot» xudo tomonidan unga yuborilgan ilohiy kitob ekani, qiyomat kunida barcha birdek tirilishi, jannat va do'zaxning mavjudligi, gunohkorlar jazosiz qolmasligi, savobli ishlarni qilganlar u dunyoda rag'batlantirilishlari haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yahudiylik Sharq xalqlaridan biri — yahudiylarning milliy dini bo'lgani bois, ana shu qit'ada yashovchi boshqa xalqlarga xos bo'lgan ko'pgina diniy qarashlari bilan ham bir qadar mushtarakliklarga ega. Chunonchi, uning zardo'shtiylik bilan o'xshash jihatlari ham yo'q emas. Masalan, «Tavrot» va «Avesto»dagi aksariyat qonunlar, diniy-falsafiy kategoriyalar o'rtasida yaqinlik ko'zga tashlanadi. Umuman olganda esa, barcha dinlar orasida ilohiy qadriyatlarni mutloqlashtirish, xudo g'oyasini muqaddaslashtirish, bu dunyo va u dunyo bilan bog'liq qarashlarga ko'proq e'tibor berish kabi o'xshash jihatlari uchraydi.

Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar yozma manba — «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxitalar) shaklida etib kelgan. Bular — «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adxarveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini

tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarini astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankhya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unsurning turli teng miqdorda (proportsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'lga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. u hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi — taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. u, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalariga ham ravo ko'rishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Tszidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Tsi», ya'ni beshta unsur — olov, suv, havo, er va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-

Tszining ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarimas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni in va Yan' orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbaidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Tszi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Tszi. Buni ekologik falokatlar avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish — qadimgi xalqlarga xos bo'lgan falsafaning bosh g'oyalari. O'sha, hamma narsa oddiy tushunilgan qadim zamonlardayoq buyuk aql egalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chaqirgani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan darajaga etmay turib, u boradagi muammolarning oldini olish to'g'risida juda ibratli o'gitlar bergan. Qadimgi dunyo falsafasini chuqurroq o'rgangan odam o'sha davr mutafakkirlari hozirgi zamon tsivilizatsiyasi qarshisida turgan barcha umumbashariy muammolardan odamlarni ogohlantirganligining guvohi bo'lishi mumkin. Gap bu ogohlantirishni eshitish, ularni o'zlashtirish va hayotning qonuniga aylantirishda edi, xolos. Afsuski, odamzod nasli o'zi yaratgan buyuk daholarning barcha o'gitlariga hamma vaqt ham quloq solavermagan. Ilm va fanda necha-necha kashfiyotlar qilingan, ammo ulardan o'z vaqtida kerakli tarzda foydalanilmaganiga ko'hna tarix guvoh. Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarni buzmaslik to'g'risidagi da'vatlari eskirgani yo'q. Yillar, asrlar o'tishi ularning qadrini tushirmaydi. Zero, bu ta'limotlar insoniyatning o'tda yonmas va suvda cho'kmas umuminsoniy qadriyatlariga to'g'risidadir.

3. Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy — ilmiy, ijtimoiy — ahloqiy ta'limotlari o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimendardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining etuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yotib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazzimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimend davom ettirdi. Anaksimend (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuqlashishidan suv, er, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat — abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri. Geraklitning

fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddadir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha erda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI — V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. u ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan. uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat - o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa erdan unib chiqadi va pirovardida yana erga qaytadi». Biz hammamiz erdan tug'ilganmiz va erga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504 yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida **sofistlar falsafasi** katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan.

Uning hayoti fojiali tugagani to'g'risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O'z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidalariga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo'yilgan. Garchand qutilish imkoni bo'lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o'lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibratlidir. Holbuki, Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni noto'g'ri va adolatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, shunday bo'lsa-da, ularga bo'ysungan. Shu ma'noda, Suqrot o'zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o'zini uning ixtiyoriga topshirgan. «Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'yda, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofant «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o'z ustozini haqida iliq so'zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta'riflagan. Yoshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo'yish — tuhmat ekanini alohida ta'kidlagan. Aflotun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand, deya ta'riflagan, uning falsafiy qarashlarini o'z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutganli bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi **Aflotun** (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini birdan-bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan.

Aflotun «**G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi**» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi.

Aflotunning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning dunyoqarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi — ontologiya va gnoseologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siyosiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Aflotun ijtimoiy-siyosiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» va «Kritiy» nomli asarlar yozib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti — g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotunning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Aflotunning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384 — 322 yillar) (asli — Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. O'n etti yoshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiya o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotunning o'limiga qadar) shu erda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrga 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin, keyinchalik dunyoni zabt etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Filippning o'limidan keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha erda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar yozib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qartilgan. Mantiqqa oid asarlarining barchasini «Organon» («Qurol») nomli asariga jamlagan. Faylasuf barcha fanlarni ikki turga — nazariy va amaliy fanlarga bo'lgan. Amaliy fanlar

shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror bir foydali ishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. U nazariy fanlarni uch qismga - falsafa (metafizika), matematika va fizikaga ajratgan.

Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular — moddiy sabab, ya'ni modda (materiya); shakliy sabab yoki shakl; yaratuvchi sabab; pirovard sabab yoki maqsad sabablardir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan. Harakat olam singari abadiydir. Ayni paytda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Arastuning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti «Davlat», «Siyosat» kabi asarlarida bayon etilgan. Uning fikricha, davlat boshqaruvi jamiyatning erkin va farovon hayoti uchun xizmat qilishi lozim. Baxtli hayot mazmuni faqat moddiy mo'l-ko'lchilik bilan belgilanmaydi, balki seroblik ma'naviy boylik bilan uyg'un bo'lgandagina, jamiyat baxtli hayot kechiradi. Davlatning boyligi, asosan, o'rtacha mulkka ega bo'lgan fuqarolarning mehnati bilan ta'minlanadi. Arastuning bu boradagi qarashlari bugungi kunda Vatanimizda kichik va o'rta biznes sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar mohiyatiga juda hamohangdir.

Yunon falsafasida **Demokrit**ning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat — buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Me'yor, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishadadir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlash; yaxshi so'zlash; yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, diyonatga da'vat etadi.

Epikur (341-270 yillar) — qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr frantsuz ma'rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta'limotini rimlik **Lukretsiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkiga — oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukretsiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular — narsaning og'irlikka ega bo'lgani uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'ish harakati, narsaga

turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukretsiyning nazariyasi mohiyatan sodda bo'lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Biz xorijiy Sharq va antik dunyo falsafasi haqida juda qisqa ma'lumot berdik. Ularga mansub ayrim oqim va mashhur faylasuflar ta'limoti to'g'risida nihoyatda muxtasar fikr yuritdik. Aslida bu mavzular o'ta keng qamrovli bo'lib, ularning mohiyatiga etib borish uchun ko'p va xo'b o'qib-o'rganishga to'g'ri keladi. Ishonchimiz komilki, siz, aziz talabalar ularni mustaqil o'qib-o'rganish jarayonida to'liq o'zlashtirib olasiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, biz falsafa tarixini faqat mashhur nomlar va ular yaratgan ta'limotlarni bilib olish uchungina o'rganmaymiz, balki insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk faylasuflarning ibratli hayoti, o'lmas g'oyalari mohiyatini chuqur anglash, ularga tayanib, bugungi kun falsafiy muammolarining qulay echimini topish, shu tariqa Vatanimiz va xalqimizga halol xizmat qilish, qolaversa, buyuk ajdodlarimizga, elu yurtimizga munosib farzandlar bo'lish uchun ham puxta va chuqur o'rganamiz.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi Misr falsafasiga xos xususiyatlarni sanab bering.
2. «Veda»lar nima va qachon paydo bo'lgan?
3. Buddaviylik ta'limotining mohiyati nimadan iborat?
5. Konfutsiylik nima?
6. Lao Tsz'i falsafasida Dao qonuni nimani anglatadi?
7. Milet falsafiy maktabi to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Geraklitning «Oqar suvga ikki marta tushib bo'lmaydi» degan hikmatli iborasi falsafiy mohiyatini tushuntirib bering.
9. Suqrot qanday faylasuf bo'lgan?
10. Aflotunning g'oyalari dunyosi haqidagi ta'limotining mohiyati nimadan iborat?
11. Arastu haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. F. Boynazarovning «Qadimgi dunyo tarixi» kitobini o'qib konspekt tayyorlash/
2. «Sharq madaniyati va G'arb madaniyati: o'zaro aloqadorligi va farqlari» mavzusida darsning debat usuliga tayyorlanish.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. «Istiqlol va ma'naviyat». T. «O'zbekiston», 1994.
2. Karimov I. «Ma'naviy yuksalish yo'lida». T. «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I. «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman». «Fidokor» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.
4. Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. T., 2006.
5. Boynazarov F. Istoriya drevnego mira. T., 2008.
6. Yo'ldoshev S., R. Karimov. Qadimgi va O'rta asr G'arbiy Evropa falsafasi. T., 2003.
7. «Osнови filosofii». — T.: «O'zbekiston», 1999.
8. «Xristomatiya po filosofii». — M., 1997.
9. Yo'ldoshev S. «Antik falsafa». — T., 1999.

QADIMGI O'RTA OSIYO XALQLARI MA'NAVIYATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

REJA:

1. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarda ma'naviyat masalalari.
2. «Avesto»da inson va uning ma'naviyati masalalari.
3. Moniylik va mazdakizm ta'limotlarida ma'naviyat masalalari

Tayanch so'z va iboralar: Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti, yozma yodgorliklar, zardushtiylik, "Avesto", Axuramazda, Axriman, moniylik, mazdakiylik...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyatining shakllanishi jarayonlarini yoritib berish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarda Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyati Qadimgi Sharq xalqlari ma'naviyatining bir bo'lagi sifatida Qadimgi G'arb falsafasi bilan o'zaro aloqadorlik va farqli taraflari haqida tushuncha hosil qilish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga milliy o'zlikni anglash, uni mustahkamlash va millatlararo totuvlikni ta'minlash shaxs ma'naviyati belgilari sifatida davlatimiz aholisida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

1. O'rta Osiyo xalqlari milliy ma'naviyati takomil bosqichlari bu o'lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu sahnda yuz beruvchi hodisa sanaladi. Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etib, o'z ichiga bir necha ming yilliklarni qamrab oladi. Ana shu murakkab va ko'p ming yillik ma'naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo'g'inlarni ajratib olishimiz lozim. Busiz milliy ma'naviyatimiz rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Ko'pgina tadqiqotchilarning, bu boradagi fikrini o'rganib milliy ma'naviyatimizning necha ming yillik tarixini uch yirik davrga (balkim to'rt davrga) ajratib ko'zdan kechirishni ko'p jihatdan maqbul bildik:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti.

2. Islom mintqa madaniyati takomilida milliy ma'naviyatimizning o'rni va mavqei.

Z. Yangi davr jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz takomili masalalari. (Biz nazarda tutgan to'rtinchi davrga balkim Temur va Temuriylar davri ma'naviyatini alohida davr sifatida izohlash maqsadga muvofiqroq bo'larmikin).

Bu davrlar o'z ichiga olgan tarixiy davrlar muddatiga ko'ra aslo teng emas. Birinchi davr bir necha ming yillarni qamrab olsa, ikkinchi davr XI-XI asrni o'z ichiga oladi. Uchinchi davr esa bizning o'lkamiz — Turkiston uchun deyarli 100-150 yilni tashkil etadi.

Mazkur mavzuda Islomgacha ma'naviyatimiz takomili, mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritimiz. Islomgacha bo'lgan milliy ma'naviyatimiz va uning takomillashishi haqidagi eng muhim manbalar guruhini to'rtga bo'lish mumkin: 1. Zardushtiylikning «Avesto» kitobi va turkiy bitiklar (yozuvlar). 2. Qadim Shumer, Bobil, Ashshur, qadim Misr, Yunon, Hind, Xitoy manbalari va Eron shahanshohlaridan qolgan toshbitiklar. 3. Arxeologik yodgorliklar — moddiy ashyolar va turli inshootlar. 4. Xalq og'zaki va yozma adabiyot namunalari, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar va boshqalar.

Bizning eng qadimiy ajdodlarimiz ma'naviyat va ma'rifati haqidagi ma'lumotlar asrlardan asrlarga o'tib, hozirgacha saqlanib qolgan xalq og'zaki ijodi namunalari: mif, afsonalar va qadimiy yozuvlarda saqlanib kelayotir.

Xalqlarimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo'lgan bunday xalq og'zaki ijodi namunalari milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir. O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy mif va afsonalari turli mavzularda bo'lgan. Chunonchi kosmogonik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo'lib, ularda yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlik, yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yilgan. Shu asosda baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflar yuzaga kelgan. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurash mifologik obrazlar Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Elikbek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan. Bular haqidagi miflar zardushtiylikning «Avesto» kitobiga ham kirgan.

Mitra — quyosh xudosi. U kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxsh etadi. Shu bilan birga u yaxshi qurollangan bo'lib, dushmanlarga qarshi dahshat soladi, kishilarni turli balo va ofatdan qutqaradi. Mitra bitmas-tuganmas kuchga ega bo'lgan pahlavon sifatida tasvirlangan. U dushmanga qarshi shafqatsizlik bilan jang qiladi va uni mahv etadi. Mitra—o'tda kuymas, suvda cho'kmas, o'q o'tmas qahramon.

Kayumars haqidagi mif ham «Avesto»ga kirgan. Mifologiyaga ko'ra, Kayumars yer yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'yo u Axura Mazda (Xurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujudan: Hukiz va odamdan tashkil topgan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo'lgan Axriman Kayumarsni o'ldiradi. Kayumars tanasining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi, tananing odam qismidan esa erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga kelgan deb tasvirlanadi.

Yima (Jamshid) haqidagi mifda kishilar uchun najotkor hukmron obrazi tasvirlangan.

Shunday qilib, yuqoridagi kabi xalq og'zaki ijodi — miflarda xalq najotkori va xaloskori tasvirlanadi, kishilarning ma'naviy g'alabasi va o'z kelajagiga ishonchi tasvirlangan.

Xalq og'zaki ijodida mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obrazi ham yuzaga kelgan. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko'rsatadilar. Chunonchi, Gershasp va Elikbek xaqidagi afsonalarda ajdar va jinlarni yenggan, o'limdan qo'rqmas, mard, bahodir, kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramonlar obrazlari tasvirlangan.

Qadim O'rta Osiyo aholisi yaratgan og'zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi muhim o'rin tutadi. Ularda xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi asosiy o'rinni egallagan. Chunonchi, To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi xalq og'zaki eposlarida vatanparvar va fidokor bahodirlarning monumental obrazlari yaratilgan.

«To'maris» eposida O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga, xususan eramizdan avvalgi VI asrda bu o'lkaga bostirib kirgan eron ahmoniylari shohi Kirga qarshi massaget qabilalarining qahramonona kurashi aks etgan. Kir qo'shini tor-mor etilib, uning o'zi e.a. 529 yilda jang maydonida o'ldiriladi, kallasi tanasidan judo etilib, qon bilan to'ldirilgan meshga solinadi.

«Shiroq» eposi ham O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, vatan va o'z xalqi baxti-saodati yo'lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma'naviylik sak qabilasining cho'poni Shiroq timsolida gavdalangan.

Yuqoridagi har ikkala xalq og'zaki ijodi namunalari zaminida haqiqiy tarixiy faktlar yotadi.

To'maris va Shiroq xalq qahramonlari bo'lib, o'z xalqi, Vatani uchun jonini ham ayamaydigan buyuk va betimsol mardlik va jasorat namunasi sanaladi. Ularga ham qoyil qolib havas qilamiz.

Qadimiy turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklardan bizgacha O'rxun-Enisey va uyg'ur tilidagi yodgorliklar saqlanib qolgan. O'rxun-Enisey yodgorliklari U-USh asrlarga mansub bo'lib, ulardan Kul-Tagin, Bilka-xoon, Tunyukuk qabr toshlariga o'yib yozilgan matnlar ayniqsa ahamiyatlidir. Bu yozuvlarni turkiy-run yozuvi ham deb yuritiladi. Run yozuvi — «yashirin»,

«sirli» yozuv demakdir. Chunki ularni ancha vaqtgacha o'qishning iloji bo'lmagan.

Kul-Tagin Bilka-xoon (ulug'hoqon demakdir)ning ukasi bo'lib 732 yili vafot etgan. U urushlarda zo'r qahramonliklar ko'rsagan. Kul-Tagin qabrtoshida Bilka-xoonning tilidan aytilgan judolik qayg'usi marsiyasi badiiy til vositasida ifodalangan. U o'z ukasining vafotidan juda qayg'uga tushadi. Chunonchi, agar Kul-Tagin bo'lmasa edi, hammangiz halok bo'lur edinglar. Mening inim Kul-Tagin o'ldi, men qattiq qayg'urdim, ko'rar ko'zlarim ojiz bo'ldi, aql-fahmim o'tmas bo'lib qoldi, o'zim qayg'urdim. Qismatni ko'k samo (xudo) taqsim qiladi, odam bolasi o'lish uchun tug'ilgan.... kabi so'zlar yozilgan.

Kul-Tagin qabr toshi yozuvi turk hoqonligi davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, qabila va xalqlarningurf-odatlarini, tili, ma'naviyati va mafkurasi bilan tanishtiruvchi manbadir.

Markaziy Osiyoda ma'naviyat bilan birga ma'rifat ham rivojlangan. Ma'rifat rivojining isboti sifatida bu o'lka xalqlarining yozuvini ko'rsatish mumkin. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy, grek yozuvlari, forsiy mixxat mavjud bo'lgan. Keyinroq avesto, xorazm, sug'd, kushon, run (O'rxun-Enisey), uyg'ur yozuvi kelib chiqqan.

Qadim O'rta Osiyoda astronomiya, geometriya, geodeziya, matematika, fizika, medisina fanlari rivoj topgan. Bizga qadar saqlanib qolgan sug'd kalendari va Beruniy asarlaridagi ma'lumotlar bu o'lkada, ayniqsa, astronomiya fani rivojlanganidan darak beradi.

O'rta Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardayoq sug'orish inshootlari qurganlar, kanallar ochganlar, chig'ir va koriz usuli bilan suvsiz yerlarga suv chiqarganlar, bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanganlar. Albatta, bular kishilardan ma'lum tajriba va bilimni talab etgan.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanzur yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, asori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga asoslanib, O'rta Osiyo qadimiy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lgan degan xulosa chiqara olamiz. Biz yosh avlod bu bilan faxrlanishimiz va ularni o'z ma'naviyatimizning asosiy qismiga aylantirmog'imiz lozim bo'ladi.

2. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Zardusht eramizdan avvalgi 660 yilda Xorazmda dunyoga kelgan. Otasi savodli bo'lib, karomatgo'y bo'lgan ekan. Zardusht 20 yoshidan boshlab yakka Xudolikni targ'ib qilgan. 28 yoshida shuhrat qozonadi, lekin uning targ'ibotlari mahalliy hukmdorlarga yoqmaydi. Uni osishga hukm etadilar. Zardusht o'zi bilan 300 ga yaqin safdoshlarini olib hozirgi Afg'oniston tomonga yo'l oladi va o'z g'oyalarini targ'ib etadi. U 77 yil umr ko'rgan.

Zardushtiylikning paydo bo'lishi eramizdan oldingi X asrga to'g'ri keladi. Uning muqaddas kitobi «Avesto» ham birdan yuzaga kelgan emas. U bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Zardusht «Avesto»ning qadimiy nusxalarini o'rganib bir kitob holiga keltirgan. U 30 ta kohin bilan uch yil davomida «Avesto»ning bilimlarini yig'ib, bir tizimga solgan va 12 ming ho'kiz terisiga zarhal harflar bilan yozdirgan.

Avesto quyidagi besh qismdan iborat:

1. Vendidod — 22 bobdan iborat bo'lib, unda Axura Mazda Yerdagi barcha mavjudotning yaratuvchisi ekanligi bayon etiladi.

2. Visparad — 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlaridan tashkil topgan. Zulmat kuchlariga qarshi kuchlar kuylanadi.

3. Yasna — 72 bobdan iborat bo'lib, qurbonlik vaqtida, marosimda aytiladigan qo'shiqlardan tashkil topgan.

4. Yasht — 22 qo'shiqdan iborat bo'lib, zardushtiylik ma'budalari madhi kuylangan.

5. Xo'rda Avesto — Kichik Avesto — quyosh, oy va boshqa xudo hamda ma'budalar sharafiga aytilgan kichik ibodat matnlaridan iborat.

Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto» haqida qisqa ma'lumot berdik. Bu kitobning ko'p qismi Iskandar Zulqarnayn va arablar istilosi davrida yo'qolib ketgan. Bizgacha

yetib kelgan nusxasi 1374 yilda ko'chirilgan bo'lib, hozirda Kopengagendagi kutubxonada saqlanib kelinmoqda.

Zardushtning o'zi tarixiy shaxs ekanligi ham munozarali, bahsli masala. Biz ayrim mualliflar fikriga qo'shilib, unga tarixiy shaxs sifatida yondashdik.

Zardusht sariq tuya mingan, degan ma'noni anglatadi. «Avesto ta'limotiga ko'ra olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan: jismoniy narsalarda yorug'lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda o'z ifodasini topadi. Yorug'lik, ezgulik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qilib, ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axrimon unga qarshi kurashib, odamlarni yomon ish va yo'llarga boshlayveradi. Imon-e'tiqodli odam albatta, ezgulik tarafida turadi. Bu kurashda yorug'likning zulmat, ezgulikning yomonlik ustidan g'alabasiga ishonch bildiriladi.

Endi zardushtiylikda va uning muqaddas kitobi «Avesto»da ma'naviyat va ma'rifat masalalari va ularning bizning bugungi kun uchun ahamiyati haqida fikr yuritimiz.

Axura Mazda odamlarni bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, hasadgo'ylik, kalondimog'lik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan holi bo'lish — imonlilik alomatlarini ekanligi aytiladi. Imonli odam o'g'irlik va talonchilikdan, begonalarning molu-dunyosiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga xiyonat qilish, ya'ni o'z imoniga xilof ishlardan o'zini saqlay biladigan komil insondir. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring, ya'ni avval ma'naviy dunyoingiz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi, deyiladi «Avesto»da.

«Avesto»da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. «Avesto»da: «Don ekan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi...», deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish — yerdagi yovuzlikni yo'qotishdir, deb qaraladi. «G'alla yerdan unib chiqqanda, - deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi...» deb mehnat ulug'lanadi.

«Avesto»da inson axloq-odobi, ma'naviyati quyidagi uchlikda: Gumata — yaxshi fikr, Gugta — yaxshi so'z, Gvarshta — yaxshi ishda ifodalanadi. «Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman», — deb ta'kidlaydi Axura Mazda.

Yaxshi fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

Yaxshi so'zlar deganda esa o'z va'dasiga rioya qilish, so'zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo'lishga, qarzini o'z vaqtida to'lash, o'g'irlik va talonchilik qilmaslik, buzuklikdan o'zini tiyish va hokazolar tushunilgan.

Yaxshi ishlar deganda insonning o'z xatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so'zlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yo'l-yo'riqlarga og'ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

«Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug', aka-ukaning quda-anda bo'lishi qoralangan.

Hozirgi medisina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog'lom, to'la-to'kis bo'lib tug'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini to'liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida ma'naviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yo'l bermasligi kerak.

Ko'rinadiki, O'rta Osiyoda keng tarqalgan qadimiy Zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga katga ahamiyat berilgan.

Insonning jismoniy va ma'naviy pokligi zardushtiylik axloqining eng qadimiy

talablaridandir. Oila va nikoh yaratguvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta'limotidan ko'rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo'l qo'ymaganlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo'lishi kerakligi, u yerga mevali daraxt o'tqazish, o'stirish mumkin emasligi, archa, qayrag'och kabi mevasiz daraxt o'stirish kerakligi ta'kidlanadi. «Avesto»da aholining ko'payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog'lab yurish buyurilgan.

«Avesto»da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi Ilon va jom berilgan. Demak, tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma'naviyatimiz qadimiyligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. «Avesto»da ma'rifatga, ilm va hunarni boshqalarga o'rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

3. Markaziy Osiyoda quldorlik jamiyati eramizning II-III asrlarga kelib inqirozga yuz tutdi va o'z o'rnini feodal munosabatlariga bo'shatib bera boshladi. Bu holat zardushtiylik ichida yangi oqim Moniylik ta'limotining yuzaga kelishi va kuchayishiga olib keladi. Ushbu oqimning asoschisi Moniy (216-276 y.) bo'lib, u tarixiy shaxsdir. Uning ta'limoti hukmron tabaqalar manfaatiga zid bo'lgani uchun 276 yilda vahshiylarcha o'ldirildi. Moniy boy adabiy meros yaratgan bo'lsa ham, lekin uning ba'zi asarlaridan parchalargina bizgacha yetib kelgan, xolos. Uning ma'naviy-axloqiy qarashlari «Sir ul asror» (Siru asror kitobi), «Kitob-ul-xudo-vost-tadbir» (Rahbarlik va boshqaruv kitobi), «Shaburkan» va boshqalarda bayon etilgan.

Moniy ta'limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta'limotiga asoslangan bo'lib, keng xalq ommasining manfaatiga mos kelar edi. Moniylik ta'limotida dunyo — ziyo (yorug'lik) va zulmat (qorong'ulik)ning abadiy kurash maydonidan iborat, mana shu kurash maydonida insonning asosiy vazifasi yovuzlikni yo'q qilish uchun yaxshilik, ezgulikka ko'maklashishdan iborat degan ma'naviy-axloqiy ta'limot ilgari suriladi.

Moniy ta'limotiga ko'ra, inson sof musaffolikka, o'z gunohlaridan forig' bo'lishga faqat tarkidunyo qilib hayot kechirishi orqaligina erishishi mumkin, deb qaraladi. Moniylik axloqi dindorlardan imkoni boricha kam ovqat yeyishni, ro'za tutishni (demak, ro'za tutish odati islomdan avval ham bo'lgan), o'z turmushi, hayoti uchun kerakligidan ortiqcha mol-mulkka, boylikka yo'l qo'ymaslikni, mo'tadil, o'rtacha, dabdabasiz hayot kechirishni targ'ib etadi. Moniy o'z muridlari, izdoshlarini dunyoviy ishlarda «surbet» bo'lmaslikka va dunyoda ko'p narsalarga intilmaslikka da'vat qiladi. «Zero o'limdan keyin hech kimsada ro'zg'or asboblari bilan hovli xam, uy ham qolmaydi». Boshqacha aytganda, inson hayoti davomida orttirgan boyliklarini o'zi bilan olib keta olmaydi, ularning hammasi undan keyin qolib ketadi. Moniy aytadi: «Men o'z umrimda ko'p hokimlarni ko'rdim, ular dunyoda axloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo, oxirida g'am-alamlarga, tubanlikka duchor bo'ldilar». Demak, Moniyning bu so'zlaridan biz ham ibrat olishimiz foydadan holi emas.

Eramizning V asr oxiri VI asr boshlarida Eronda «mazdakizm» atalgan boshqa diniy-falsafiy ta'limot yuzaga kelib, u O'rta Osiyoda ham keng yoyildi. Mazdakizm feodal munosabatlarning rivoji va u bilan bog'liq holda xalq ahvolining og'irlashuvi va ikki o'rtada ziddiyatlar va kurashning kuchayishi oqibatida yuzaga kelgan.

Mazdakizmning Moniylik ta'limoti bilan ko'p o'xshash tomonlari bor. U Moniylik ta'limotini to'ldirib, uning zohidlik — noumidlik g'oyalari dunyoga umid bilan qarash g'oyalari almashtiradi.

Mazdak Eronning Nishopur shahrida tug'ilgan. Dehqonlar qo'zg'oloniga yo'l boshchilik qilganligi uchun 529 yilda Anushurvon tomonidan qatl etilgan. Mazdak feodal mol-mulkini umumiy lashtirishni, feodallar hukmronligini yo'qotishni talab etadi.

Moniylikdagi kabi mazdakizm ham dunyoni tushunish negizida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat kurashi yotadi deb qaraladi. Bu kurashda

yaxshilik yomonlik ustidan, yorug‘lik zulmat ustidan g‘alaba qiladi, deb ishonch bildiriladi. Mazdakning aytishicha, yomonlik va zulmat kuchlari hukmronlik qilar ekan, kishilar ularga nisbatan befarq bo‘lishlari kerak emas, balki yaxshilik kuchlariga yordam berishlari kerak.

Mazdakning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tengsizlik kishilar o‘rtasida ziqnalik, o‘g‘rilik, yomonlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman falokat va baxtsizliklar kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Shu boisdan bunday yovuzliklarni keltirib chiqaruvchi asosning o‘zini tugatish kerak, deb hisoblaydi. O‘lloh hammaga mol mulkni teng bo‘lib bergan, ammo, boylar xudbinlik yo‘llariga o‘tib (o‘zim bo‘lay), barcha boylarni o‘ziniki qilib olish yo‘liga o‘tgan. Kambag‘allar ham mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega, shuning uchun boy-badavlat kishilar mol-mulkining bir qismini ular o‘rtasida taqsimlab berish odilona ish bo‘ladi degan g‘oya ilgari suriladi. Albatga, Mazdakning bunday qarashlari hukmron tabaqa manfaatlariga zid edi. Mana shuning uchun ham Mazdak va uning tarafdorlari ta‘qib ostiga olindi va ular shafqatsizlarcha jazolandilar.

Mazdakizm ma‘naviy-axloqiy ta‘limotida ham xuddi Zardushtiylik ta‘limotidagi kabi hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish, urish man etiladi.

Xulosa shuki, Moniylik va mazdakizm Markaziy Osiyo xalqlari ma‘naviy yuksalishida, ayniqsa, ularning adolatsizlik, zulm, zo‘rluk, shafqatsizlikka qarshi kurashiga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘rta Osiyo xalqlarining qanday afsona, rivoyat va dostonlarini bilasiz? Ulardagi ma‘naviy jihatlarni izohlang.

2. O‘rta Osiyo xalqlarining vatanparvarlik mavzuidagi qanday xalq og‘zaki ijodi namunalarini bilasiz?

3. «Avesto»da inson axloqi, odobi, ma‘naviyatini ifodalovchi tayanch g‘oyalarni izohlang.

4. «Avesto»da tabiatga, hayvonlarga munosabat qanday bayon kilingan?

5. «Avesto»da sog‘lom avlod masalalari qanday ko‘rib chiqilgan?

6. Moniy va Mazdak ta‘limotlaridagi ma‘naviyat masalalarini izohlang.

Mustaqil ta‘lim uchun vazifalar:

1. Institut kutubxonasida mavjud M.Ishoqovning “Avesto: Yasht kitobi” tarjimasini o‘qib, undagi ma‘naviy jihatlarni izohlash.

2. O‘rta Osiyo xalqlarini barcha afsona, rivoyat va dostonlarini o‘qib, konspekt qilish va shu mavzular asosida press-konferensiya usulidagi seminarga tayyorlanish.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Tarixiy hotirasiz kelajak yo‘q. T.: “O‘zbekiston”, 1998.

2. Otamuratov S., Husanov S. Ma‘naviyat asoslari./O‘quv qo‘llanma. T., 2002.

3. Hamdamova M. Ma‘naviyat asoslari. T., 2007.

4. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001.

5. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. T., 2006.

6. Hamidov H. “Avesto” fayzlari. T., 2001.

7. Avesto: Yasht kitobi./ Ishoqov M. tarjimasini. T., 2001.

8. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. M.M. Hayrullaev tahriri ostida. T., 1995.

9. Imomnazarov M. Milliy ma‘naviyatimiz asoslari. T., 2006.

JAHON DINLARIDA MA'NAVIYAT VA SHAXS MA'NAVIYATI QIYOFASI TALQINI

REJA:

1. Buddaviylik dinining qadimgi O'rta Osiyo hududida tarqalishi va uning O'zbekistondagi ma'naviy-madaniy yodgorliklari.
2. Xristian dinining ma'naviy asoslari.
3. Islom dinining ma'naviy asoslari va boshqa dinlar bilan o'zaro ma'naviy munosabatlari.

Tayanch so'z va iboralar: buddaviylik, xristianlik, islom, "to'rt haqiqat", meditatsiya, provaslaviya, katolitizm, arkon, "Qur'oni Karim", "Injil", hadis...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarda jahon dinlarida ma'naviyat va shaxs ma'naviyati qiyofasi haqida tushuncha hosil qilish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarga jahon dinlarining o'zaro ma'naviy bir-biri bilan aloqadorlik va farqli tomonlarini izohlab berish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga buddaviylik, xristianlik va islom dinlaridagi axloqiy, ma'naviy jihatlari bilan tanishtirib ularning boy ma'naviy, falsafiy qadriyatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirish.

1. Buddaviylik – uchta jahon dinidan eng qadimgisi. Xristianlik undan besh asr, islom esa rosa o'n ikki asr yoshroqdir. Budda diniga amal qiluvchilarning asosiy ko'pchiligi Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyoda: Hindiston, Shri Lanka, Nepal, Butan, Xitoy, shuningdek, Singapur (Malayziyaning xitoy aholisi), Mo'g'iliston, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kambodja, Myanma, Tailand va Laosda yashaydi. Rossiyada (MDHda) budda diniga an'anaviy ravishda Buryatiya, Qalmig'iston, Tuva aholisi e'tiqod qiladi. Keyingi yillarda budda jamoalari Moskvada, Sank-Peterburgda paydo bo'ldi. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida buddaviylik muxlislari Yevropa mamlakatlarida va AQShda paydo bo'lgan: bugungi kunda u yerda Sharqda mavjud bo'lgan qaysidir darajada nufuzga ega deyarli barcha yo'nalishlar va maktablarning vakillari bor. Jahondagi budda diniga e'tiqod qiluvchilarning umumiy sonini aniqlash qiyin. Haqiqatga eng yaqin taxminlarga ko'ra aytish mumkinki, bugungi kunda dunyoda 700 millionga yaqin kishi buddaviylikka amal qiladi hamda rohib va rohibalar soni salkam 1mln. kishini tashkil etadi.

Buddaviylik bundan ikki yarim ming yildan avvalroq Hindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida paydo bo'lib, ko'lamdorligi va rang-barangligi jihatidan noyob diniy adabiyotlarni va ko'plab diniy qonun-qoidalarni vujudga keltirdi.

Buddaviylik asoschisi – haqiqatan mavjud bo'lgan tarixiy shaxs. Har holda ana shu din tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlarning ko'pchiligi bizning kunlarga saqlanib qolgan yozma manbalar asosida shunday fikrga kelganlar. Bu matnlar va ularga asoslangan ilmiy tadqiqotlar, folklor janrlar va badiiy asarlar buddaviylik asoschisi haqida so'z yuritar ekan, uni har xil nomlar bilan ataydi, chunonchi: Siddixarta – o'z nomi, Gautama, – urug' nomi, Shakyamuni – «shaklar (yoki shakya) qabilasidan chiqqan donishmand», Budda – «nurlangan», Tatxagata – «shunday keluvchi va shunday ketuvchi», Jina – «muzaffar», Bxagavanya – tantana qiluvchi. Eng ko'p tarqalgan nomi – Budda bo'lib, butun dinning nomi shundan boshlangan.

Buddaviylik – bu diniy amaliyot tizimi bo'lib, Hindistonning negizida qayta tug'ilishga bo'lgan ishonch tashkil etadigan qadimgi diniy-falsafiy ta'limotlari asosida yaratilgan ta'limotdir. Buddaviylikning asosiy g'oyasi «hayot azob-uqubatdir» va «najat yo'li bor» degan

fikrlarda o'z mujassamini topgan. Buddaviylikning mohiyati Budda tomonidan o'zining birinchi targ'ibotida (nasihatida) ifodalangan va ta'riflangan *to'rt haqiqat*da bayon qilinadi.

Birinchi haqiqat – «azob-uqubat mavjud». Har qanday tirik mavjudot muqarrar ravishda va albatta uni boshdan kechiradi, shu sababli har qanday hayot azob-uqubatdir. Tug'ilish – azob-uqubat, kasallik – azob-uqubat, o'lim – azob-uqubatdir. Noxushlikka duch kelish – azob-uqubat. Yoqimli narsadan ayrilish – azob-uqubat. Ko'ngil istagan narsaga ega bo'lmaslik ham azob-uqubatga olib boradi.

Ikkinchi haqiqat – «azob-uqubatning sabablari mavjud». Inson moddiy ashyolar va ma'naviy qadriyatlardan foydalanar ekan, ularni haqiqatan mavjud va ular doimiy deb hisoblaydi, shu bois boshqa narsalardan voz kechib, ularga egalik qilishni va ulardan bahra olishni istaydi. Bunday istaklar yashash uchun kurashning uzluksiz zanjiriga olib boradi. Buddaviylikka ko'ra, ana shu istaklarni nodonlik kuchaytiradi va o'z ixtiyoriga erk berishga olib keladi, bu esa karmani hosil qiladi.

Karmani ajr qonuni yoki axloqiy sababiyat qonuni deb atash mumkin bo'lib, unga ko'ra, har kim o'tmishda nima ekan bo'lsa, shuni o'radi, ya'ni qilmishlariga yarasha ajrini topadi. O'z vazifasi jihatidan karma bog'liq holda yaratilish qonuniga mos keladi – har qanday yashab o'tgan kishiga muqarrar ravishda azob-uqubatlari tayyorlab qo'yilgandir va hech kim ulardan qutulib qolishga qodir emas.

Uchinchi haqiqat – «azob-uqubadni to'xtatish mumkin». Ham yaxshi, ham yomon istaklarning batamom barham toptirilishi *nirvana* holatiga mos keladi, bunda odam qayta tug'ilish jarayonidan chiqib ketadi.

To'rtinchi haqiqat azob-uqubadni to'xtatish yo'li ham borligiga ishontiradi. Bu to'g'ri anglash, to'g'ri niyat qilish, to'g'ri so'zlash, to'g'ri xulq-atvorda bo'lish, to'g'ri turmush kechirish, to'g'ri intilish, to'g'ri munosabatda bo'lish, to'g'ri fikru xayol bilan yashashdan iborat «olijanob sakkizlik yo'li»dir. Ana shu yo'ldan borgan inson shu asnoda «Budda yo'liga» o'tadi. Shu yo'ldan borishni istagan odam karma qonuni bilan boshqariladigan qayta tug'ilishlarning uzluksiz jarayoni mavjudligiga, uning uchun bu hayotda yagona najot – bu Budda, uning ta'limoti (dharma) va budda jamoasi (sangha) ekanligiga; buddaviylikning barcha odob-axloq va mushohada qilish qoidalariga og'ishmay rioya etish insonni azob-uqubatlardan xalos bo'lishga olib kelishiga ongli ravishda yoki ko'r-ko'rona to'la ishonishi kerak.

Ichki xotirjamlikka erishish va fikrni jamlash uchun *meditatsiya* amaliyoti xizmat qiladi. Meditatsiya amaliyoti va axloq normalariga rioya etish, Budda aqidalariga ko'ra, e'tiborni mavjudiyatning mohiyati haqida mushohada qilishga qaratish imkonini beradi.

Ijtimoiy dastur insonning ijtimoiy mavqei (jamiyatda tutgan holati) o'tmishdagi va hozirgi vaqtdagi qilmishlariga bog'liqligi to'g'risidagi ta'limotga asoslangan. Buddaviylikning avval davlat, so'ngra esa jahon dinlaridan biriga aylanishiga, bu ta'limotning, asosan, ikkita qoidasi yordam bergan. Birinchidan, ijtimoiy mavqe va boylik «avvalgi hayotlarida» to'plangan fazilatlar ko'pligidan dalolat beradi degan fikr davlatlar hukmdorlariga o'zlarini benuqson odamlar deb e'lon qilish imkoniyatini bergan. Bu ularning hokimiyati cheklanmagan xususiyat kasb etishiga olib borgan. Keyinchalik mazkur g'oya buddaviylikning bekami-ko'st hukmdor – *chakravartina* deb ataluvchi – hukmdorning bekamu-ko'stligi xususidagi konsepsiyada mujassamini topdi va rasmiy tus oldi. Ikkinchidan, qattiq *tabaqaviy-kastaviy* yakkalanish sharoitida buddaviylik ezilgan ommani ijtimoiy-axloqiy xulq-atvor me'yorlariga og'ishmay rioya etish yoki diniy jamoaga kirish yo'li bilan kelgusi hayotda ancha yaxshiroq ahvolda tug'ilishdan umidvor qilgan. Bu buddaviylikning aholi keng qatlamlari orasida ommalashuvi kuchayishiga yordam bergan.

Yer kurrasining turli qismlarida hozirda ham yangi-yangi budda jamoalari paydo bo'lmoqda, ibodatxonalar qurilmoqda. Jahon buddaviylari ikkita xalqaro tashkilotga – Jahon buddaviylar ittifoqi (bosh qarorgohi Bangkokda, Tailand) va Osiyo buddiylar tinchlik uchun konferensiyasi (bosh qarorgohi Ulan-Batorda, Mo'g'iliston)ga birlashganlar.

2. Xristianlik (grekcha so'zdan kelib chiqqan: «Xristos – «muqaddas yog' surilgan shaxs», «masih», xaloskor degani) I asrda Falastinda paydo bo'ldi. Eng avval Falastin va O'rta Yer

dengizi bo'ylarida yashagan yahudiylar orasida tarqalib, dastlabki o'n yilliklardayoq boshqa xalqlar («majusiylar»)dan tobora ko'proq muxlislar orttirdi. V asrgacha xristianlik asosan Rim imperiyasining jug'rofiy hududida, shuningdek uning siyosiy va madaniy ta'siri doirasida (Armaniston, sharqiy Suriya, Habashiston), keyinchalik (asosan birinchi ming yillikning ikkinchi yarmida) german va slavyan xalqlari orasida, keyinroq (XIII-XV asrlarga kelib) boltiq va fin-ugor xalqlari orasida ham tarqaldi. Yangi va Eng yangi davrda xristianlikning Yevropadan tashqarida tarqalishi mustamlakachilik harakatlari va missionerlarning faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Butun dunyoda xristianlikka e'tiqod qiluvchilar soni 1mlrd. kishidan oshadi (jahon aholisining qariyb 28 foizi), bundan 475 mln.ga yaqini Yevropada, 250 mln.ga yaqini Lotin Amerikasida, 155 mln.ga yaqini Shimoliy Amerikada, 100 mln.ga yaqini Osiyoda, 110 mln.ga yaqini Afrikada istiqomat qiladi. Bulardan 660 mln.ga yaqini katoliklar, 300 mln.ga yaqini protestantlar (sektalari bilan birgalikda, ular orasida 42 mln. metodistlar va 37 mln. baptistlar bor), pravoslavlar va Sharq «noxalkidon» diniy e'tiqodlariga ergashuvchilar (monofisitlar, nestorianlar va h.k.) 120 mln. kishiga yaqin¹.

Xristianlik yahudiylikda pishib yetilgan mutlaq barakat va marhamat, mutlaq bilim va mutlaq qudrat egasi bo'lmish yagona Xudo g'oyasini rivojlantirdi. Ya'ni barcha jonzotlar va ashyolarni u yaratgan, hamma narsa ilohiy irodaning moneliksiz mayl-ixtiyori bilan vujudga kelgan.

Xristianlik ta'limotiga ko'ra, inson Xudoga «qiyofadoshlik va o'xshashlikni» ifodalovchi sifatida yaratilgan. Biroq dastlabki odamlar tomonidan sodir etilgan osiylik odamga ilk gunoh tang'asini bosib, insonning xudoga o'xshashligini, ya'ni pokligini barbod qildi. Xristos chormixga tortish azoblarini va o'limni qabul qilib, butun odamzod uchun aziyat chekib, odamlarning «gunohini yuvgan». Shu sababli xristianlik azob-uqubatning, inson o'z istaklari va ehtiroslarini har qanday tarzda cheklashining poklovchilik ahamiyatini ta'kidlaydi: «o'z krestini qabul qilar ekan» inson o'zidagi va atrof muhitdagi yovuzlikni yengishi mumkin. Bu bilan inson xudoning amrini bajo etibgina qolmay, balki uning o'zi ham o'zgaradi va Xudo sari yuksalishga musharraf bo'ladi, unga yaqinroq bo'lib qoladi. Xristian kishining taqdiri, uning Iso o'zini qurbon qilganligini to'g'ri deb hisoblashi – oqlashi ana shundandir.

1054 yilda pravoslav va katolik cherkovlarining bo'linishi yuz berdi.

Pravoslavie – xristianlikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, tarixiy jihatdan uning sharqiy tarmog'i sifatida shakllangan. U asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlarida, Balqonda tarqalgan. Pravoslaviening teologik asoslari Vizantiyada shakllangan bo'lib, bu yerda pravoslavie IV– XI asrlarda hukmron din edi.

Muqaddas kitob (Bibliya) va Muqaddas rivoyat (IV – VIII asrlardagi yettita Dunyo xristianlari yig'inining qarori), shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust singari eng e'tiborli yirik cherkov arboblarning asarlari diniy ta'limotning asosi sifatida e'tirof etilgan. Diniy ta'limotning asosiy qoidalarini shakllantirish cherkovning ana shu rahnamolari zimmasiga tushgan.

Katolisizm xristianlikning ikkinchi yirik yo'nalishidir. «Katolisizm» so'zi umumiy, butun dunyoga oid degan ma'noni anglatadi. Uning ibtidosi, rivoyatga ko'ra Rimdagi, apostol (havoriy) Pyotr birinchi yepiskop bo'lgan, uncha katta bo'lmagan xristian jamoasidan boshlanadi. Xristianlikda katolisizmning ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy qismlari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy tafovutlar kuchaygan va chuqurlashgan paytda, III asrdayoq boshlangan.

Katolisizm xristian dinining yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqidalari va marosimlarini tan oladi, lekin diniy ta'limotda, ibodatda tashkiliy tuzilishda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Butun xristianlikda bo'lgani singari Muqaddas kitob va Muqaddas rivoyat katolik diniy ta'limotining asosi hisoblanadi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli ravishda katolik cherkovi faqat yettita dastlabki Dunyo xristianlari yig'inining emas, balki keyingi barcha yig'inlarning ham qarorlarini, bundan tashqari – papaning maktublari va qarorlarini Muqaddas rivoyat deb hisoblaydi. Katolik cherkovining tashkiliy tuzilishi qat'iy markazlashtirilganligi

¹ M. Malherbe. *Zes religions*. Saind-Amand-Moontrond, 2000, p. 95.

bilan ajralib turadi. Rim papasi – bu cherkovning rahnamosi. U e'tiqod va axloq masalalariga doir qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning irodasi Dunyo xristianlari yig'ini irodasidan yuqoridir.

XVI-XVII asrlardagi Refarmatsiya jarayonlari natijasida *protestant* cherkovlari (lyuteranlik, kalvinizm, anglikanlik va boshqalar) paydo bo'ldi. Ular Shimoliy va Markaziy Yevropa (Buyuk Britaniya, Skandinaviya, Germaniya va boshqa) mamlakatlarida, keyinroq esa Shimoliy Amerika (AQSh, Kanada), Avstraliya va boshqa bir qator mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan.

3. *Islom* – (al-islom – «Allohga bo'ysunmoq» «itokat qilmoq») – jahon dinlaridan biri. Zamonaviy islom – e'tiqod qiluvchilari soni jihatidan ikkinchi (xristianlikdan keyin) jahon dini. Taxminiy hisoblarga ko'ra, yer kurrasida musulmonlarning umumiy soni 1 mlrd. kishiga boradi (ulardan 90 foizga yaqini sunniylar), bundan uchdan ikki qismidan ortig'i Osiyoda (qit'a aholisining 20% dan ziyodi), qariyb 30 foizi Afrikada (qit'a aholisining 49 foizi) yashaydi. Jahondagi musulmon jamoalari bo'lgan 120 tadan ortiq mamlakatdan 35 tasida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil etadi. Osiyo va Afrikadagi 28 ta davlatda islom davlat dini (yoki rasmiy din) deb e'tirof etilgan¹. Ayrim mamlakatlarda «islom» so'zi ularning nomiga kiritilgan: Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Mavritaniya Islom Respublikasi va boshqalar.

Islom ijtimoiy-mafkuraviy hodisa sifatida Arabiston jamiyati taraqqiyotining tarixiy in'ikosi, butun Yaqin Sharq qadimgi zamondan o'rta asrga o'tishi davrida unga xos bo'lgan umumiy jarayonlarning natijalaridan biri bo'ldi. Sof diniy nuqtai nazardan uning paydo bo'lishi o'zidan oldingi dinlar – *xristianlik*, *yahudiylilik* va *zardushtiylikning* ta'siri va rivoj topishi bilan ham, Arabiston aholisi diniy ongining tadrijiy yuksala borishi hamda *sinkretik (qorishiq) yakka xudolikning* arablarga xos shakllari bilan ham bog'liq bo'ldi.

«Al-islom» atamasi Qur'onda «al-imon» (ishonch, e'tiqod) va «ad-din» (diniy majburiyatlar majmui, din) so'zlariga yaqin ma'noda sakkiz marta uchraydi. Ana shu tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni islom ulamolari turlicha izohlaydilar. Sunniylar orasida tarqalgan nuqtai nazarlardan biriga ko'ra, «*ad-din*» tushunchasi beshta arkonning yoki asosiy diniy qoidalarning majmui sifatida «*al-islom*»ni, Allohning va Muhammad payg'ambar aytgan hamma narsaning chinligiga ishonch sifatida «*al-imon*»ni va ma'naviy fazilat sifatida «*al-ehson*»ni o'zida mujassam etadi.

Islom diniy ta'limotining *beshta arkoni* (ustuni) to'g'risidagi tasavvur musulmon jamoasining vujudga kela boshlagan ilk davridayoq tarkib topgan. Bu beshta arkon (arkon shariat al-islom, arkon al-islom, al-arkon al-xamsa) quyidagilardir:

1) *ash-shahoda* (kalimai shahodat) – islomning ikkita asosiy aqidasi, ya'ni Allohning yagonaligiga iqror bo'lish (*at-tauxid*)ni va Muhammadning payg'ambarlik vakolati e'tirof etilishi (*an-nubuvva*)ni o'zida mujassam etgan dinga e'tiqod qilish; 2) *as-salat* (namoz o'qish); 3) *as-saum* (ro'za tutish); 4) *az-zakot* (faqiru bechoralarga berish, Alloh yo'lidagi ishlarga sarflash uchun berilishi shart bo'lgan xayr-ehson); 5) *al-xadjj* (muqaddas joylarga, xususan Makka shahriga ziyoratga borish). Islom diniy ta'limotining beshta arkonidan to'rttasi ma'naviy-axloqiy va marosimga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi hamda shu asnoda islom asoschisining marosimlarga va diniy hayot qoidalariga ko'proq e'tibor qaratganligini aks ettiradi. Bu holat keyinchalik *aqidalariga* qaraganda *huquqning* ustunlik bilan rivojlanishini ta'minladi. Shu bilan birga, ilk islomda aqidalar va odat-taomillar, din va huquq o'rtasida aniq farq bo'lmagan.

«*To'g'ri e'tiqodlilik*» va «*adashganlik*» muammosi musulmon ilohiyotchiligidan bosh muammolaridan biriga aylangan. Turli maktablarga mansub sunniy ilohiyotchilar faqat sunniylar (ahli as-sunna va-l-jama'a) 73 ta islom jamoasi orasida «to'g'ri yo'ldan» borayotgan yagona jamoa sifatida «najot topishi», jannatga tushajagi haqidagi, Muhammad payg'ambarga nisbat berilgan hadisga asoslanib «to'g'ri e'tiqodlilik» tarafdorlari ekanliklarini qat'iyat bilan himoya qilganlar. G'arb va mamlakatimiz islomshunosligida an'anaviy, sunniylik yo'nalishidagi islomga ergashuvchilarni «e'tiqodi mustahkamlar» (ortodokslar) deb, ularning muxoliflarini – «bid'atchilar» (yeretiklar), «mazhabchilar» (sektantlar) deb ataydilar. Lekin xristianlikdagi «ortodoksiya», «yeres», «sektantlik» tushunchalari islomning din sifatidagi mohiyati va o'ziga

¹ Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M., 1991. 109-b.

xosligini ifodalay olmaydi. Islomda xristianlikdagi Dunyo xristianlarining yig'ini singari *aqidalarni qonunlashtirib qo'yadigan institut* (tuzilma) yo'q; islomning teokratik oliy maqsadi davlat bilan bir qatorda diniy institutning (cherkovning) mavjud bo'lishi g'oyasiga zid edi. Islomda *barcha mintaqalarda umumiy e'tirof etilgan diniy maktab* bo'lmagan. Diniy masalalarning turlicha sharhlanishi ehtimoli ana shundandir. Qarama-qarshi nuqtai nazarlarning tarafdorlari ayni birday yengillik bilan Qur'ondan va sunnadan o'z fikrlari foydasiga va o'z muholiflariga qarshi dalillar topganlar.

Islomga tarixiy voqelik sifatida qarashda unga g'oyalar va fikrlar kurashida shakllangan va hozirda ham amal qilib turgan mafkuraviy tizim sifatida yondashish noxolislik va bir tomonlamalikni bartaraf etishda yordam berishi mumkin. Islomdagi ana shu g'oyalar va fikrlar xilma-xilligi, uning yangi g'oyalarni o'zlashtirib olishga va moslanuvchanlikka moyilligini, uning o'zgarib borayotgan dunyo sharoitidagi yashovchanligini ta'minladi.

XIX asr boshlaridan to XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan bir yarim asr islom tadrijiy rivojlanishida muhim burilish bosqichi bo'ldi. Sharq mamlakatlarida ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalardagi o'zgarishlar, yangi sinfning – milliy burjuaziyaning shakllanishi, milliy-ozodlik harakatining avj olishi – bularning hammasi qo'shilib, islomning jamiyatdagi tutgan o'rniga qarashlarda ham, ijtimoiy hayotning yangi voqeliklarini islomning o'zi tomonidan asoslashda ham o'zgarishlarga olib kelmasligi mumkin emasdi.

Islom diniy-falsafiy va huquqiy me'yorlarining XIX asr o'rtalarida boshlangan hamda hozirda ham davom etayotgan yangi tarixiy sharoitga moslashuv jarayonini ko'pgina tadqiqotchilar, garchi u xristian reformatsiyasidan jiddiy farq qilsa ham, «*musulmon reformatsiyasi*» (isloh) atamasi bilan belgilamoqdalar. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish taqozosi musulmon islohiyotchilari va huquqshunoslari oldiga islomning bir qator an'anaviy qoidalarini yangicha mushohada qilish zaruriyatini qo'ydi. Biroq ushbu jarayon juda og'riqli va davomli bo'ldi. Bu, masalan, musulmon mamlakatlarida bank tizimini vujudga keltirish joizligi (yoki gunoh hisoblanishi) xususidagi bahsda aks etdi. Bahs, bir tomondan, qarz foizini undirish man etilishi (riba') haqidagi qoida atrofida, ikkinchi tomondan esa – sarmoyaning ishlatmay tashlab qo'yilishini shariat man etishi vajidan avj oldi.

Turmush tarzining qat'iy belgilab qo'yilganligi islomning zamonaviy globallashuv voqeliklariga moslashuviga to'sqinlik qilmoqda va «g'arblashtirishga» qarshi harakat kuchayishiga olib kelmoqda. Garchi o'zining butun tarixi davomida islom siyosatdan chetda turmagan bo'lsa-da *islomga siyosiy ruh berilishi* musulmon mamlakatlarida milliy-ozodlik kurashi kuchaygan va milliy o'zlikni anglash o'sgan sayin tobora ko'proq namoyon bo'la boshladi. XXI asr boshlarida xalqaro xavfsizlikka va jahondagi barqarorlikka eng ko'p tahdid soluvchi turli radikal (ekstremistik) va terrorchilik kuchlari tomonidan «*islom fundamentalizmi*» shiorlaridan foydalanish hozirgi sharoitda islomga siyosiy ruh berilishining eng keskin ko'rinishlariga aylanmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. Buddaviylik dinidagi "to'rt haqiqat" ta'limotining mohiyatini nimada?
2. Buddaviylik dinining Markaziy Osiyoga yoyilishida ishtirok etgan kohinlarning roli.
3. Xristian dinining vujudga kelishi va yoyilishini izohlang.
4. Xristian dinining qanday oqimlarini bilasiz?
5. Islom dinining arkonlarini sanab bering.
6. Buddaviylik, xristianlik va islom dinlarining ma'naviy munosabatlarini izohlang.

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. Jahon dinlarining mamlakatimizda mavjud ibodatxonalari haqida ma'lumot to'plash.
2. Ijodiy yondoshgan holda har bir jahon dinining ma'naviy asoslarini ko'rsatib beruvchi jihatlarini noan'anaviy usulda izohlash.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: “O‘zbekiston”, 1998.
2. Otamuratov S., Husanov S. Ma’naviyat asoslari./O‘quv qo‘llanma. T., 2002.
3. Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. T., 2007.
4. Falsafa. /Ahmedova M. umumiy tahriri ostida. T., 2006.
5. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. T.: “O‘zbekiston”. 2002.
6. A.Mo‘minov. Dinshunoslik. T.: “Mehnat”, 2004.
7. Islom Ensiklopediya. / Z. Husniddinov tahriri ostida. T., 2004.

ISLOM DINIDA MA'NAVIYAT VA SHAXS MA'NAVIY QIYOFASINING TALQINI

REJA:

1. Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda inson ma'naviyati va ma'rifati masalalari.
2. Tasavvuf va uning ma'naviy jihatlari.
3. Mustaqillik, Islom dini va islomiy qadriyatlarning tiklanishi.

Tayanch so'z va iboralar: Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, islom, payg'ambar Muhammad alayhissalom, tasavvuf, nafs, imon, ixlos, musulmon, din arkonlari, ilohiyot, diniy qadriyatlar, ro'za tutish, haj, «Hidoyat», «Viqoya», «Muxtasari hidoya», «Muxtasari viqoya», diniy aqidaparastlik...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarga islom dinida ma'naviyat va shaxs ma'naviyati qiyofasini ochib berish. Islom dinidagi oqimlar va yo'nalishlarning ma'naviy jihatdan o'zaro qiyoslashga tayyorlash.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarga islom dini va jahon dinlarining o'zaro ma'naviy biri-biri bilan aloqadorlik va farqli tomonlarini izohlab berish. Islom dinining asoslari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarga mustaqillik davrida islom dini va islomiy qadriyatlarning qayta tiklanishi mamlakatimizdagi ma'naviy muhitga ijobiy ta'sir etishini tushuntirish.

1. Mazkur mavzu bir jihatdan qaraganda hamma uchun tushunarlidek ko'rinadi, bunga sabab kundalik turmushda, turli yig'inlarda, marakalarda diniy suhbatlarning tinglanishidir. Ikkinchidan, mustaqillik tufayli din va diniy urf-odatlar, an'analar, marosimlarga oid bo'lgan kitoblarni erkin chop etila boshlaganligi, sotuvda bo'lishidan keng kitobxonlar ommasining bahramand bo'lishidir. Uchinchidan, radio, televidenie eshittirishlarida muntazam suratda diniy-axloqiy mavzularda turli suhbatlarning berib borilishi.

Islom dini ko'p xalqlar orasida keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu dinga e'tiqod etuvchilar — musulmonlar jahonda qariyb 1 milliard 400 million kishini tashkil etadi.

«Islom» so'zi arabcha bo'lib, «xudoga o'zini topshirish», «itoat», «bo'ysunish» ma'nosini beradi. Shundan bu dinga ishonuvchilar — «muslim» deb ataladi. Uning ko'pchilik shakli «muslimun» bo'lib, o'zbeklarda «musulmon» deb ataladi.

Islom dini Arabiston yarim orolida VI asrning oxiri va VII asrning boshlarida kelib chiqqan. Uning asoschisi payg'ambar Muhammad alayhissalom (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub bo'lgan Xoshimiylar xonadonida tug'ilgan. U 609-610 yillarda Makkada yakka xudoga e'tiqod qilish to'g'risida targ'ibot boshlagan. Ammo, zodagonlarning qarshiligiga uchragach, 622 yilda o'z tarafdorlari bilan Madina (Yasrib)ga ko'chadi (arabcha hijrat qiladi). Shu yildan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlanadi.

630 yilga kelib, Makka ham musulmonlar qo'liga o'tadi va musulmon davlati shakllanadi. Muhammad alayhissalom vafotidan keyin bu davlatni uning o'rinbosarlari, ya'ni noiblari (xalifalar) boshqaradilar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb

nom olgan. Dastlab arab xalifaligi katta territoriyani egallagan edi. O'rtasiy yerlari — Movarounnahr (daryo ortidagi yerlar) VIII asr boshlaridan VIII asr o'rtalarigacha arablar tomonidan istilo qilinib, ular bilan birga Islom dini kirib keldi. Ana shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda Islom mintaqa madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati o'ziga xos ravishda shakllandi va taraqqiyot bosqichini boshdan kechirdi.

Islom diniy ta'limotining asoslari — Qur'on va Hadis to'plamlarida, shuningdek, VIII-XII asrlar davomida vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

Qur'oni Karim ilohiy kitob bo'lib, u farishta Jabroil alayhissalom tomonidan Muhammad alayhissalomga nozil etilgan. Bu muqaddas kitob Yer yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy ahkomlar manbaidir. Qur'oni Karim sahifalarini bir kitobga jamlash xalifa Abu Bakr davrida boshlanib xalifa hazrati Usmon davrida yakunlangan va to'rt nusxada ko'chirilgan. Ana shu ko'chirilgan dastlabki nusxalardan biri Movarounnahr musulmonlari diniy idorasida saqlab kelingan, hozirda esa buyuk bobokalonimiz nomi bilan bog'liq Toshkentdagi Temuriylar davri muzeyida saqlanmoqda. Bunday muqaddas kitobning yurtimizda bo'lishi Ollohning bizning yurtimizga bo'lgan inoyati deb bilmoq lozim. Qur'oni Karimda 114 sura, 6236 ta oyat bor. Mustaqillik sharofati bilan turli marosimlarimiz Qur'oni Karim qiroatlaridan boshlanmoqda. Bu o'tmishda bir orzu edi, xolos.

Ilohiyotda Islom dini uch elementdan — imon, Islom, ehsondan iborat deb e'tirof etilgan. Imon talablari 7 ta aqidani — Ollohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning Ollohdan ekanligiga va o'lgandan keyin qayta tirilishga ishonish talablarini o'z ichiga oladi. Islom talablariga, ya'ni din asoslari — arkon ad-din deb nom olgan 5 ta amaliy marosimchilik talablari kiradi. Bular — kalima keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot berish va imkoniyati topilsa haj qilish talablari. Ehson aqidalariga sidqidildan ishonish va marosimlarni ado etishdir.

Hadislar Islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba. Hadislar to'plami sunnat deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so'zlari, qilgan ish faoliyatlari va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon ettirilgan.

Hadisi shariflarni yig'ib kitob shakliga keltirish, asosan payg'ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan.

Bu sharaflı ish hijratning III asriga kelib keng quloch yozdi va u hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining o'sha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bog'dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi muhaddislar ko'p bo'lgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalganlari oltita bo'lib, bularni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Davud, imom At-Termiziy, imom An-Nasoıy va imom ibn Mojja tuzishgan. Bu buyuk muhaddislarining to'rt nafari turon zaminlik bo'lgani bizning faxrimizdir. 1998 yidda Imom Al-Buxoriy tavalludining 1225 yilliga butun musulmon dunyosi, shu jumladan yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqil O'zbekistonda shu munosabat bilan xalqaro anjuman o'tkazildi. Muhaddislik shu qadar sharaflı va sermashaqqat ish bo'lganki u muhaddisdan aql-zakovatni, kuch-quvvat, fidoyilik, yuksak iqtidor va hofizani talab qiladi. Masalan, imom Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab, shulardan 100 ming «Sahih» va 200 ming «G'ayri sahih» hadislarini yod bilganliklari aytiladi.

Islomda axloqiy-xuquqiy qonui-qoidalar majmui shariat XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat qonun-qoidalari Qur'on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va axloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar «Hidoyat», «Viqoya», «Muxtasari hidoya», «Muxtasari viqoya» nomli kitoblarda jamlangan.

Shariatda qonunlar muqaddas hisoblanib, unga har bir mo'min-musulmon ijtimoiy holatidan qati nazar Ollohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etilgan.

Yuqorida Islom, uning muqaddas ilohiy kitobi Qur'oni Karim, hadislar va shariat haqida ba'zi ma'lumotlarni keltirdik. Endi umuman Islom dinida, xususan, Qur'oni Karim, hadislar va shariatda inson ma'naviyati, axloq-odob, ma'rifati haqidagi qarashlarning ba'zi jihatlari to'g'risida fikr yuritamiz.

Qur'oni Karim, hadislar va shariat ko'rsatmalari inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plamidir. Qur'oni Karim, hadislarini, shariat ko'rsatmalarini o'rganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, imon va vijdon bilan bog'liq bo'lgan birorta ham muhim masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz. Ayniqsa, Islom harom va halol masalasiga musulmonlar e'tiborini qaratadi. Shariatda Olloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Harom esa aksincha, qilinishiga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Olloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan.

Halol qilingan narsalar va ishlar ko'pchilikka ma'lum, u hakda ko'p eshitganmiz. Harom qilingan ishlarni eslatib o'tish va eslatib turish joizdir. Bulardan ayrimlari quyidagilar: sog' bo'la turib ishsiz yurish, zinokorlik, ota-onaga oq bo'lish, savdo-sotiqda g'irromlik qilish, bironing haqqiga, omonatiga xiyonat qilish, qasamxo'rlik, sudxo'rlik, o'g'irlik, qaroqchilik, aroqxo'rlik, g'iybat, tuhmat, bo'hton, josuslik, qotillik, poraxo'rlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'irlik, rostguylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

Yuqoridagi inson ma'naviyati xususiyatlari kabi masalalarni ayrim jihatlari mazkur kitobning uchinchi bobida alohida mavzularda ko'rib chiqish nazarda tutilgani sababli ular haqida ushbu mavzu davomida batafsil to'xtab o'tishni lozim topmadik. Hadislarida axloqiy kamolot masalalarida aytilgan ba'zi fikrlardan namuna keltirish bilangina cheklandik, xolos.

Munofiqlik belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilishdir;

—omonat qo'ygan kishining omonatini o'z vaqtida ado eting;

—haqqingizga xiyonat qilgan kishiga siz xiyonat qilmang,

—qachonki, bir gunoh qilib qo'ysangiz, uni yuvish uchun orqasidan bir savobli ish qiling.

O'zimdand keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo'rqaman:

1. Nafsu havoga berilib, yo'ldan ozishdan;

2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan;

3. Ilmu ma'rifatga ega bo'la turib, g'ofillarning ishini tutishidan;

Beshta narsadan oldin beshta narsani g'animat biling:

O'limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bandlikdan avval bo'sh vaqtni, keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng esa otangga yaxshilik qil.

Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do'zaxga mahkumdur. Hadisi muborakdan keltirilgan ushbu misralarning ma'naviy jihatlari izoh berishning hech bir hojati yo'q.

Islomda ilm-fanni egallash, ma'rifatli bo'lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta'kidlanadi. Beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishining o'zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hadislardagi «Sadaqaning afzali mo'min kishi ilm o'rganib, so'ng boshqa mo'minlarga ham o'rgatishdir», «Ilm ibodatdan afzaldir» kabi fikrlar ham tahlilga muhtoj emas.

Qur'oni Karimda «Ilm» so'zi asosida «Alima» — bilmoq fe'l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga ilk nozil bo'lgan oyat ham «Iqra...» «O'qi» so'zidan boshlanadi. Ushbu oyat shunday: «O'qi! Sening o'ta karamli Parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatadi» deb nozil qilingan. Ko'rinadiki, Islom e'tiqodi avval boshdan insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishiga targ'ib etadi.

Islom ma'naviyatida insonning yer yuzida xalifa qilin belgilanishi uning yana bir muhim

jihati hisoblanadi. Qur'on Karimning juda ko'p oyatlarida insonning aziz va mukarram qilib yaratilgani, unga yer va osmondagi barcha narsalar bo'ysundirib qo'yilganligi alohida uqtirib o'tiladi.

Inson Ollohning xalifasi sifatida bilim egasi, yorug' dunyoning barcha bilimlariga uning idroki yetadi. Faqat kibrga berilib ketmasa, o'zini hammadan ortiq qo'ya boshlamasa bas. Parvardigor bizni inson qilib yaratgan ekan, aql-xush, ilmu-amal bergap ekan, demak, biz inson sifatida tafakkur qilib, dunyoviy ilmlarni — dunyoni o'rganib, dunyo orqali Ollohning zotini, ilmlarini kashf etib yashashimiz kerak. Din — ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm — dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamog'i kerak. Bizning bobolarimizning yo'li ana shunday bo'lgan. Bir misol keltiramiz. Rivoyat qilishlaricha Abu Ali Ibn Sino bilan mashhur shayx Abusaid Abulxayr uchrashibdilar. Ular bir kecha bir-birlariga hech narsa demay «suhbatlashib» chiqibdilar. Ertalab Shayxning shogirdlari undan Ibn Sino haqida nima deysiz, deb so'rganlarida, Abusaid Abulxayr: «Men nimaiki vajd (intuisiya) bilan bilgan bo'lsam, u aql bilan bilib olgan», debdi. Ibn Sino esa o'z shogirdlariga: «Men nimaiki aql bilan bilgan bo'lsam, u ko'ngil bilan idrok etadi», deb aytgan ekan. Ko'rinadiki, Ibn Sino dunyoviy ilmlar olimi, Abusaid Abulxayr esa — tasavvuf shayxi, ilohiyot olimi. Ammo, ular bir-birini tushungan va har ikki ilm ham kerakligini anglaganlar.

Yoki olaylik, Mirzo Ulug'bek bilan Xoja Ahror Valiyni. Ular zamondosh, bir shaharda yashaganlar. Ulug'bek — munajjim va shoh, uning shogirdlari aniq fanlar vakillari. Xoja Ahror esa mo'tabar din arbobi, ruhoniyyot zot. Ammo, ular bir-birlariga xalaqit bergan emaslar, aksincha, biri ilmiy ma'rifatni, ikkinchisi bo'lsa ruhoniyyot ma'rifatni rivojlantirib, bir-biriga ko'mak berganlar.

Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, G'azzoliy, Hamadoniyy, G'ijduvoniyy va boshqa ulug' zotlarning hayot tarzi ilm uchun fidoiyligi, e'tiqod-imonining pokligi bilan bizlarga ibratdir. Bularning hammasi ko'rsatadiki, dindorlik ham ma'rifatni, yuksak ma'naviyatni talab qiladi. Kishi qancha chuqur ilm egasi bo'lsa, olam va odam mohiyatini anglasa, uning Ollohni anglashi, imoni ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Gap xoh diniy, xoh dunyoviy ma'rifatni to'g'ri va chuqur anglashda, har ikkovini ham egallamay nodon, johil bo'lib qolmaslikdadir.

Har ikki ilmni egallagan kishi ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma'rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad payg'ambarimizgacha bo'lgan davr arablarda «johiliya» davri deb ataladi. «Johiliya» nodonlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o'rniga keng ma'noda ma'rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atni rivojlantirdi, o'ziga xos ma'naviyat va ma'rifatni yaratdi. Bizning ulug' bobolarimiz Islom ma'naviyati va ma'rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib, kalom ilmi, fiqh, tasavvuf ta'limotini rivojlantirdilar.

Yaqin o'tmishning yomon asoratlaridan biri shuki, sobiq sho'ro tuzumida dunyoviy ilm va diniy-falsafiy ta'limot bir-biriga qarama-qarshi qo'yildi. Ular bir-birini inkor etadigan hodisalar tarzida talqin etildi. Diniy tafakkur dunyoviy ilm rivojiga monelik ko'rsatadigan bid'at sifatida qoralandi.

Biz bugun bunday qarashlarning tubdan zararli va tarixan asossiz ekanligini ochiq aytishimiz mumkin. Dunyoviy va diniy ilm yuqorida ko'rsatganimizdek, o'tmish asrlarda doimo hamkor va hamnafas bo'lib kelganligini tarixning o'zi tasdiqlaydi.

«Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak boskichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G'azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi».

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo'ldik.

Qur'oni Karim va payg'ambarimiz hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga qaratilganligidir. Ulardagi ota-onaga, ilmga

munosabat, sabr-bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, mehmondo'stlik, yetimparvarlik, vafu va sadoqat, halol luqmani sharafdash, kamtarlik, kamsuqumlilik, samimiyat, rostgo'ylik va boshqa chin insoniylik xislatlarining birinchi o'ringa qo'yilishi barcha insoniyat uchun bebaho umuminsoniy ma'naviy boylik tizimini tashkil etadi.

Jismoniy va ma'naviy poklikka intilish Islom axloqining, Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo'nalishidir. Tahorat, g'usl masalalari tashqi ozodalik talablari bo'lsa, xaromdan, yolg'on so'z, g'iybat, tuhmat, zinokorlik, o'zga haqiga xiyonat, nohaqlik va zulmga yo'l ko'yimaslik, ulardan qat'iy saqlanish ichki, ma'naviy poklikka oid talablardir. Bularning hammasi Qur'oni Karim hamda Rasululloh Hadislarida va ularga asoslangan shariatda juda qat'iy qilib qo'yilgan.

Xullas, islom barcha mo'minlarni yuksak ma'naviylikka chorlovchi, insonparvar din ekanligini anglab yetishimiz zarur. Shundagina dindan ma'naviy va ma'rifiy tarbiyada foydalanish zaruratiga to'g'ri yondashamiz.

2. Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf (so'fizm) ta'limoti VIII asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik (tarkidunyochilik — bu dunyo hoyu-havasidan voz kechish) harakati ko'rinishida bo'lib Bag'dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyilgan.

Asli tasavvuf so'zi «So'fiy» so'zidan, «So'fiy» so'zi esa arabcha «So'f» so'zidan yasalgan. Suf deb arablar jundan bo'lgan matoni, aytadilar. Dastlabki davrlarda so'fiylik yo'lini tutgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan tikilgan chakmon (u hirqa deb ham aytilgan) yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni jun chakmon kiyib yuruvchilar, ya'ni so'fiylar deb ataganlar. So'fiy boshqa odamlardan o'zini pok va g'aribona turmush kechirishi, doimiy toat-ibodatda bo'lishi va faqat ilohiy ruhga qo'shilishni maqsad qilib qo'yishi bilan ajralib turadi. So'fiy uchun na dunyodan, na oxiratdan ta'ma bo'lmasligi kerak. Yagona istak bu Ollohning diydoriga yetishishdan iborat. Faqirlik tuyg'usiga ega inson na birovga banda-yu, na birovga hoja, u yolg'iz Ollohga banda, u yolgiz Ollohga ehtiyoj sezadi. Hamma narsadan voz kechish, oxir oqibatda o'zlikdan kechish - so'fiylik; ta'limotining ma'nisi mana shu. Buyuk so'fiy Boyazid Bistomiy aytadilarki: O'zingdan o'tding, Ollohga yetding. Hazrat Hoja Bahouddin aytadilarki: Bizning hech narsamiz yo'q, lekin hech narsadan kamimiz yo'q. O'sha «hech» narsa ketidan yugurib g'am tashvishda ham emasmiz. Egnimizda janda, orqamizda go'riston, agar o'lsak hech bir motam kerak emas.

Tasavvuf — so'fiylik insonni o'rganar ekan, avvalo, kishining ko'ngliga, diliga tayanadi, ko'ngilni, qalbni tarbiyalashga, ko'ngil kishisini voyaga yetkazishga intiladi, chunki Olloh faqat kishining pokiza qalbidagina jilva qiladi.

Tasavvufda insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs ko'yish jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb o'rgatiladi. Komil inson bo'lish uchun avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini nafsiga qul qilib qo'yadi. Darvesh, so'fiy nafsni rad etadi. Nafs barcha falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog'idan, tubanlik jaridan kutqarib, uni poklashning birdan-bir yo'li nafsning ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Olloh muhabbatiga ko'ngil bog'lash darkor. So'fiylikda buni dunyo mohiyatini va o'zligini, insoniylikni anglash yo'li deb qaralgan. O'zligini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklari o'tkinchi ekanligini anglaydi. Xoja Bahouddin aytadilar: «O'z nafsining yomonligini tanish o'zligini tanishdir».

Demak, tasavvuf ilmi — inson haqidagi ilmdir. U inson qalbiga sayqal berish ilmi. Biz bu ilmdan 70 yil davomida bexabar edik. Inchunun, biz necha zamonlar insondan bexabar qoldik va ne zamonlar qalbimizdan fayz ketdi. O'tmishdagi Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Xoja Bahouddin Naqshbandiylar yurtimiz va xalqimizning fayzi kamoli edilar. Istiqloq tufayli shu nur, shu fayz bizga qaytdi.

Movarounnahr tasavvuf ta'limotida Xoja Bahouddin Naqshbandning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ham qayd etishimiz lozim. Naqshbandiya ta'limoti hayratlanarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ma'no va mohiyatga, hayotiy mazmunga ega.

Naqshbandiya ma'naviy-axloqiy ta'limotida hur fikrlilikka keng o'rin berilgan. Bu sulukdagilar mehnat qilish, ilm olish, o'z mehnati evaziga halol yashash, noz-ne'matlarni ko'pchilik bilan baham ko'rish, hammaga yaxshilikni ravo ko'rishni afzal bilganlar.

Bahouddin Naqshband: Aybsiz odam yo'q, shuning uchun agar aybsiz do'st axtarsak, do'stsiz qolamiz, - der edilar.

Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta'kidlab, sham kabi bo'lg'in va odamlarga yorug'lik ber, o'zing esa qorong'uda bo'l, degan ekanlar.

Xoja Bahouddinning «Dil ba yoru dast ba kor» — «Ko'ngil Ollohda bo'lsinu, qo'ling esa ishda» hikmatlarining inson ma'naviy dunyosi takomilidagi ahamiyati beqiyosdir.

Tasavvuf tariqatlari haqida so'zlaganda Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya haqida ham to'xtab o'tishni maslahat beramiz. Biz Najmiddin Kubro siymosida faqat tariqat boshchisini emas, balki o'z vatanini, xalqini dildan sevgan insonni ham ko'ramiz. 1221 yilda bosqinchi mo'g'ul galalari qadami Xorazmga yetib boradi. Muhammad Xorazmshoh mamlakatni, fuqaroni o'z holiga tashlab qochadi. Shu qaltis damlarda Urganchni himoya qilishga 76 yoshlik Najmiddin Kubro boshchilik qiladi va jangda qahramonlarcha shahid bo'ladi. Uning siymosi xalq qahramoni sifatida asrlar osha yashab kelmoqda.

Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya tariqatining qoidalari o'nta bo'lib, ularda bu tariqat yo'lini tutgan so'fiyning ichki ma'naviy dunyosi qanday bo'lishi ko'rsatilgan. Insonning sabr-toqatli bo'lishi, boylik va mol-mulkka mukkasidan ketmaslik, har qanday pastkashlik, riyo, makr va hiyla-nayrangga bormaslik, hayvoniy xususiyat — shahvoniy hirlarga berilmaslik g'oyalari ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi — inson haqidagi ilmdir. Inson qalbiga sayqal berish ilmi. U inson odobini — ya'ni ma'naviyatini yanada yuksaltirdi. Bugun islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamladi. Shu tariqa tasavvuf komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent Islom Universitetini tashkil etish to'g'risidagi farmoni va shu farmonga sharhda ta'kidlanganidek: «Islom ommalashuvi va rivoji sifatida vujudga kelgan tasavvuf ham O'rta Osiyo sharoitida Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarini vujudga keltirdiki, ular butun O'rta Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlarining asrlar davomida ma'naviy, madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynadi».

3. Yaqin o'tmishda namoz o'qish, diniy marosimlarni o'tash taqiqlangan edi. Masjidlar, aziz-avliyolarning ziyoratgohlariga qulf urilgan edi. Odamlarning uylaridagi Qur'on, Hadis, turli diniy adabiyotlar, hatto arab yozuvidagi boshqa kitoblar terib olinib, yoqib yuborilgan edi. Mana buni «johiliya», nodonlik desa bo'ladi. Qanchadan-qancha odamlarimiz hozirgi emin-erkin kunlarni qo'msab, ammo, ko'rolmay, armon bilan o'tib ketdilar. Shu bois biz mustaqillik keltirgan ne'matlar uchun har qancha shukronalar aytsak arziydi. Mustaqillik davrida islomiy qadriyatlar tiklandi, imon-e'tiqodimiz o'zimizga qaytdi. Bu savobli, ezgu ishlarga karvonboshi hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov ekanini har daqiqada eslab turishimiz lozim. Prezidentimiz ma'naviyat va ma'rifatga oid nutq, maruza va asarlarida Islomning ma'naviy-axloqiy, Ma'rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o'rni, ahamiyatini muntazam uqdirib kelmoqdalar.

Xususan, bu masalalarga Prezidentimiz Islom Karimovning «Istiqolol va ma'naviyat» to'plami, «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Olloh qalbimizda, yuragimizda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz» kabi asar va risolalarda javob topishimiz mumkin.

«Islom dini, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javobida, — hayotimizning tub zahiriga chuqur singib ketgan. Bu — inkor etib bo'lmaydigan haqiqat. Milliy qadriyatlarimizning zamonlar osha bezavol yashab kelishiga sabab — avvalo muqaddas dinimiz hisobidan». Bu holat xalqimizga, xususan yoshlarimizga milliy g'oyani singdirishda Islom omilidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ana shularni hisobga olgan holda mustaqil mamlakatimizda islom dini omilidan, uning boy

ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi katta imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, masjidlarga, aziz-avliyolar yotgan maqbaralarga solingan qulflar olib tashlandi. Qarovsiz qolgan masjidlar ta'mirlandi, yangilari barpo etildi. Aziz-avliyolar yotgan, o'tmishda qarovsiz holga kelgan joylar obodonlashtirildi, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yuzaga keltirildi. Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kuni deb e'lon qilindi. Har yili minglab fuqarolarimizning haj va umraga borib kelishlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib berildi. Bu o'tmishda faqat xayoliy orzu va armon edi. Ulug' allomalar — Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Zamahshariy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Matrudi, al-Marg'iloniy va boshqa ulug' zotlarning yubileylari bo'lib o'gdi. 1998 yilda esa Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi nishonlandi. Qur'oni Karim, Hadislar va boshqa diniy kitoblar nashr qilindi, qilinmoqda. O'tmishda birorta ham diniy ulamoning yubileyi o'tkazilmas edi, diniy kitoblarni nashr etish taqiqlangan edi, yuqorida aytganimizdek, borlari ham yo'q qilingan edi. 1999 yilda Toshkent Islom Universiteti tashkil etildi. Mustaqillik yillari islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar bajarildi. Islom va islomiy qadriyatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qoldi. Prezidentimiz Islom Karnmov so'zlari bilan aytganda: «Biz islom dini otabobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz... Dinga hurmat va e'tiqod — biz uchun o'lmas qadriyatdir»³⁴.

Sobiq sho'rolar tuzumi tanazzulga yuz tutib, eski hukmron, yakka hokim bolshevistik-kommunistik mafkura batamom inqirozga uchrab, yangi mustaqil davlatlar shakllanishi jarayonida ma'lum muddat g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq (vakuum) holati vujudga keldi.

G'oyaviy bo'shliq nima? G'oyaviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o'rini bosadigan ilg'or g'oyaviy qarash tizimining ham shakllanib ulgurmas holatidir. Chunki yangi mafkuraning shakllanishi uchun ma'lum davr talab etiladi.

1990 yillarning boshlarida bunday g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston hududida ham namoyon bo'ldi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: «Men ko'hna bir haqiqatni yana eslatmoqchiman: tabiatda bo'shliq bo'lganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo'shliq bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir ongli odamning voqelikka o'z munosabati, maqsad va intilishlari bo'lishi tabiiy»³⁵.

G'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan joyda muqarrar ravishda begona va zararli mafkuralar xuruji boshlanadi. O'tish davrida, yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta'sirlarning foydali yoki zararli ekanini hamma ham darhol fahmlay olmaydi. O'zbekistondagi mafkura maydoniga zararli, xalqimizning orzu intilishlariga mutlaqo begona g'oyalarning hujumi ana shu bilan ham izohlanadi.

So'nggi yillarda bizning diyorimizda ham taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni ko'rolmaydigan «vahhobiylilik» va «hizbut-tahrir» kabi oqimlarning guruh va to'dalari paydo bo'lib qoldi. Bunday to'dalar o'zlaricha masjidlarda g'avg'o ko'tarib, o'tish davrining qiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlarning ongini zaharlamodalar. Mustaqillikning bergan erkinligini suiste'mol qilmoqdalar. Bu mutaassib dindorlar o'zlarini «vahobiy» yoki «dinni tozalovchilar», «fundamentalistlar» deb yuritib, aslida esa birinchi navbatda islomning o'ziga zarba bermoqdalar. Vahobiylar bir yarim ming yillik ilm-fan, madaniyat tarixidan voz kechish, Imom Vuxoriy, Imom G'azzoliy, Imom Abu Xanifa, Burxoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Navoiy, Jomiy, Ulug'bek, Bahouddin Naqshband va boshqa o'nlab mutafakkirlar, so'fiylar, olimlar merosidan voz kechish, ularning asarlarini yoqib yuborishni, maqbaralarini buzib tashlashni tavsiya qilmoqdalar. Ular, umuman, inson aqli, inson qalbi bilan yaratilgan jamiki

³⁴ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz I. «O'zbekiston», 2000, 26-bet.

³⁵ «Fidokor» gazetasi, 2000 yil. 8 iyun.

ma'naviy boyliklarni uloqtirib tashlashga da'vat etmoqdalar. Axir bu vahshiylik, nodonlik, johillikning o'ziku. Ma'naviyatli va marifatli kishi, buni mutlaqo qabul qilmaydi.

Vahobiylik bizni orqaga jaholatga tortadigan, islomni, islom ahlini buzadigan xavfli oqim. «Dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqotlar olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar qilish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo'yayotganlardan milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashimiz lozim.

Diyorimizda din niqobi ostida ish ko'rayotgan ekstremistlar, aqidaparastlar mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi borib, hokimiyatni egallash va O'zbekistonda Islom davlati qurish, xalqni qo'rquvga solib, hukumatga ishonchsizlik uyg'otish uchun turli jinoyatlar va terroristik harakatlar sodir etish yo'li bilan el tinchligini buzishga urinmoqdalar. Ularning asl maqsadi hukumatparastlik, ya'ni davlatni qo'lga olishdan iborat. Mustaqil yurtimizda ularga o'z vaqtida zarba berildi va ularning payi qirildi.

Xalqimiz endi — erkinligini qo'lga kiritgan, o'zligini anglab yetgan bir zamonda allaqanday kimsalarga ergashib yana jaholat va qullik tuzog'iga qaytadimi? Albatta yo'q. Ammo, hamma gap har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda, ogoh va sergak bo'lishda. Ayniqsa yoshlarimizni ularning zararli ta'siridan asrab qolish hozirgi tarbiya ishimizning asosiy yo'nalishi bo'lib qolishi lozim. Begona va zararli, mohiyati g'ayri insoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz zarur. Immunitet (lotincha — ozod bo'lish, qutilish) deganda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlash, o'zini turli xususiyatlarga ega ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Lekin insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish ijtimoiy-siyosiy hayotiy ehtiyoj sanaladi Chunki kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs har qanday oshkora yoki pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera oladi. Yoshlarimiz doimo va har on ogoh va yana ogoh, sergak bo'lishlari zamon talabi. Buning uchun yoshlarimizga mustaqillik g'oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Mana shunda johil aqidaparastning «da'vati» ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini ko'rsata olmaydi.

Prezidentimizning «Turkiston-press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida ta'kidlaganlaridek: «Biz o'z dinimiz va e'tiqodimizdan hech qachon voz kechmaymiz. Shu bilan birga muqaddas dinimiz sha'niga dog' tushirmoqchi bo'lgan kimsalar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz. Men O'zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar islom dinimizni, ota-bobolarimiz e'tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashiga, jamiyatimizga xavf tug'dirishiga hech qachon yo'l qo'ymayman».

Xulosa shuki, mustaqillik bergan hidoyat yo'lini turli yot unsurlardan asrash, ularga berilmaslik, ularning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik lozim bo'ladi. Taraqqiyot yakdillik, fidoiylilik va umummilliy g'oyalarimizning moddiy kuchga aylanishidir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Islom dini haqida nimalarni bilasiz?
2. Qur'on va Hadis qanday kitoblar?
3. Islom dinida inson ma'naviyati masalalari qanday talqin qilingan?
4. Islom dinining ilmga munosabatini izohlang.
5. Tasavvuf qanday diniy ta'limot? Uning mohiyatini izohlang.
6. O'rta Osiyolik qanday buyuk so'fiylarni bilasiz?
7. «Dil ba yoru dast ba kor» iborasining mohiyatini izohlang.
8. Diniy aqidaparastlik deganda nimani tushunasiz? Uning jamiyatimiz uchun xavfi nimada?
9. O'zbekiston mustaqilligi va dinga, diniy qadriyatlarga munosabatdagi o'zgarishlarni

tushuntirib bering.

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. "Hadisning jamiyat ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati" mavzusida referat tayyorlash.
2. Rivojlanib kelayotgan yoshlarni turli xil oqimlarga kirib qolishdan himoya qilish uchun nimalarni amalga oshirish kerakligi haqida har bir talaba esse tayyorlab kelish.
3. Talabalar islom dini ma'naviy asoslaridagi ijobiy ahloqiy kategoriyalardan kim ko'p topib kelishga .

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Tarixiy hotirasiz kelajak yo'q. T.: "O'zbekiston", 1998.
2. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari./O'quv qo'llanma. T., 2002.
3. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T., 2007.
4. Islom Ensiklopediya. / Z. Husniddinov tahriri ostida. T., 2004.
5. Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi. T.: "Iqtisod va moliya", 2008.
6. Komilov M. Movarounnahrda fiqh ilmining rivoji va faqih Alouddin as-Samarqandiy. T.: "Istiqlol", 2006.
7. Islom tasavvufi manbalari. / Mas'ul muharrir Komilov N. T.: "O'qituvchi", 2005.

SHAXS MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA VOSITALARI

REJA:

1. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona va oila masuliyati.
2. Adabiyot va san'at — shaxs ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi.
3. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishning boshqa omil va vositalari.

Tayanch so'z va iboralar: Shaxs ma'naviyati, oila, adabiyot, san'at, yaxshi fazilatlar, Hazrat Alisher Navoiy ma'naviy barkamollik, ma'naviy tarbiya...

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad – talabalarda shaxs ma'naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari haqida tushuncha hosil qilish.

Rivojlantiruvchi maqsad – talabalarga shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona va oila masuliyati, adabiyot va san'atning o'rni beqiyosligini ochib berish.

Tarbiyaviy maqsad – talabalarda shaxs ma'naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari haqida tushuncha hosil qilgan holda ularni barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida bu omillarning ahamiyati beqiyosligini tushuntirish.

1. Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p. Shulardan biri farzandning ota-onaga va ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati masalasidir.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab, hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri — ota-onani farzandlar tomonidan yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir.

Ota-ona o'z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloqi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunohhisoblanadi. Ota-onani qadrlash, ularning beulchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish, duolarini olish - bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

Buyuk bobomiz Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, «Ota-onani hurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyoyining obod bo'lishni istasang, shu ikki odamning roziligini ol. Tunu kuningga nur berib turgan — birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» so'zidagi «dol» kabi qomatingni ham qil».

Tan olishimiz kerakki, sho'rolar davrida keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshladi. Ba'zi yoshlarimizda o'zlaridan kattalarni, nuroniy qariyalarni hurmat qilish, ularning nasihatlariga quloq solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qolib ketayotgani sezilmoqda. Ehtimol, boshqa millat kishilari bunga unchalik e'tibor berishmas, lekin biz, o'zbeklar buni his qilmay ilojimiz yo'q.

O'ziga to'q, boy-badavlat bo'lgap ayrim farzandlarning ota-onalari keksalar uchun ajratilgan uylarda yashayotganligiga toqat qilib bo'lmaydi. Gohi-gohida bo'lsa ham, ota-onaga qo'l ko'tarish, undan ham og'irroq jinoyat qilish hollari sodir bo'lib turganligini eshitib turibmiz. Bu — oddiy nuqson emas, balki uchiga chiqqan tubanlik, bag'ritoshlik, milliy qadriyatlarimizni oyoq-osti qilish, o'z insoniyligini yo'qotishdir. Milliy qadriyatlarimizga o'zbek xalqining sha'niga dog' tushiradigan bunday yaramas hodisalar zamini, ildizi, sababi nimada, degan savol paydo bo'lishi tabiiy.

Sho'rolar davrida, avlod-ajdodlarimizning o'gitlari, pand-nasihatlari, ajoyib an'analarimiz targ'ib qilinish o'rniga nuqul qoralandi, yomon otli qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandi. Milliy tarbiya borasidagi merosimiz o'rganilmadi, targ'ib etilmadi. Ularning o'rniga ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, Rusiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatlarimizdan bebahra qilib qo'ydik. Ana shu tufayli diniy-axloqiy, oila, qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'ylar ta'siri kabi ta'lim-tarbiyaning hayot sinovidan o'tgan bebaho boyliklaridan judo bo'la boshladik. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi, bunday salbiy illatlarni tugatish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmokda.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat kabi insonni inson sifatida ulug'laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz odamlar, ayniqsa, yoshlar qalbidan o'rin ola boshlagani quvonchli bir holdir.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni — Konstitutsiyada farzandlarning jamiyat, oila, ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Xullas, har bir farzandning o'z ota-onasini e'zozlashi farzandlik burchi va jamiyat oldidagi mas'uliyati sanaladi. Ota-onani e'zozlashning quyidagi sharqona talablariga hammamiz amal qilishimiz ham farz, ham qarz, farzandlik burchimizdir: Ota-onaga taom berish, ozoda qilib kiyintirib qo'yish, kasal bo'lganda shifokorga ko'rsatish, kerakli dori-darmonni keltirib berish, doimo hol-ahvol, sihat-salomatliklarini so'rab turish, ota-ona oldida «uh» tortmaslik, gerdaymaslik lozim bo'ladi. Ota-ona norizo bo'lgan ishni qilmaslik, aroq ichma, giyohvandlik qilma, yomonga qo'shilma, desa uni qilmaslik va qo'shilmaslik kerak bo'ladi. Ko'chada yurganda otadan oldin yurmaslik. otadan avval ovqatga, dasturxonga qo'l uzatmaslik, otadan avval o'tirmaslik, otadan ko'ra poygakda o'tirish, otaning oldida oyoqni uzatib yonboshlab olish bizning axloq-odobimizga kirmaydi. Ota-ona chaqirganda labbay deb javob qaytarish, nima ish qilayotgan bo'lsa, hech ikkilanmasdan darrov ularga javob berish farzandlik burchi hisoblanadi. Shunda ota-ona o'z farzandidan rozi bo'ladi. Ota-onaning roziligini olgan farzand baraka topadi, ishi o'ngidan keladi, oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. Ota rozi — xudo rozi, degan hikmatda gap ko'p. Ota-onasi norizo bo'lgan farzand kechgacha yugursa ham, ishining barakasi bo'lmaydi, biri ikkiga aylanmaydi. Turmushga chiqish, uylanishda ota-onaning roziligini, oq fotihasini olishda hikmat ko'p. Yuqoridagilarning hammasi biz uchun bir xovuch oltin, xazina. Kelgusi hayotimiz uchun poydevor qo'yish demakdir. Bu dunyo qaytar dunyo, nima eksang shuni o'rsan, Siz ota-onangizga nima qilgan bo'lsangiz, u sizga farzandla-ringizdan qaytadi. Bu ham tabiat qonuni bo'lsa ne ajab!

Endi ota-onani hurmat qilishning ulug'vorligi haqidagi ba'zi ibratli fikrlarni hadislardan keltirib o'tamiz. «Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Oллоh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha, Oллоh taolo undan rozi bo'lmaydi»; «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannatdagi daraxt) nasib bo'lib, Oллоh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi»; «Uch toifa kishilarning duosi, hech shubhasiz, Oллоh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi»; «Ota-onalarning keksaygan vaqtda har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin» va

boshqalar.

Yuqorida farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida fikr yuritdik. Ota-onaning ham farzand oldidagi burchi nihoyatda katta va mas'uliyatlidir. Farzandlarning kelajakda qanday ma'naviyat egasi bo'lishi ko'p jihatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog'liq. Har bir ota-ona farzandi oldida o'z otalik, onalik burchini to'liq his etishi, unga javobgarligini ma'nan anglab yetishi kerak.

Sobiq sho'rolar davrida uzoq vaqt milliy va ma'naviy tarbiya chetga surib qo'yildi. Oqibatda bolalar tarbiyasida ota-ona mas'uliyati pasayib ketganligi hech kimga sir emas. Vaholanki bola, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida ota-ona beradigan tarbiya juda muhim ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-ona yaxshi bilishi foydadan holi bo'lmaydi: **Birinchisi** — nasl tarbiyasi, ya'ni bola tarbiyasi — bola tug'ilmasdan uch-to'rt yil oldin boshlanishi kerak. Ya'ni bo'lg'usi ona va otaning sog'lig'i, farzand tarbiyalashga mas'ulligini hisobga olish lozim bo'ladi. Bu — bola, farzand ko'rishni istagan ota-onaning bo'lajak farzandlari taqdiriga mas'uliyat bilan qarab, o'zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi. **Ikkinchi bosqich** — homiladorlik davridagi parvarish. Bu masala o'ta muhim, o'ta ahamiyatli bo'lib, bizda bu eng qoloq soha bo'lib kelmokda. Rivojlangan mamlakatlarda homiladorlik davri tug'ilajak inson takdirining 60 foizini belgilashi ko'zda tutiladi. Bu davrdagi chora-tadbirlar aksariyat ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. **Uchinchi davr** — bola tug'ilgandan to 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Shu davrga kelib, bola ma'naviyatining asosiy kurtaklari shakllanib bo'ladi. So'ng ana shu ma'naviy kurtaklarni parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Ma'naviy barkamollik, balki, beshikdagi allaning mazmunidan, bolani kiyintirish-u uni halol luqma bilan boqishdan boshlanishi mumkin. Hazrati Bahouddin Naqshband aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar, amollar halol luqmadandir. Demak, ota-ona farzandini halol luqma bilan boqsa, u farzand ma'nan pok va halol bo'lib voyaga yetadi. Biz sho'rolar zamonida buni unutayozdik, ahamiyat bermadik, boz ustiga tarbiyani ham tuzum o'z manfaatlariga moslashtirib, uni o'z qo'liga oldi.

Xulosa shuki, bola tarbiyasini dono xalqimiz aytganidek, u hali tug'ilmasdan ota, ona va butun oila a'zolari hamjihatligida boshlashimiz lozim bo'ladi.

Olamda barcha narsa juft-juft bo'lib yaratilgan. Juft bo'lib yashash tabiat qonuni, taqozosi. Lekin oila bo'lib yashash barcha mahluqotlar orasida faqat odam nasliga xosdir.

Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'ini, zarrachasi. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Er va xotin — ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam — bu oiladir. Agar oila tinch-totuv, ahil bo'lsa, olam tinch va obod. Aks holda, turmush do'zaxga aylanadi, oila zindonning o'zi bo'ladi, buning jabrini esa er va xotinning o'zigina emas, balki farzandlari, yaqinlari ham tortadi.

Oila poklikka va soflikka ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila — haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, Milliy g'oyamiz, mafkuramizga xos ilk fazilatlar oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, imon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, isnonparvarlik, ilmga ishtiyoq, mehnatsevarlik ko'nikmalari shakllanadi.

Ota-onalar bolalarda yoshlikdan xalq, yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish, ezgulik, insonparvarlik, rahm-shafqatlilik ruhida tarbiyalashga mas'uldirlar. Buning uchun o'z farzandlarini yoshligidan boshlaboq narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analimizga xos shakllarini qo'llashlari lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi. Balki, sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmi kitoblar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlarni ko'rishga qiziqtirish ular ma'naviy-

mafkuraviy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Masalan, «Zumrad va Qimmat», «Yoriltosh», «Xo'ja Nasriddinniig sarguzashtlari» kabi qator ertak-filmlar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlik, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'ularini tarbiyalash, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg'otish mumkin.

Eng qadimgi odatimizga ko'ra, o'zbek oilasi ham to'ydan boshlanadi. Xalqimiz sahovatli xalq. Topganini el-yurt oldiga qo'ysam, deydi. Xalqimizni to'ysevarlikda ayblab bo'lmaydi. Agar ayblasak, o'z-o'zimizni kamsitgan bo'lamiz. To'y va ma'rakalarimizga o'rinsiz tosh otish insofdan emas. Lekin to'y bahona soxta obro' olishga intilish, kimosharga, isrofgarchilikka yo'l qo'yishni oqlab bo'lmaydi. To'y va ma'rakalarda musobaqa emas, xayr-sahovat va ma'naviyat qadriyatlarini mustahkamlash ustuvor bo'lgani yaxshi.

O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy, ma'naviy mezonlari bor. Quyida biz shulardan ba'zilari, turmush uchun zarurlari haqida to'xtab o'tishni lozim topdik, zero, bu siz kabi oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan holi bo'lmas, degan niyatdamiz. Aytmoqchi bo'lgan gaplarimizni eshitgan bo'lsangiz, yana bir bor eshitsangiz foydadan holi emas.

Rizq-ro'z tongda har bir odamga, oilaga ulashiladi. Kimki g'aflat bosib, o'rinda yotaversa, rizqidan quruq qoladi, deyiladi. Barvaqt turilsa, ish unumli, o'sha kun xayrli bo'ladi....

Yuz-qo'lni yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lni yuvgandan so'ng kichiklar kattalarga salom beradilar, ayollar nonushta tayyorlaydilar, qizlar-kelinlar hovli, eshik oldini supurib, suv sepib qo'yadilar...

Ish yoki o'qishga oilaning tabarruk yoshlilaridan fотиha olib ketilishi axloq-odob doirasiga kiradi, qaytganda, avval ularga uchrashib, salom beriladi, hol-ahvol so'raladi...

Oila odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga yetgan farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochiq-sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so'zlarni aytmaydilar. Ko'chaga uy kiyimida chiqilmaydi va boshqalar. Aytaversak, o'zbek oilasining fazilatlarini ko'p, qonunlarda belgilanmagan, ammo, millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o'zlashtirishi ham farz va ham qarzdur. Chunonchi, oilada ota-ona, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlarning samimiyat darajasi ham yoshlarda sog'lom fikrning, sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, mas'uliyat kabi ijobiy ma'naviy fazilatlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Xalqimizga xos ustuvor fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindosh-urug'larning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to'g'ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ayash, urf-odatlarini muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi. Bunday sifatlarni o'zlashtira olgan har bir o'g'il-qizda oilaparvarlik, yurtparvarlik fazilatlarini rivojlanishi muqarrar. Ammo, oilaviy nizo va ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo'lmoqdaki, oila muhitining nosog'lomligi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til topa olmaslik holatlari nafaqat o'sha oila, balki qarindosh-urug'lar o'rtasidagi xotirjamlikka ham rahna soladi. Eng achinarlisi — buning oqibatida e'tiqodsiz, diyonatsiz, maqsadsiz bolalar, hayotda o'z o'rnini topa olmagan insonlarning iaydo bo'lishidir.

Shunday qilib, oila - jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg'ak qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz». Ya'ni ma'naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Shuning uchun ham mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, Asosiy qonunimizning "Oila" deb atalgan 14-bobidagi 63, 64, 65-moddalarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Mustaqil Respublikamizda Oila munosabatlariga alohida ahamiyat berilayotganligini Oliy Majlisning birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida «Oila kodeksi» haqidagi qonunning qabul

qilinishida ham ko‘rishimiz mumkin. Davlatimizning oilaning rolini oshirishga qaratilgan siyosati, albatta, farzandlarimizning ma‘naviyatini yuksaltirishida katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

2. Adabiyot va san‘at — shaxs ma‘naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi. Adabiyot va san‘at asarlari mustaqil Rsspublikamiz fuqarolari ma‘naviy dunyosini boyitish, ularni go‘zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma‘naviy g‘oyasi yuksak, badiiy jozibali adabiyot va san‘at asarlari kishilar kalbiga tezroq yo‘l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta‘sir qilish, hayotiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada etishga da‘vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun adabiyot va san‘at asarlarining kishilarni yuksak ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy tasir etishdek vositalik xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san‘at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki-ruhiy dunyosiga emotsional ta‘sir ko‘rsata olishidadir. Ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san‘atning ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir.

Ma‘naviy tarbiyada o‘zbek xalqining boy ma‘naviy merosidan keng foydalanish uning ta‘sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘la oladi. Yoshlarimiz ma‘naviy tarbiyasida Yusuf Xos Hojib, Ahmal Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma‘naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy-ma‘naviy merosi o‘zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi.

Klassik san‘atkorlarimiz asarlarida halollik va poklik, to‘g‘rilik, bironing haqiga ko‘z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik, imonlilik, halol luqma bilan kun ko‘rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma‘naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan.

Ma‘naviy tarbiyada Pirimqul Qodirov, Odil Yokubov, Said Ahmad, O‘tkir Xoshimov, Tohir Malik kabi yozuvchilarimiz, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Xojiyev, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi shoirlarimizning asar va she‘rlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe‘l-atvori, axloqi, ma‘naviy dunyosi to‘g‘risida suhbat, munozara o‘g‘kazish katta samara beradi.

Ma‘naviy tarbiyada kishilar ongi, ruhiyatiga ta‘sir etishda teatr san‘atining ham roli, o‘rni va ahamiyati, ta‘sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san‘atini ikki tomoni charxlangan shamshirga o‘xshatishimiz mumkin. U bir tomoni bilan kishilar qalbiga yorug‘lik olib kirsam, uni yuksak ma‘naviylik tomon yo‘llasam, ikkinchi tomoni bilan esa inson qalbidagi nodonlik, jaholat ya‘ni ma‘naviyatsizlikka va jaholatga qarshi kurashadi.

Teatr san‘ati boshqa san‘at turlari kabi obrazli — badiiy tabiati bilan inson qalbiga emotsional ta‘sir ko‘rsatish, uning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borish, shu orqali ma‘naviy dunyosini boyitish xususiyatiga ega. Mustaqillikni mustahkamlash, kishilarni yuksak ma‘naviylik ruhida tarbiyalashda teatr san‘atining ana shu xususiyatidan unumli foydalanish zamon talabi. Afsuski, kishilarimiz, shu jumladan yoshlarimizning teatr, kino san‘ati, yoki san‘atning boshqa turlariga bo‘lgan qiziqishi unchalik yetarli darajada emasligi kishini ajablantiradi. Teatr voqeligimiz, kishilarimiz turmushi, intilishi, qiziqishi, xatti-harakatlarini hayajon bilan aks ettiradigan maydondir. U bir vaqtning o‘zida ham so‘z, ham musiqa, ham xatti-harakat orqali inson qalbiga ta‘sir etish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun teatr va kino san‘atining bu xususiyatidan ma‘naviy tarbiyada foydalanish katta samara berishi shubhasiz. Faqat ulardan samarali foydalanish lozim bo‘ladi.

Bunday asarlarni kishilar qalbiga kirib borishida televidenie imkoniyatlaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Kishilarimiz «Otlar so‘zi — aqlning ko‘zi» kabi ko‘rsatuvlarni sabrsizlik bilan kutganidek, ma‘naviy yuksaklikka chorlaydigan, ya‘ni jasorat va olijanoblikni, ma‘naviy go‘zallik va axloqiy poklikni, ulug‘vorlik, nafosat va ma‘naviy qadriyatlarimizni targ‘ib etuvchi badiiy yuksak adabiyot va san‘at asarlariga muxtojdir. Chunki, ular ma‘naviyatimizni yuksaltiribgina qolmasdan shuning bilan birga yoshlarimizga ilm egallashda, millat va vatanni taraqqiy ettirishda fidoyilik ko‘rsatishda, zavq-shavq va ilhom

bag'ishlaydigan vositalarning asosiyalaridan biri hisoblangan.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda va yoshlarimiz ongiga milliy istiqloq g'oyalarini singdirishda respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining olib borayotgan amaliy ishlarini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Uning viloyatlardagi va Toshkent shahridagi bo'limlarida samarali ishlar amalga oshirilmokda. Xususan, talaba yoshlar bilan respublikamizning ko'zga ko'ringan adabiyot va san'at arboblarning uchrashuvlarini tashkil qilish, ko'zga ko'ringan olimlar ishtirokida turli ilmiy-amaliy konferensiyalar uyushtirish kabi o'ta muhim ishlarni amalga oshirilmokda. Ayniqsa, bu kengash tomonidan ma'naviyat, tarbiya va ta'lim masalalariga bag'ishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop risolalarni bosib chiqarayotgani va ularni yoshlar o'rtasida keng targ'ibot qilayotganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Bu kengash o'z faoliyati bilan mamlakatimizda tarbiya borasida olib borilayotgan umumiy ishga o'z hissasini qo'shib kelmokda.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari — o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, vrachlar, artistlar, barcha rahbarlar birdek mas'uldirlar. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma'naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo'ladi.

3. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda so'z g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. «Yaxshi so'z — qilichdan ham kuchli» degan gap bor. Haqiqatan ham o'z o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama'ni fikr doimo kishilarning xulq-atvoriga, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fikrni esa tinglovchining talab-ehtiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga aloqadorligini hisobga olgan holda bayon etilsagina ta'sirchan va ishonchli bo'ladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya olib borishda muayyan ma'naviy qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik lozim. Bunday izoh yaxshi samara bermasligi mumkin. Shuning uchun tinglovchiga alohida-alohida fikrlarni ravon va sodda tilda bayon etilsa, u masalaning mohiyatini tez anglab oladi.

Aytilayotgan fikr tinglovchi qalbidan o'rin oladi. Masalan, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizni o'rni haqida so'zlar ekanmiz ularning barchasini bir boshdan birma-bir o'tish shart emas. Ya'ni, ona mehr-muhabbatining naqadar ulkan kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini his etish kishi qalbida kuchli, takrorlanmas kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

O'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallamizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analariga tayangan holda, ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Mahalla avvalo sog'lom ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muhit sanaladi. Mahallada kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlini uning katta yoki kichikligidan, amaldor yoki oddiy ishchi, hunarmand, boy yoki nochor bo'lishidan qati nazar ularning xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha'ni uchun kurash, o'zaro yordam kabi fazilatlarini kamol topishida mahallaning o'rni beqiyos.

Shaxs ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya muassasalarining o'rni nihoyatda katta. Maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari ma'naviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan ma'naviy tarbiya jarayonida, barcha o'quv qo'llanmalar va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda, o'tkaziladigan tadbirlarda quyidagi ma'naviy-ma'rifiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiq:

- Vatanga muhabbat to'yg'usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat va hurmat uyg'otish;

- milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizga hurmatni kuchaytirish;
 - ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
 - umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanligini uqtirish;
 - dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglatish;
 - hukuqiy madaniyat sog'lom dunyoqarash, sog'lom ma'naviy fazilat shakllanishining muhim omili ekanligini tushuntirish;
 - o'z tarixini bilish orqali o'zligini anglash va boshqalar.
- Ta'lim muassasalarida yaratilgan o'quv qo'llanmalardan tortib sinf va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim beruvchi ijtimoiy ko'rgazmali qurollar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Shundagina shaxs ma'naviyatini shakllantirish borasida qo'ygan maqsadga erishamiz. Shuning bilan ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirib borish ham eng dolzarb vazifalarimiz qatorida turganligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ota-onaning farzand oldidagi ulug'ligi nimada?
2. Birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh iborasining mazmunini izohlang.
3. Ota-onaning farzandlar oldidagi burchi nimada deb bilasiz?
4. Farzandlarning ota-onalar oldidagi burchi nimada deb bilasiz?
5. Ota-ona va farzandlar mas'uliyati haqida O'zbekiston Rsspublikasi Konstitutsiyasida nimalar ko'rsatilgan?
6. Ota rozi — xudo rozi iborasining mazmunini izohlang.
7. Farzand tarbiyasini qaysi davrda boshlanishi haqida nimalar bilasiz?
8. Yaxshi fe'llar, yaxshi a'mollar — halol luqmadandir iborasining mazmunini izohlang.
9. O'zbek oilasining ma'naviy-axloqiy jihatlari haqida nimalarni bilasiz?
10. Kishilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda adabiyot va san'atning ahamiyati nimada deb bilasiz?
11. Qaysi yozuvchi va shoirlar asarlarida o'zbek milliy ma'naviyatining o'ziga xos jihatlari o'z ifodasini topgan? Ular milliy ma'naviyatimizning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
12. Shaxs ma'naviyatini shakllantirishning yana qanday omillarini bilasiz.?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar:

1. "Oila – ilk axloqiy maskan" mavzuida esse yozib kelish.
2. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli haqidagi rivoyatlar, xalq maqollari, matallardan tayyorlab kelish.
3. Insonning yaxshi va yomon axloqiy xislatlaridan misollar keltirish.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008.
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O'zbekiston", 2000.
3. Otamuratov S., Husanov S. Ma'naviyat asoslari. / O'quv qo'llanma. T., 2002.
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000.
5. Musurmonova O. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish. T, 1993.
6. Erkaev A. Manaviyat — millat nishoni. T, «Ma'naviyat», 1997.
7. Imomnazarov M. Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T, «Sharq», 1996.
8. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T, «Sharq», 1999.
9. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari. T., 2008.
10. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. / Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. T., 2006.